

Abulqosim Mamarasulov haqida

Abulqosim Mamarasulov 1958 yil 5 fevralda Samarqand (hozirgi Jizzax) viloyati Bulung'ur (hozirgi Baxmal) tumanidagi Barlos qishlog'ida tug'ilgan.

1979 yili Alisher Navoiy nomli Samarqand Davlat universitetining rus filologiyasi fakultetini tugatib, Jizzaxdagi "Bo'ston" gazetasida tarjimachilik bilan o'z ish faoliyatini boshlagan. 1996 yilga qadar "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Xalq so'zi", "Turkiston", "Inson va qonun" gazetalarning Jizzax viloyatidagi muxbiri vazifalarida ishlagan. 1996 yildan beri fermerlik, tadbirkorlik bilan shug'ullanadi.

1984 yildan Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. "Suyunchi" (1982), "Xayotning bir lahzasi" (1985), "Sen uchun yonib" (1988, jamoa), "Svidanie na perevale" (1988, jamoa, Moskva), "Barlos qishlog'ining zumrad tonglari" (1990), "Sevishganlar" (1992) hikoyalar to'plamlarining muallifi.

Jizzax viloyatining Bo'ston shaxarchasida yashaydi. Oilali. Sakkiz nafar qizi bor.

Alibek va qirq do'stining sarguzashtlari

Farishta

Alibek Samarqanddan o'qishdan yiqilib qaytdi. To'g'risini aytganda, yiqilmadi. Yon-veriga qarasa, ishongan tanishi yo'q. Kallasi aynib, hujjatini SamGASI ga topshiripti. Buni qarang-a! Matematikaning "m" harfini ham bilmaydi-yu, tag'in... Yana, Samarqandda yurgandan keyin biri u deb, ikkinchisi bu deb, oyog'ingdan oladiganlar chiqar ekan... Bor-e, dediyu, hujjatlarini qaytib olib, Barlosga ravona bo'ldi.

Sovxozda uzum terish boshlanayotgandi. Brigadir Nurali aka o'ziga hisobchi topolmay turgan ekan. Alibekning ko'chada salanglab yurganini ko'rib, taklif qildi. To'rtinchi sinf matematikasini tushunsang, qo'shish-ayirish, bo'lish-ko'paytirishni bilsang bo'ldi, eplaysan, dedi. Alibek jon-jon deb rozi bo'ldi. Baxt kulib boqqanini ko'r. Hisobchi bo'lish yomon emas. Bir mavsumda qanchadan-qancha pul ishlab olish mumkin. Bo'ldi endi, Nurali aka bilan kelishib, o'zigayam, otasigayam (omborda mudir), onasigayam (uy bekasi), akasigayam (student), opasigayam (ikki yil burun tog' tarafga erga tegib ketgan, hozir chaqalog'ini boqyapti), singlisiyu (besh yoshli), ukasigayam (beshikda) ish haqi yozaveradi. Ana pul, mana pul. Qolgan uka-singillar o'zlari ishlashadi. Ularga ham yordam qilib turish mumkin. Bu yog'i zo'r bo'ladi. Pulga botadi. Bundan tashqari yaqinda Pedtexnikumning studentlari yordamga kelishadi. Bu degani - kayfu-safo degani. Maishat... To'qson foizi qizlar. Bittasini ilintirib olsa, har kuni uchrashuvlar, o'pishishlar, tizzaga bosh qo'yib yotishlar... mazza!... (Ko'ngil qursin, nimayam deysiz!). O'tgan yili qishloqning yoshi katta bolalari yayrab qolishgandi. Uni esa, qizlar maktab o'quvchisi deb nazariga ilishmagandi. Alibekka roza alam qilgandi. O'zingdan ikki-uch yosh katta bolalar studentkalar bilan qanday uchrashuv tashkil qilganlarini, xilvatgohlarda... Eh-he, u yog'ini eshitaversang, chiday olmay qolasan. Gap shu yerga yetganda Alibek o'zini tutolmay, butun vujudi ko'z bo'lib, hamsuhbatiga tikilar, og'zining tanobi qochayotganini sezar, lekin... - Oldin tansa tushisharkan, o'sha yerdan bitta-bitta yetaklab ketaverisharkan (yolg'on bo'lsa xudoning o'zi kechirsin!) Bu yil Alibek ham xuddi shunday qiladi. O'tgan yili kichkina edi. Maktab o'quvchisi edi. Endi... bo'yi o'sgan, kerak bo'lsa, Samarqandini ham ko'rib keldi. Ha, Alibek hazilakam odam emas. Ko'p narsani o'rgandi, ko'zi pishdi. Umuman, o'sha qizlar qo'lida bo'ladi (axir hisobchi-ku!) Lyuboyiga: senga ko'proq yozaman desa, bo'ldi, o'zi yugurib oldiga keladi. Alibek studentkalarni qanday o'ziga qaratishni yaxshi biladi. Ular kunlik normani bajarishi kerak, bu esa oson emas. Xullas...

Alibek ish boshlash uchun uzumzorga borsa, sinfdoshi Zulfiya savat ko'tarib, uzum terib yuripti.

- Ie, Alibek, senam qaytib keldingmi? - deb so'radi u, muloyim ko'zlarini tikib, iljayarkan. - O'qishga o'tolmadingmi?

- Shunaqa bo'lib qoldi. To'g'risini aytsam, o'qishga o'tish qiyin bo'lib ketipti. Avvalambor tanish kerak, so'ng unga beradigan pul kerak. Ikkoviyam bo'lmasa, o'qishdan umidingni uzaver. Shuni bildimu, imtihonga yetmasdan qaytib kelaverdim. O'zing nima qilib yuripsan?

- Ishlayapman. Qurbonoy bilan birga

Ikkita savatni uzumga to'ldirib, qator orasidan Qurbonoy ham chiqib kelib qoldi. Alibek unga ham qaytish sabablarini tushuntirdi.

Zulfiya juda zo'r qiz bo'lib ketipti-da!

Yo avvaldan shunaqamidi?

Atirguldoy ochilganini qarang! Biram mayin boqadiev odamga. Erib ketging keladi-ya!

Qo'limga ushlab hidlasam deysan! Maktabda o'qib yurgan paytlari payqamagan ekan. Ayniqsa qaddi-qomati! Ajoyib! Zo'r!!

Qarashlari go'yo yuragingga igna sanchayotganday bo'laveradi. Shunaqa ignaning yana sanchilaverishini istaysan, huzur qilasan.

Alibek o'z o'ylaridan xursand bo'lib ishshaydi.

- Nimaga kulasan? Zulfiyaning o'zi muloyim kulimsirab turardi.

- Maktabda o'qib yurgan paytlarimiz esimga tushib ketdi, - dedi Alibek, hamon ko'zlarini qizdan uzmay. - O'shanda kichkina eding.

- Nima, endi katta bo'lib qolipmanmi?

- Ha, juda chiroyli bo'lib ketipsan!

- Rostdanmi?.. Sen esa,.. Samarqandga borib aynib kepsan! - Zulfiya gapini hazilga burmoqchi bo'ldiyu, qattiq hayajonlanayotganini yashirolmadi. Betlari duv qizarib, - seni qarayu, - deganicha savatlardagi uzumlarni yashiklarga to'kib, Qurbonoyning orqasidan qator oralig'iga yugurib ketdi.

Qizning ustida bor-yo'g'i qishloqcha keng tikilgan qizil gulli ko'ylak bo'lib, o'ziga juda yarashgan, bo'y-bastini ko'z-ko'z qilib turardi. Uzun qilib tashlab qo'yilgan ikki o'rim sochi to'lg'anib, kishi zavqini oshirardi. Alibek ishshayganda uni orqasidan kuzatib qoldi. Vujudiga lazzatli titroq kirganini angladi. O'ylab turgan gapi qanday og'zidan chiqib ketganiga o'zi hayron: "juda chiroyli bo'lib ketipsan!" O'z dadilligidan g'ururlanib qo'ydi: "Bekorga Samarqandga borib keldimmi? Qancha hayotiy tajribalarim oshdi. Zo'r! Judayam zo'r! Zulfiyasi qurmag'ur-ey! Juda chiroyli bo'lib ketibdi-ya!" Alibek bir daqiqa o'z og'ushida tasavvur qilib ko'rduyu, yuragi o'ynoqlab ketdi. Kun bo'yi uni o'yladi. Har safar uning savat to'ldirib chiqishini kutadi. Zulfiya endi faqat Qurbonoy bilan birga chiqadigan bo'ldi. Dugonasiga uning gapini aytgan bo'lsa kerak, ikkovi ham unga kulib qarashadi. Ayniqsa, Zulfiyaning tabassumi - muloyim, mayin, rohatbaxsh, mazza qilasan odam...

Bir vaqt qizlar chinqirishib, qator oralig'idan yugurib chiqishdi. Shu atrofda o'ralashib yurgan Alibek "nima gap?" deb yetib bordi. Qo'rqqanlari endi o'zlariga nash'a qilayotgan qizlar qotib-qotib kulishardi. Tokning orasidagi katta novdaga arilar uya qo'ygan ekan. Uzum terayotganda novdani silkitib yuborishgan shekilli, bezovta bo'lgan arilar ikkoviniyam shiriqtirib quvipti.

- Ishqilib chaqmadimi? Alibek homiy sifatida so'rarkan, Zulfiyaning qo'llarini, yuzini ushlab ko'ra boshladi. Ayni paytda yuragi chidab bo'lmas darajada g'apriqib borayotganini sezdi. Sal bo'lmasa, quchoqlab olay derdi. Hamon kulayotgan Zulfiya yigitning hayajonli qaltiroq barmoqlarini his etib, birdan o'ziga keldi, ammo go'yo hech narsani sezmaganday, yana kulaverdi va shu yo'sin sezdirmay o'zini olib qochdi.

- Qaerda uB ? Menga ko'rsatinglar-chi! - Alibekning mardligi tutdi.

Tokzordagi ari inlarini quritishni u o'tgan yiliyoq o'rganib olgan. Agar uya qo'lga sig'adigan bo'lsa, shartta in-pini bilan sug'urib olib majaqlab tashlash kerak. Ari kaftni chaqolmaydi. Chaqqanda ham ta'sir qilmaydi. Agar qo'rqa, qo'lga qo'lqop kiyib olsa o'am bo'ladi. Undan ham osoni, barglarni tutib turib, inni birdan qisimlash...

Alibek o'ylaganiday qilib, arilarni kaftlari bilan siqimlab oldi-da, rosa ezg'iladi. Qizlar g'ayrat bilan qarab turishardi. Alibek hammasini ezg'ilab bo'lib, go'yo bunaqa ishlar har kungi odatiday, qo'lidagilarni bamaylixotir yerga tashladi. Shu payt majaqlangan in ichidan bir ari o'rmalab chiqib, vizz etib yetgancha Alibekning betidan chaqdi. U og'riqning zo'ridan "shapp" betini changalladi. Zulfiya: "nima bo'ldi?" degancha atrofida girdikapalak bo'lib qoldi. Inda omon qolganlari yana bor ekan, o'rmalab chiqishayotgandi, Qurbonoy shoshib tepkilab o'ldiraverdi. Bari bir ikki-uchtasi qochib chiqib, Alibekning atrofida ancha vaqt vizillashib yurishdi. Alibek eng asosiysi majaqlangan inni yerga tashlagandan keyin darhol tepkilash kerakligini esdan chiqargan ekan.

Zulfiya ko'zini ushlab o'tirgan Alibekning yelkasiga chap qo'lini qo'ydi, o'ng qo'li bilan boshidagi durrani yechib olib, bir uchini tupukladi-da, ari chaqqan joyga bosdi. Shu usuldagi davolashni uch-to'rt marta takrorlagandan keyin durrani Alibekning o'ziga berib, o'rnidan turdi. Alibek avval og'riqning zo'ri bilan hech narsaga e'tibor bermagandi. Og'riq kamayganday bo'lgandan so'ng hozirgina Zulfiyaning momiq ko'kraklari elas-elas yelkasiga tegib ketanini o'ylab, yuziga baxtiyorlik yoyildi.

- Qalay, endi og'rimayaptimi? so'radi qiz. Biror narsani sezganmi, ko'zlari baxtiyorona suzilar, betlari qizarib ketgandi.

- Hechqisi yo'q, - deya Alibek o'rnidan turdi. Durrani berayotib, Zulfiyaning qo'lini bir necha soniya tutib turdi. Vujudiga harorat yugurdi.

Qani endi,... qani endi,... yana ari chaqsayu... Bu qo'llarni uzoq ushlab turish uchun sakson sakkiz marta arilarga talanishga rozi. Zulfiya qo'lini olmay, sho'xlik bilan o'ziga tikilib turaverdi o'sha payt. Alibek chidamadi, bu qo'llarni qo'yib yubordi. Qizning nigohlariga dosh berolmay (sdaqai yigit ket!) , ko'zlarini olib qochdi. Yana titray boshladi. Nihoyat qiz bo'shagan qo'lini yig'ishtirib, uzum terishni davom ettirishga tushdi. Qurbonoyga nimadir degandi, ikkovi yalt etib Alibekka qarashdiyu, piqillab kulib yuborishdi. Alibek xilma-xil o'ylarga botib, uzumzorlar oralig'idagi yo'l bilan karta orasidagi yo'lakka jo'nadi. Yengilgina bo'lib qolgandi. Xuddi birov "puff" desa uchib ketadiganday.

"Qiz emas bu, farishta! Farishta!!" - Alibek o'z kashfiyotidan xursand bo'lib ketdi. Uni xayol olib qochdi.

... Ikkovlon qo'lni qo'lga berib, bir-biriga iljaygancha ketishyapti. Birdan Alibekning ko'zlariga nimadir kirib ketadi. Farishta darrov boshidagi ro'molni yechib oladi-da, uning ko'zlariga bosadi. Yigit bu nozik qo'llar ustiga o'z qo'lini qo'yadi. Qo'llar qo'llarga, ko'zlar ko'zlarga tutashadi. Ulardan chaksiz mehr, mayinlik, muloyimlik, sadoqat ufuradi. Alibek asta uning qo'llarini silay boshladi. Nozik qo'llar uning bo'yniga chirmashadi. Farishta uning ko'zlariga yana bir necha daqiqa tikilib turadi-da, boshini sekin Alibekning ko'ksiga qo'yadi. Alibek endi Zulfiyaning sochlarini silaydi. Undagi xushbuy hidni to'yib-to'yib hidlaydi. Yana to'lib-toshib murojaat qiladi:

- Zulfiya!

- Ha! U boshini ko'tarmay, hayajonli ovozdada javob beradi.

- Men seni endi Zulfiya demayman.

- Ie, nega?

- Men senga yangi, ajoyib ism topdim.

- Aytchi?

- Farishta!

- ... Zulfiya qiqirlab kuladi. Endi meni doim shunaqa qilib chaqirasanmi?

- Ha! Yana bir narsa desam xafa bo'lmaysanmi?

- Qani, eshitaylik-chi!

- Seni sevib qoldim.

Alibek farishtani asta quchoqladi. Sochlarini mehr bilan siladi. U sevgi izhor qilgandi. Shu vaqtgacha izhori dil qanaqa bo'lar ekan, deb orzu qilib, kitoblarda o'qib, kinolarda ko'rib yurardi. Hozir o'zi shunaqa voqeaning ishtirokchisi bo'lib turipti. Zulfiya kulib yuboradi.

- Nimaga kulyapsan?

- Gaplaring qiziq. .

- Nimasi qiziq?

- Yigitlar qizlarga qanday sevgi izhor qilisharkan, deb o'ylardim, endi...

- ...endi o'zingga sevgi izhor qilishyapti.

- Menga qara, - Zulfiya boshini ko'tardi. Qanaqa qilib sevasan?

- Bilasanmi?.. Alibek chaynaldi, - bilasanmi, sevish... "shunaqaki, hozir men seni juda yaxshi ko'rib qolganimni, sensiz yashay olmasligimni sezyapman", demoqchi bo'ladi, biroq ko'proq xayolga berilib ketganidan traktor haydaganda hosil bo'lgan katta kesakka qoqilib yiqildi, o'ziga keldi.

- Ie, Alibek, shu yerdamisan. Men seni qachonlardan beri izlayapman.

Alibek qarasa, qoshida brigadir - Nurali aka turipti. Jinoyat ustida qo'lga tushganday, lol bo'lib qoldi. Shalviragancha brigadirga ergashdi. Qatordan karta oralig'iga chiqayotganda qayrilib qarab, baland tokning panasidan o'ziga mehr bilan tikilib turgan Zulfiyaning nigohini ilg'adi.

"Ajoyib! Zo'r!" necha martalab takrorlan fikrlarini yana takrorladi, mastday gandarab borarkan. Aslida ham mast, xayoli joyida emasdi uning. "Farishta! Mening farishtam!" Alibek tamshanib qo'ydi.

Endi avvalgi betututuq o'ylari qolib, Alibek butunlay boshqa odamga aylanib ulgurandi. Karta oralig'ining qaerida bo'lmasin, Zulfiyaning savat to'la uzum ko'tarib chiqishini poylaydi. U ham tez-tez chiqar, so'ng qaytib ketishga shoshilmas, yashikni bemalol olib, bilmagan kishidek, atrofdan nigohi bilan Alibekni izlar, nigohlar to'qnashsa, bir-biriga otashli, cheksiz, chegarasiz, baxtga to'liq tabassum hadya qilardiyu, savatlarini bilaklariga ilganicha, uzumzor orasiga chopqillab kirib ketardi.

O'sha kuni Alibekning hech bir oila a'zosiga ish kuni yozilmadi. Zulfiyaning tergani tabelga ikki baravar oshib, besh kun yakuniga ko'ra "sotsialistik musobaqa g'olibi" ga aylandi. Student qizlar ham yordamga kelishdi, lekin Alibek hozircha ularning yoniga borgan yo'q. Umuman, borish xayoliga kelmay qolgan. Istamaydi... Vassalom!

Maslahat

- Mayli, bekorchilikka ermak-da, - dedi Salim.

Salim Alibekdan uch yosh katta. O'zini tutishi, gap ohangi juda boshqacha. Shunchaki gapirsa ham xuddi bironvaga nasihat qilayotganday bo'laveradi. Akasini Alibek uch kundan beri kutadi. Maslahat so'ramoqchi. Zulfiyani yaxshi ko'rib qolgan. Sevish mazza-da! Shirin-shirin xayollar surarkansan. Kechalari shiftga tikilib, uxlo olmay chiqarkansan. Ertasiga hech narsa bo'lmaganday, yana ishga ketaverarkansan. Nuqul fikru-yodi Zulfiyada. Yotsa ham, tursa ham, yursa ham o'shani o'ylaydi. O'zi zo'r qiz! Muloyimgina e'tibor berib qaralsa, Barlosda Zulfiyachalik chiroyli qiz boshqa yo'q. Ma'sum kulib turishlarini eslasa, butun vujudi haroratga cho'lg'anib, bilagi kuchga to'lib. Zulfiyani o'zi yo'q badbashara devlardan himoya qilgisi kelaveradi.

Qaysi kuni qiziq voqea sodir bo'ldi. Hamma tushlikka chiqib ketgan payt edi. Qurbonoy, Zulfiya uchovlon, uch sinfdosh ovqatlanib bo'lishgandan keyin qizlarning qatoriga kirib, qator boshida: ko'cha tarafda uzum to'latilgan yashiklar, orqa tomonda quyuq ishkombi panasida soyalab, maktab yillarini eslab utirishgandi. Zulfiya o'rtada, ikki yonida Qurbonoy bilan Alibek. Soyalik kam bo'lgani tufayli bir-birlariga tiqilibroq o'tirishardi. Avvaliga Alibek Samarqanddagi sarguzashtlaridan maqtanish bilan bo'lib, hech narsani payqamadi. Keyin qizlarga gap navbati yetganda ularga quloq tutib, badani Zulfiyaning badaniga tegib turganini his qildi. To'g'rirog'i, ilgari ham sezgandiyu, ahamiyat bermagandi. Endi yuragi qiziy boshladi. Zulfiya hayajonlanib, qimirlab-qimirlab gapirardi. Alibek go'yo qizlarning hangomasini zo'r qiziqish bilan tinglayotganday, ularga qarab ishshayar, aslida Zulfiyaning bo'ynini, qulog'i tagidagi xolini, qalin qora sochlarini, muloyim ko'zlarini, bilinar-bilinmas ko'tarilib tushayotgan ko'kraklarini kuzatardi. Kuzatgan sari to'lqinlanar, vujudini bostirib kelayotgankuchli hayajonni jilovlamoqchi bo'lar, ammo uddalay olmas, yana suqlanib tikilardi. Zulfiya tizzalarini quchoqlab o'tirardi. Shu o'tirishining o'zi bilan ham Alibekka yoqardi. Ayniqsa, kulganda shodligi butun yuziga yoyiladi, ko'zlari juda mayinlashib ketadi. Bunday paytlarda Alibekka o'zini tutib turish g'oyatda azobga aylanardi.

Alibek sevgi haqida ko'p kitoblar o'qigan, hammasida ham o'pishganlarni yozishadi, lekin keyin nima bo'lishini... O'pishsa nima bo'ladi? Og'izda konfet yeganday ta'm qoladimi? Ba'zan kechalari bilan uxlo olmay chiqsa, ertalab: "bugun qanday bo'lmasin Zulfiyani bir o'pichga ko'ndiraman", deb o'ziga o'zi qaror qiladi. Ammo Zulfiyaga yaqinlashdi degancha susti bosadi. Zulfiyaning nimasidir bor. Uzoqlab ketolmaysan, ammo bemalol qo'lingda tutib ham yurolmaysan. Seni ma'lum masofada ushlab turadi. Mana, hozir ham shundoqqina yonma-yon o'tirishipti. Qo'lini uzatib, Zulfiyaning yelkasidan tutsa, o'ziga qaratsa,.. bo'ladi, ammo... Qaysi bir kuni bir jurnalda "o'pishish kerak emas", deb yozishipti. Chunki o'pishgandan keyin birining og'zidagi, tishlari orasidagi mikroblar ikkinchisiga o'tarmish, tish og'rig'i shu taxlit ko'payarmish. Odamlar nega o'pishadi? Sevishsa, albatta o'pishish shartmi? Axir kino-kitoblarda nuqul... sevishdimi, darrov quchoqlashib qolishadi. Undan keyin... mana, o'zi ham o'ldim-kuydim, sevib qoldim, deb yuriptiyu, fikru-yodi bir ilojini topsayu, Zulfiyani o'psa... keyin nima bo'ladi?

- Ketdik, uzum teremiz, - dedi Qurbonoy o'rnidan turib Zulfiyaga.

- Qo'ysang-chi! - dedi Zulfiya erinib, buncha shoshmasang. Bu ahvolda hali bola-chaqa ortirsang keyin nima qilasan?

- O'tirsang o'tiraver, - dedi yu, Qurbonoy savatlarini ko'tarib, qatorning o'z tomoniga o'tdiyu, ishkombi oralab ketdi.

Mana! Mana Alibek kutgan fursat. Yolg'iz ikkovi qoldi. Alibek yon-veriga qaradi. Bironvaga odam zoti ko'rinmaydi. Qurbonoy qatorning narigi tarafida. Tobora uzoqlashib boryapti. Alibekning vujudiga titroq kirdi. Hamma yog'i qizib borayotganini, bu o'zgarish o'zida juda tez sodir bo'layotganini elas-elas biladi. Keyin nima qilganini o'zi ham anglay olmay qoldi. Oldin yelkasidan tortdimi, yoqasidan ushladimi, esida yo'q. Bir vaqti qarasa, Zulfiya yulqinib uning bag'rida yulqinar, tipirchilar, hiq-hiq etib, dami ichiga tushgancha uning kukragiga mushtlardi. Nimalarnidir dahshatga tushib shivirlardi. Bir nima qilib qo'ydimmi, deb qo'rqib ketgan Alibek qizni shartta qo'yib yubordi.

- Esing joyidami o'zi? dedi Zulfiya yig'lamsirab. Yaxshi gapirganga shunaqa qilasanmi?

Keyin tura solib, Qurbonoyning orqasidan jo'nab ketdi. Alibek: "Men seni sevaman! Hech qachon ajrashmaymiz! Bir umr birga bo'lamiz! Men seni, faqat birgina seni sevaman, Zulfiya!" , demoqchi edi. Ulgurmad. Shundan beri Alibekni o'y bosgan. Nima qilishini bilmasdi. Zulfiya esa arzlav yuripti. Hatto ish yuzasidan ham faqat Qurbonoy gaplashadi. Eh-he! Alibek o'zicha Zulfiya bilan nimalar qilmoqchi edi. Qanaqa rejalar tuzgandi. Endi Alibekka qiyin bo'ldi. Bir balo qilib, otasigami, onasigami, meni uylantirib qo'yinglar, degan gapni tushuntirish kerak. O'n sakkizga to'ldi, Samarqandini ko'rib keldi. Mana, kerak bo'lsa, qiz bolani o'pdi. Bo'ldi-da! Doim o'paverish uchun uylanish kerak. Ammo oldin Zulfiyadan rozilik so'ramoqchi. Qanday qilib? Shuni bilmay boshi garang. Salim akasida esa tajriba bor. Fikru-yodi akasining ko'nglini ovlash va maslahat so'rash. Hazilmi? O'rtada sevgi masalasi bor. Bundan keyingi hayoting qay yo'sin kechishi hozir qabul qiladigan qaroringga bog'liq.

Alibek ko'nglida nimalar kechayotganini shu paytgacha biron kimsaga yozgani yo'q. Akasi esa har qalay shahar ko'rgan yigit. Student! Studentlar sevgini yaxshi tushunishadi. Umuman, ular ko'p narsani bilishadi, chunki ko'p o'qishadi, qio'lar bilan birga ko'p yurishadi. Bunaqa bilimdonlarning yoniga o'tirib qolsang, ular bilan faqat bilimdonchasiga gaplashish kerak.

- Aka, - dedi Alibek, piyodani ikki katak olg'a surarkan, - Jonibekov bilan Gurragecha qaytib tushishdimi?

- Bilmadim, xabarim yo'q, - dedi Salim, shoh tarafdagi otni yon tomonga yurarkan.

- Jonibekoving kim? so'radi o'yinni tomosha qilib o'tirgan otasi.

- O'zimizning toshkentlik kosmonavtchi, hali bilmaysizmi? deya Alibek o'zi biladigan narsani otasi bilmasligidan g'ururlanib qo'ydi. Yaqinda "Interkosmos" programmasi bo'yicha mug'ulistonlik Gurragecha degan kosmonavt ikkovi uchgandi. Bizlar tupkaning tubida dunyodan bexabar ishlab yuradigan odam bo'lsak, kosmonavt qachon uchadi, qachon qaytib tushadi, bilmasak, - dedi Alibek, piyodasini akasining chegarasiga o'tkizib, otga qarshi qo'yarkan.

- Unday bo'lsa ularning uchganini qaerdan bilding? - so'radi otasi va Alibekka o'rgatdi, - hey, bekorchi o'yin nima kerak, otingni chiqar.

- Radiodan qulog'imga chalingandi. Alibek parvo qilmay piyodani yana olg'a surdi.

- Jonibekov? Toshkentdan ekanmi? Kosmonavt o'zbeklardan ham chiqibdi-da, a? Hoy, piyodang joyida tursin. Qaerga boradi u? Otingni haydasangchi!

- Biz ham shaxmatni uncha-muncha bilamiz, ota, - dedi Alibek farzini bilan shoh berib. Piyoda shohning ikkinchi yo'lini to'sgan, Salim mot bo'lgan edi.

- Ie! Alibekka yuttirib o'tiribsanmi?
- Alibek keyingi vaqtlarda ancha progress qilyapti, - dedi Salim. Biz esa regressga yo'l qo'ydik, shekilli.
- Qani tur-chi, bu kosmonavtlarni bilgich bilan o'zim bir qo'l ko'ray, - deya otasi Alibekka qarshi maydonga tushdi.
- Kosmonavtlar osmonda yarim yillab yurishyapti, qanday yashashar ekan, a ular? Aka? so'radi Alibek, donalarni qaytadan terarkan, xuddi gap kelib qolganday, aslida boya uzilib qolgan suhbatni davom ettirish, ko'p narsalarni bilishini akasiga isbotlash uchun. Xlorella degan o'simlik bo'larmish. . O'shani yeb kun kechirishadi, deyishadi. Shu rostmi, aka?
- Bo'lsa bordir, - dedi Salim chaynalib.
- Odamlar osmonda yarim yillab qanday yashaydi? Kosmik kemalaringda hojatxona bormi? so'radi otasi.
- Ha, endi kosmik kemani shunga moslab chiqarishgan-da. Kosmik kemalar zamonamizning eng zo'r olimlari tomonidan o'ylab chiqarilgan, fan va texnikaning oltin fondi, eng yangi asboblari kosmik kemalar uchun ishlatiladi. Shuncha narsani o'ylab topgan inson albatta kosmonavtning qanday kun kechirishini ham esidan chiqarmasa kerak, - dedi Salim.
O'yin davom etdi. Alibek otasini ham yutib oldi. Keyin yana akasi bilan o'ynadi, yutishiga sal qolganda go'yo bilmagan bo'lib, farzini oldirdi. Shundan keyingina Salim xursand bo'lib, o'yinni yutdi.
Alibek va akasiga bir xonadan joy solishdi. Gaplashib olishga ayni fursat. Alibekning bilishicha, akasi bir shaharlik qiz bilan xat yozishadi. Alibek nogahon ko'rib qolgan o'sha xatda bunday deyilgandi: "O'zim azoblansam deymanu, sizning kulishingizni istayman. Axir borlig'imni qoplab olgan hislarim yuragimga tinchlik bermasa, vujudim nuqul sizga intilaversa, menda nima ayb? Siz ham tushuning-da! Sizni sevib qolganman..." Umuman, shunaqa gaplar. Gaplarning orasida she'rlar ham bor. Aytishlaricha, sevishganlar oldin bir-birlarini o'rganishlari kerak emish. Alibek Zulfiyani birinchi sinfdan beri biladi. Demak, bemalol, hech o'ylanmasdan uylanaversa bo'ladi. Ammo masalaning ikkinchi tomoni bor: Salim hali bo'ydoq. Yoki to'g'ridan to'g'ri Salimga: "aka, shunaqa-shunaqa gap, tezroq uylaning, mening yo'limni to'smang. Men ikki-uch kutib yurolmayman", desa-chi? Xullas, gaplashib olish kerak. Salim ko'rpaga kirib, qo'lini boshiga yostiq qilganча, shiftga tikilib xayol suryapti.
- Aka, nimalarni o'ylayapsiz?
- Shunday,.. chiroq, o'zim.
- Aka, sizga pul kerakmi? Alibek javob kutmasdan o'z topog'onligidan xursand bo'lib, kissasidan pul chiqardi. Shunday qilsa akasi xursand bo'ladi, gaplashish osonlashadi.
- Qancha? so'radi Salim, pulni olarkan, ko'zlari shodlikka to'lib.
- E, kim sanapti deysiz! Kerak bo'lsa yana beraman, hozir menda pul ko'p, aka. Kecha oylik olganman. Mana! Alibek kissasidan yana pul chiqarib berdi. - Siz studentsiz, sizga kerak bo'ladi.
- Rahmat, chiroq, Shu hafta ko'proq pul kerak bo'lib kelgandim. Otamdan qanday so'rashni bilmayotgandim.
- Aka, sizga ish yozaymi?
- Yoza olasanmi?
- Albatta. Hozir brigadirimiz Nurali aka bilan munosabatlarimiz zo'r. Bir o'zi to'rt kishiga yozdirib oladi. Men bir sizga yozsam nima qipti.
- Tag'in senga gap tegib qolmasin, qo'y, chiroq.
Jim qolishdi.
Alibek nuqul boshqa gaplarga alahsiyapti. Boya kosmonavt degandi. Endi hisobchiligini maqtanyapti. Qanday bo'lmasin hozir gaplashib olish kerak. Akasi pulni g'amladi, shu ketishda bir oygacha kelmasligi mumkin.
... va Alibek bor shahdini tiliga jamladi:
- Aka, siz ham sevasiz-ku, to'g'rimi?!.
Salim yalt etib ukasiga qaradi.
Alibekning yuzi ichki zo'riqishdan qizarib ketgandi...

Qaroqchilar

Uchovlon kelishib, bayram kuni rayon markazida qishloqlarni shiladigan bo'lishdi. Agar har besh minutda ikki so'mdan ishlasha ham ikki soatda ancha pul yig'ilarkan. Keyin restoranga kirishadi. Kreslolarda kerilib o'tirishadi. Qo'lini cho'zganча, barmoqlarini qisirlatib (xuddi kinolardagiday): "Ofitsiantka, bizga yana yuzta-yuztadan uch yuz gramm obi zam-zamdan bo'lsin", deyishadi. Hamma gap qishloqlarni shilishda. Qishloqlar asli qo'rzoq bo'lishadi. Yaxshilab bitta do'q ursa, topgan-tutganini chiqarib beraveradi. Kerak bo'lsa, Alibek qo'rqitish usullarini Samarqandga o'qiyman, deb borganda o'rganib qaytgan. Alibek ko'p narsani ko'rib, bilib qo'ydi. Ha, gap yoshda emas, boshda. Eh-he! Odam doim tiqilinch bo'ladigan "qora park"dagi oynavand oshxonada edi-da! Asli shaharlikday, qora ko'zoynak taqib, oliftanamo yurish bilan oshxonaga kirdi. Bamaylixotir ovqat oldi. Hozirgina turib ketganlarning joyiga borib endi o'tirmoqchi edi, kimdir stulni ko'tarib ketaverdi. U borgan stol yonidagi qolgan uchta stul egalik edi. Shu sababli Alibek o'zini haqiqiy studentlarday tutib, olib ketilayotgan stulni mahkam tutdi.

- Qo'yvor, - dedi do'q aralash shirakayf, baquvvat yigit.
- Aka, bu stulni men egalladim, - dedi Alibek, uning do'qiga do'q bilan javob qaytarishga urinib, ammo eplayolmay.
Barzangi Alibekni yeb qo'yguday yuzini yuziga yaqinlashtirib o'qraydi, urib yuboradigan bo'ldi, ammo buni oshxonada o'ziga ep bilmadi, shekilli. Bir siltab stulni tortib oldi-da, Alibekni pashshani surganday chetlatib, o'tib ketdi. Alibek u bilan yana tortishishga jur'at etolmadi. Qo'y, shunga teng bo'lib o'tiramanmi, deb, o'ziga boshqa joy izladi. Ovqatini yeb ko'chaga chiqqanda yo'lini o'n ikki-o'n uch yoshlardagi bola to'sdi:
- Hoy qishloqi, men kinoga kirmoqchiman, oltmish tiyin ber.
Alibekning ko'ngli erib, kissasiga qo'l soldi, ammo bolaning ovoqidagi do'q-po'pisa nogoh unga ta'sir kuchini o'tkizdi-da, achchiqlandi. "Pulim yo'q", deb o'tib ketayotgandi, bola yayana yo'lini to'sdi.
- Menga oltmish tiyin ber, deya pman.
Bolaning o'jarligiga Alibekning kulgisi qistadi. "Mana oltmish tiyin" deb quloq-chakkasiga tortib yuboray dediyu, juda kichkina bola ekan. Arzimaydi. "Pulim yo'q", deya o'z yo'liga ketayotgandi, kimdir yelkasidan tutdi. O'girilib, boyagi oshxonadagi barzangini ko'rди. U zaharli ishshayib turardi.
Alibekning ichidan qirindi o'tganday bo'ldi.
- Nima deding bunga? - deb so'radi u, yosh bolani ko'rsatib. Hali sen o'zingdan kichkinalarni uradigan, so'kadigan bo'ldingmi? Ber aytgan pulini!

Barzangining ovozi tahdidli edi. Shulardan qutulsam qutulay, deb Alibek kissasiga qo'l soldi. Bitta besh so'mlik qolgan ekan, chiqargandi, barzangi tortib oldiyu, bolaga tutdi. Bola pulni olib jo'natyotgandi, Alibek "hey, to'xta", deb intilgandi, barzangi so'rab-surishtirib o'tirmay uni solib yubordi. Alibek musht zarbidan muk tushdi, yana bir-ikki tepki yedi. Atrofda odam ko'p edi, birontasi ajratay demadi...

Ha, o'shanda Alibek yonida bor pulidan ajragan. Ammo o'zlari rayonga chiqishganda buncha ko'p pul talab qilishmaydi. Qishloqlar ham axir umid bilan, bayram qilamiz, deb rayonga kelishadi, kissalarida ko'p bo'lsa besh so'm, bo'lmasa ikki, uch so'm bilan kelaverishadi. Umuman yoshroq, kamquvvatroq bolalarni ushlaydi. Urishsa yengadigan, quvsa yetadigan, qochsa qutuladigan bo'lish kerak-da!

Asli bu fikr Toshtemirdan chiqdi. Alibek bilan Lapas quvvatlashdi. Ikkovi bitta brigadada ishlashadi. Toshtemir Samarqandda texnikumda o'qiydi. Hozir uchinchi kursni bitiryapti. Sochlarini o'stirib yuborgan, mo'ylab o'stirgan, ko'zlari yonib turadi. Ko'rgan odam qo'rqib ketadi. Uchalasi ilgari bir sinfda o'qishgan, shuning uchun ko'pincha Toshtemir shanba-yakshanba kunlari qishloqqa kelganda kechalari birga o'tirishadi, shu hangoma payti ... xullas ikkovi tajribali Toshtemirga bo'ysunishadi. Lapasga bu narsa uncha yoqmagandi, Alibek bilan Toshtemir rosa qiziqtirishdi. Gap pulda emas, gap qishloqlarni tunashda ham emas. Yoshlikda o'ynab qolish, hayotning achchiq-chuchuklarini totish kerak. Qolaversa, bir yigitga qirq hunar oz, deganlariday, bu ishni ham o'rganib qo'ysa, hayotda asqotishi mumkin. Doim shug'ullanmoqchi emaslar-ku axir! Toshtemirlar Samarqandda eh-he, qanaqa ishlarni qilishmagan. Shunaqa qilib aytib beradiki, he-ech u yoq-bu yog'i yo'q ... To'g'ri, uning hamma gapiga ishonaverish kerak emas, rostidan lofi ko'proq bo'ladi.

Rayon markazida bayram - 1 may! Markaziy ko'chada odam g'ij-g'ij. Qishloqi bolalar ko'p. Iloji bo'lsayu, hammasini qator qilib terib, pulini shilsang. Toshtemir student, basharasi bezoriniki. Alibek ham, kerak bo'lsa, shahar ko'rgan. Bitta Lapasni hisobga olmaganda. U ham bo'sh kelmaydi. Shlyapa kiyib, galstuk taqqan. Olifta!

- Ishqilib militsiyaga tushib qolmasak go'rgaydi, - dedi Lapas.

- Ehtiyot bo'lish kerak, - dedi Toshtemir. Shuncha vaqtdan beri ularni qiziqtirib, ko'pirgan bola hozir bir qadar ikkilanib qolgandi. - Nimadan qo'rqasan? so'radi Alibek.

- Qo'rqanib yo'q, - dedi Toshtemir. aytib bo'lmaydi, qandaydir tasodif bilan birimiz tushib qolsak ham boshqalarni sotmasi, demoqchiman.

- Sen qo'rqayapsan, - dedi Alibek achchiqlanib. Shu holing bilan nima qilarding bizni chalg'itib.

- E-e, - deb Toshtemir bir necha daqiqa Alibekka tikildi-da, - yuringlar, - deya shaxd bilan jo'nadi. O'zimizboplaridan topaylik.

Alibekka qolsa, birinchiduch kelganni shartta yoqasidan olsa, pulingni chiqar desa, chiqarmasa urib-so'kib tortib olsa. Ammo Toshtemir bunga ruxsat bermadi. "Mendan beruxsat ish qilmanglar", deb uqtirdi. Kelishuv bo'yicha Toshtemir bir o'zi borib bittasini ushlaydi, ikkovi izma-iz kuzatib boradi. Ilojini topsa, Toshtemirning bir o'zi eplaydi. Yo'qsa, oldin Lapas, keyin Alibek bilmagan kishi bo'lib, borishadi-da, Toshtemir bilan quyuq so'rashishadi, toki u bola Toshtemirning odamlari atrofida ko'p ekanligini anglab yetsin, xullas, keyin vaziyatga qarab ish tutilaveradi.

Toshtemir o'n besh-o'n olti yoshlardagi, boshi ustara bilan qirilgan, oq surp ko'ylagi etagining yarmi shimidan chiqib, osilib turgan, g'irt qishloqining yaqiniga bordi:

- Ie, assalomu alaykum, jo'ra! so'radi Toshtemir. Qaerdansan?

- O'roqlidan. Bola nimanidir sezib, qo'rqa boshladi, tashvishga tushdi, ko'zlari alang-jalang bo'lib, burilib ketmoqchi bo'ldi.

- To'xta, jo'ra! Toshtemir birdan do'q urdi. Sigaretdan cho'z! Nimaga salom bersam alik olmaysan?

- Sigaretim yo'q,, -dedi bola, bir zumda rangi oqarib, titragancha Toshtemirning ikki ko'krak cho'ntagidagi ikki quti sigaretaga qarab olarkan.

Toshtemir bolani qo'ltiqlab oldi.

- Jo'ra, qochishga urinma, o'zingga qiyin bo'ladi. Tushundingmi?

- Ie, bayramlaring bilan! Qandaysizlar? hech narsa bilmagan kishi bo'lib, Lapas ular bilan ko'rishib o'tib ketdi.

- Ko'rdingmi? dedi Toshtemir. Gap bunday, to'g'risini ayt, kissangda necha puling bor? To'g'risini aytasang yarmisini olamiz.

- Hey, lektsiya qisqaroq bo'lsin! Orqadan Alibekning betoqat ovozi eshitildi.

Toshtemir mushtini orqaga qilib, uzoqroq tur, degan ishorani qildi.

- Xo'sh?!

- Uch so'm!

- Chiqar!

Bola chitta uch so'mlikni chiqardi. Toshtemir o'ylanib turib, bolani kafening bufetiga yetaklab borib, bir shisha limonad olishdi. Chidolmagan Alibek Lapasni boshlab yetib keldi. Unda g'alaba nash'asini tezroq surish ishtiyoqi juda kuchli edi.

- Ikki so'mini ol, - dedi Alibek, ko'zlari yonib. Vijillashib o'tirasanmi?

- Yarmiga kelishgandikku, - dedi Lapas to'ng'illab. Bolaga jabr qilmaylik-da!

Bola bezovta, bir unga, bir bunga angrayib turardi.

- Aralashmanglar, degandan keyin nima qilaisizlar gapni ko'paytirib, - dedi Toshtemir va bolaga o'girildi. Bor, jo'ra, ellik tiyinga bitta sigareta olib kel, ora ochiq bo'ladi. Bola bufetga ketdi, Toshtemir Alibekni koyidi. Buncha ochko'z bo'lmasang.

Kelishdikmi, kelishdik. Chaqirmasam, aralashmanglar.

- Menam shuni aytdim, - dedi Lapas jonlanib.

Alibekka puldan ham ko'proq sarguzashtning o'zi sehlroq, maroqliroq tuyular, bu ishlarni tez-tez bajargisi kelar, Toshtemirning uzundan-uzoq muzokaralariga toqat qila olmayotgan edi. Axir bayram ikki-uch soatda o'tib ketadi. Iloji boricha ko'proq bolani tunash kerak. Bu ahvolda hech narsaga ulgurishmaydi. Bola sigareta olib keldi. Toshtemir unga yarim stakan limonad tutdi.

Ichmayman, degandi, majburan ichkizdi.

- Mana, endi pulning yarmi seniki, yarmi meniki bo'ldi, - dedi Toshtemir, - mendan xafa emasmisan?

- Yo'q!

- Senga javob. Agar ko'cha-ko'yda yana birov seni ushlay, men Tolikning ukasiman, de. Senga inson zoti yaqinlashmaydi.

Tushundingmi?

- Xo'p, Tolik aka! Bola oson ajrayotganidan xursand bo'lib, uzoqlashdi.

Uchovlon shu taxlit yana bittasidan bir so'm, ikkinchisidan ikki yarim so'm undirishdi. Uchinchisi ularni rosa ovora qildi. Gapdon ekan. "Mayli, sizlarning qo'lingizdagi odamman, nima qilsalaringiz o'zlaringiz bilasizlar, lekin bir tiyin ham pulim qolmadi", deb

turib oldi. Oxiri u ham Alibekning bir mushidan so'ng ajradi. Ikkovining muloyimligiga Alibekning jahli chiqardi: "Bizlar qaroqchilik qilyapmiz, haqiqiy qaroqchilarday ishlaylik-da", derdi u. Samarqandda yegan kaltaklari hali esidan chiqqan emas. Endi alamimdan chiqaman, desa ikkovi to'g'anoq bo'lyapti.

Oldilarida ikki bola ketib borardi. Ikkovining ham qo'lidagi to'rxaltalar to'la, boshlarida eski qalpoq, dazmollanmagan kiyimlari beo'xshov.

- Ey, to'xtanglar! dedi Toshtemir ularga tomon shoshilib, Alibekning gaplaridan achchiqlanib.

Ikkovi qayrilib qarashdiyu, tez yurib ketishdi. Toshtemir yugurgancha bittasini ushladi, ikkinchisi qochdi. Uni Alibek quvdi.

- Nega to'xta desa to'xtamaysan?! Toshtemir do'q urdi. Qaysi qishloqdansan?

- Men sizlarga nima qildim? Nima qildim?.. bola zorlandi.

- Nima qilishni ko'rsatib qo'yaman. Ichak-chavog'ingni sug'urib olaymi? Toshtemir ko'zlarini olaytirdi. Lapasning kulgisini qistab, chetga o'girildi.

Bola yig'lamoqdan beri bo'lib yerga qaradi. Lapasning bolaga rahmi keldi, qo'y, qiynama, deganday ishora qildi. Toshtemir bolani chetga olib chiqdi.

- Hey, yigitmisan o'zi? Boshingni ko'tarsangchi! Toshtemir bolani iyagidan tutdi.

- Mayli, nima desalaring beray, meni qo'yib yuboringizlar. bolaning tishlari takilladi.

Alibek quruq qaytdi. Ikkinchisi qochib ketipti. Yetolmapti.

- Kim u jo'rang? Toshtemir yana qattiqroq do'q urdi.

Alibek yana jig'ibiyron bo'la boshladi. Toshtemir ehtiyot shart, tag'in bexosdan bolani urib yubormasin deb, ikkovining o'rtasiga o'tib oldi-da, do'qlashni davom ettirmoqchi bo'layotib, boyagi bolaga ko'zi tushdi. U bir militsionerni boshlab kelardi. Toshtemir: "qoch, melisa!", dediyu, yugurdi. Lapas ham qochganini aniq ko'rdi, lekin Alibekni bilmadi.

Bola esa oshkora yig'lab yubordi.

Suyunchi

Lapas armiya xizmatini o'tab qaytdi. Nazarida xuddi kechagina chaqiriq qog'ozini olganday, ikki yil ko'z ochib yumguncha o'tib ketganday. Poezd rayon markazida to'xtadi. U hali birga xizmat qilgan, yo'lda birga kelgan safdoshlari bilan arang xayrlashib ulgurgan, ammo tug'ilib o'sgan yerlariga to'yib-to'yib boqolmagan, havosidan simirolmagan holda poezddan pastga endigina tushgan edi hamki, qandaydir odam kelgancha, uni mahkam quchoqlab oldi.

- Assalomu alaykum solat ukajonim! Qanday, eson-omon yetib keldingmi? Xizmat yaxshi o'tdimi? Sog'-salomatmisan?

Sensirayveraman-da endi, o'zinning ukamsan-ku, nima deding? Xafa bo'lmaysan-a!?

Lapas hayron bo'ldi, lekin bildirmadi. Axir oradan ikki yil o'tib ketdi. Tanimasa ham uni taniyapti-ku, Balki biron qarindoshidir, ammo kim ekan? Qaysi xolasining eri? Hech eslay olmadi.

- Obbo shovvozyey! Shunday qilib askarlikni o'tab qaytdim, degin!? Qarindoshning quvonchi cheksiz edi. Ko'zlari porlardi.

Obbo askar ukajonim-ey! Shunday qilib ikki yil ham o'tib ketibdi-da, a? Aytganday, isming nimaydi?

- Lapas.

- Ha,ha, Lapasjon, buni qara-ya, hatto ismingni esdan chiqarganman. Qarichilik-da, uzr, Lapasjon! Xo'sh, xizmatlar qaerda o'tdi?

- Belorussiyada.

Qarindosh hayratdan yoqa ushladi. E, yashshavor! Menam Belorussiyada xizmat qilganman. Zo'r joy! Xuddi o'zimizdagiday, soldatlarni juda yaxshi ko'rishadi. Qizlari-chi, qizlari! Kelib turarmidi qismlaringga?

- Ha, endi... Lapas iymandi.

- Qanaqa bo'linmada xizmat qilding?

- Stroybatda.

- Hechqisi yo'q, o'zbek bolalarining barini stroybatga jo'natishadi. Hechqisi yo'q, bel qotib, to'rt-besh so'm pul topib, bir hunarning egasi bo'lib qaytasan. Bo'пти, yur... ana bizning mashina. Xo'sh, jomadoning bormi?

Lapas yerga qo'ygan jomadonini olmoqchi edi, qarindosh ruxsat bermadi.

- Shoshma-shoshma, bu nima degan gap? Buguncha sen mehmonsan. Tushunyapsanmi? Buguncha! O'zing bilasan, mehmon otangdan ulug', degan gap bor. Katta bir nima deganda kichik quloq solishi kerak. Jomadonni bu yoqqa ber.

- Yo'q, aka, siz tushunmadingiz, sizga og'irlik qilmasin, demoqchi edim.

- Buguncha og'irlik qilmaydi, tez beraver, boshqasi ilib ketmasdan... Qarindosh shosha-pisha jomadonni tortqilab oldi-da, Lapasni o'z mashinasi tomon yetakladi. Qani endi, soldatchasiga marsh. O'zi ko'nglim sezgandi-ya, shu bugun kelib qoladi-yov, deb hozirgina vokzalga chiqib turgandim. Qarasam, do'stlaring bilan xayrlashib, poezddan tushayapsan. Yetgancha seni quchog'imga oldim. Yo'qsa, bu yerda pul ishlayman, deganlar ko'p, ana-mana degancha ilib ketishadi. Obbo ukajonim-ey, shunaqa qilib Belorussiyada xizmat qildim, degin-a! Mana, sizlar bizni, bizning bola-chaqalarimizni chet el agressorlaridan muntazam himoya qilyapsizlar. Sizlar borki, biz tinch-omon, bexavotir bola-chaqa tashvishida elga xizmat qilyapmiz...

Ular chetroqdagi "Moskvich"ga o'tirishdi.

- Tezda Ota-onang bilan ko'rishasan. Juda sog'ingandirsan,a? Aytganday, qaerda yashardilaring?

- Barlosda, - dedi Lapas hayron bo'lib, ammo sir bermaslikka urinib.

- Yashshavor ukam!! Qarindosh do'ppisini osmonga otguday quvonib ketdi. Buni qara-ya, hatto shuniyam esdan chiqaripman!

Qarichilik-da, qarichilik. Aytganday, isming nimaydi?

- Lapas.

- Ha, Lapasjon, ukajon! Yillar o'tib boryapti. Mana, biz ham qirqni urib qo'ydik. Bola-chaqa ko'paydi. O'zing bilasan, bir tovuqqa ham don, ham suv deganday, barini yedirish kerak, ichirish kerak, kiyintirish kerak. Bari qo'lingga qaraydi. Menimcha, uylaringga borsak, suyunchiga botib qolsam kerag-ov, nima deding? Hazilmi, ikki yil ko'rishmagansizlar axir! Aytganday, otangn oti nimaydi?

- Otaboy.

- Nima, Otaboy akaning o'g'limisan? Qo'lni ber. Ishlar besh. Agar Otaboy akaning o'g'li bo'lsang, suyunchiga so'zsiz bitta qo'y olaman. Yaqinda aytayotgandi, o'g'lim armiyadan kelishiga suyunchisiga bitta qo'chqorni boqayapman, deb. So'zsiz bitta qo'y olamiz, nima deding? Axir sening bahoing bitta qo'ydan arzon emasdir, to'g'rimi? Seni olib borganim uchun hech bo'lmasa benzin puli berishlari kerak-ku, to'g'rimi? Aytganday, isming nimaydi?

- Lapas.
- Ha, Lapasjon, ukajon, men yaxshi bilaman. Otang saxiy, mard odam. Sendan bor topgan-tutganini ayamaydi. Aytganday, otang qaerda ishlaydi?
- Otam armiyaga ketmasimdan ikki yil burun qazo qilgan.
- A-a, shunaqami? Qarindosh bir oz xo'mrayib jim qoldi. Bir minutlik sukut saqlab bo'lgach, yana o'zini o'nglab davom etdi. - Joyi jannatdan bo'lgan bo'lsin Otaboy akaning, bechora yaxshi odam edi. Shuni darrov ayta qolmaysanmi? Sen qazo qilgan Otoboy akaning o'g'li ekansan-da! Men esa narigi, tirik Otoboy akani nazarda tutayotgan edim.
- Barlosda menim otamdan boshqa Otoboy aka yo'q.
- Barlosda bo'lmagani bilan Barlosga qo'shni qishloqda bor. Sen nimaniyam bilarding, ikki yildan beri Belorussiyada yurgan bo'lsang. Obbo-o! Yana esimdan chiqdi, isming nimaydi?
- Lapas.
- Ha, Lapas, bu dunyoda sen bilan men bilmaydigan narsalar ko'p. Hayron bo'laverma. O'lim haq. Hammamiz ham bu besh kunlik dunyoja o'lib-tirilib, tirikchilik g'amida yelib yuguramiz. Boshqa ilojimiz ham yo'q. Mana, katta yigit bo'lib qopsan, yigitlik burchini o'tab qaytayapsan. Ot o'rnini toy bosar deganlari shu-da! Akalaring bormi?
- Ha, ikkita.
- Bo'-o'ldi! Otoboy akaning o'lmagani shu-da! Sizlar borsizlar, Otobo aka demak yashayapti. Demak, suyunchining zo'rini endi akalaringdan olamiz. Har biridan bittadan qo'y, a!! Qarindosh rulni qo'yib yuborgancha, kaftlarini bir-biriga ishqaladi. - Ikkovi ikki yoqdan ikki qo'yni olib chiqib tursa, oling aka, yo'qsa xafa bo'lamiz, deb turishsa, iloj qancha, akalaringni xafa qilib bo'lmaydi. Bir iloj qilib, qo'ylarni bagajga tiqamiz. Seni hurmating uchun-da, uka! Oting nimaydi?
- Lapas!
- Lapasjon, mana, Barlosgayam yetib keldik. Endi o'zing boshqar, qayoqqa hayday?..
Ular ko'k darvoza qarshisida to'xtashdi. Qarindosh signalni bosdi. Lapas mashinadan tusharkan, yuragi hapriqib ketdi. O'sha qishloq, o'sha ko'cha, o'sha darvoza. Hech narsa o'zgarmagan. Poezdada kelayotganda go'yo hamma yoq o'zgarib ketganday, u o'z vatanini tanimay qoladiganday tuyulgan edi. Yo'q, hammasi o'sha-o'sha. Armiyaga ketishidan sal oldin darvoza qurishgan edi. Bir tomoniga g'isht yetmay ochib qolgan, keyin shu ochiq joyga uch-to'rtta shox-shabba tashlab qo'yishgandi. O'sha shox-shabba haliyam turipti. Uyning orqasi yarmi suvalgan, yarmi qolib ketgan edi. Ikki yil o'tsa hamki, o'shanday turipti. Hech narsa o'zgarmagan. Mutlaqo hech narsa! Hatto hayron qolasan.
- Syurpriz qilamiz, uka, sen yashirin, - dedi qarindosh. Akangni ismi nimaydi?
- Qodir.
- Qodir! He-yy, Qodir!! Qarindosh darvozani urdi-da, orqasiga o'girilib, ajablandi. Ie, haliyam turipsanmi? Yashirin, syurpriz qilamiz.
Hovlidan javob eshitildi. Darvoza ochilib, onasi ko'rindi. Lapas beixtiyor mashinaga suyandi. Nafas rostladi, keyin...
- Lapas! Bolam!!
- Onajon!...

Uzumzorda

Armiya xizmatidan yangi qaytgan Lapasga soldat formasi juda yarashar, ko'chada ko'krak kerib yurganda qizlarning o'zga havas bilan ko'z qirini tashlayotganini sezib qolsa, ko'ngli bir dunyo ko'tarilardi.
Lapas qishloqqa uzum pishig'ida qaytgandi. Shuning uchun uyda yotgisi kelmay, brigadaga yashiklarga solingan uzumni mashinaga ortuvchi ishchi bo'lib o'tdi Birinchi ish kuni edi. Bir joyda uzumlar to'ldirilgan yashiklar hammanikidan ko'p edi.
- O'h-ho', kim bo'lsa ham zo'r terarkan, - deb Lapas yashiklarni sanayotgandi, qator oralig'idan chiroyli bir qiz ikki savatni uzumga to'ldirib chiqib qoldi. To'g'risi, Lapas uni ko'rib, bir lahza qotib turdi. Qiz go'yo unga tanishdek. Ismi nima edi? Sira eslolmadi. O'ziga maftunkorona tikilayotgan soldat nazarini his qilgan qiz uyalib, soldatga yer tagidan bir qur nazar soldiyu, kulimsiragancha, uyalib, tag'inam hech narsa sezmaganday, savatlaridagi uzumlarini bo'sh yashiklarga solishga unnadi. Qizning uyalinqirashi, qizarishi Lapasning aqlini shoshirdi. Xizmatdan qaytganidan beri Barlosning ko'chalarida ne-ne qizlarni uchratgan bo'lsa-da, hech biri uning fikrini o'g'irlamagan edi. Ne-ne qizlar ko'z suzsa-da, u bepisand o'tib ketib yurgan edi. Ne-ne qizlarning fikrni o'zi o'g'irlagan, buni bilar, o'zidan mag'rurlanib yurar edi. Endi esa...
O'zi, .. ikki yildan beri qishloqda chiroyli qizlar ko'payib ketipti. Armiyaga ketayotganda sochini turmaklay olmay yig'lab yuradigan qizaloqlar endi tamanno bilan o'zini to'ydami, boshqa yerdami, ko'z-ko'z qiladigan bo'пти. Ammo bu qizcha... Kim bo'ldi ekan? Ismi... O'zi kichkinagina, ammo chayir ekan! Biram noziki, savat ko'targan bilaklari uzilib tushadiganday tuyuladi qaragan kishiga. Ammo shu nozik bilaklari bilan hammadan ko'p uzum tergan. Buning ma'sum qarashlari... Bir marta, bir lahzagina qaradi. Shu qarashning o'zidayoq Lapasning yuragidan nimanidir yulib ketdi. Qaniydi yana bir qarasa... Lapas yashiklarni mashinaga orta boshladi hamki, ko'zlari qizda. Xayolan, qaramaslik kerak, bu odobdan emas, deb o'ziga buyruq bermoqchi bo'lar, ammo ko'zlari nuqul qizni izlar, bo'yni nuqul qiz tomonga burilaverar edi. Shu fursatgacha ham sheriklariga gap berib, ham yashik ortayotgan Lapas birdaniga jim bo'lib qolganiga sheriklar e'tibor berishmadi. Go'yo e'tibor berishmaganday edi...
- Yasha Novvot! dedi mashinaning ustida yashiklarni qabul qilib olayotgan Zokir aka. Uzum terishda sendan o'tadigani yo'q..
"Ha-a, Novvot! Novvot-a, Novvot!!"
Maqtoovni eshitib, Novvot boshini ko'tardi-yu, yana Lapasning o'qday nigohiga duch kelib, uyalgandan tezlik bilan savatlarini olib, qator orasiga jo'nadi. Qiz qator oralab yurib bormasdi. Go'yo muallaq havoda suzib ketardi. Qo'llari sal silkisa go'yo hozir osmonu-falakka ko'tarilib, uchib ketadiganday. Lapas yugurib, qizning ortidan yetmoqchi, uchib ketishiga yo'l qo'ymay, nozik bilaklaridan tutib qolmoqchi bo'ldi. O'shanda... endi osmonga ko'tarilayotgan qiz o'girilib pastga, bilagdan tutib qolgan Lapasga nazar tashlasa. Bir lahzagina! Keldingizmi, deganday... Kelishingizni bilardim, deganday... Keyin... Zokir aka yashiklarni olib ulgurolmay qoldi. Bir yashik uzum mashinaning chekkasiga sal ilingan ekan, yerga ag'darilib, uzumlari sochilib ketdi.
- Iy-e, Zokir aka, sizga nima bo'ldi, - deyishdi pastdaglar.
- Lapas soldat bo'lsa, unga bas kelib bo'larmidi, - deya Zokir aka pastdagilarga ma'nodor ko'z qisdi.
Lapas o'ziga keldi. Go'yo uning holatini hamma kuzatganu, endi ustidan kulishayotganday. Go'yo uni og'ir jinoyat ustida qo'lga tushirishganday. Go'yo hamma "Lapas Novvotni yaxshi ko'rib qolipti", deb kalaka qilishayotganday. Mashinani to'ldirib

jo'natishgandan so'ng Lapas hech narsa bilmagan kishiday, qator oralab Novvot bilan dugonasining yoniga "hormanglar!", deb bordi. "Bor bo'ling, keling!", deyishdi qizlar. Lapasning tili yana tutildi. Ketarini ham, turarini ham bilmay, bir bosh uzum uzib, Novvotning savatiga soldi.

- Bizga yordamga keldingizmi, Lapas aka? gapga soldi Novvotning dugonasi quvlik bilan ko'zlarini suzib..

Lapas axmoqona ishshaygancha tasdiq ishorasida bosh silkib, uzum uzaverdi.

- Lapas aka, -dedi Novvot anchadan keyin gap so'rayotganidan o'zi uyalib, ammo gap so'ramasa, o'ng'aysizlik tufayli Lapas hozir bir narsani bahona qilib, ketib qolishini anglagani tufayli, uni chalg'itishga urinib. Armiya yaxshimi, qishloq?

Lapas hayajonlandi. Novvot undan gap so'rayotgandi, mushkulini osonlashtirgandi. Demak... demak... Yashshavor Novvot! Yashshavor Lapas!!

Armiya yaxshimi, qishloq? Albatta, tug'ilib o'sgan joyingni hech yerga tenglab bo'lmaydi. Ona qishlog'ing qadrini uzoqlarda yurib, bir ko'rishga zor bo'lganingda bilasan...

- O'ylanib qoldingiz, Lapas aka! Armiyadagi o'ris qizlarni esladingizmi? Novvotning dugonasi sira o'zini bosib ololmasdi.

- E, ularning mingtasi bittalarini bir tutam kokillaringdan aylanaversin, - dedi Lapas ilhomlanib. Bir haftadan beri qishloqdaman. Xuddi tush ko'rayotgandayman. Soldatlikka shu qadar ko'nikkan ekanman, go'y bundan bu yog'i umring shu taxlit o'taveradiganday. Lapas gaplarini Novvot jon-qulog'i bilan tinglayotganini his qilib, zavqlandi. Lekin bari bir o'zimizning Barlosga hech yer teng emas... Men armiyaga ketayotganimda kichkina edinglar. Ko'chada qo'g'irchoq o'ynab o'tiradinglar.

- Endi-chi?

- Endimi? Mana, brigada ilg'ori ekansizlar.

- O'h-ho', maqto'vni ham bilaman, deng.

- Maqto'vmi, boshqami, ishqilib, ko'nglimdagini aytyapman-da. Sizlarga havasim keladi.

Novvotning dugonasi hamon Lapasni suhbatga tortar, ammo Lapas Novvot bilan suhbatlashishni istardi. Novvot esa duv qizargancha, har zamonda Lapasga o'g'rinchu nazar tashlar, zo'r berib uzum terardi. Lapas uning yonida, dugonasi esa qatorning narigi tarafida. Bir payt Novvot uzgan uzumini savatga solayotsa, Lapas ham solayotgan ekan, qo'llari qo'llariga turtinib ketdi. Novvot yana birinchi safargiday, yalt etib bir qaradiyu, ko'zlarini savatga tikdi. Lapasning yuragi hapriqdi. Shunday uyalchan, shunday tortinchoq. Shunday latofatli bu qiz.

- Bizlarga nega havasingiz keladi, Lapas aka? so'radi Novvotning dugonasi.

- Sizlar qishloqqa zor bo'lmaysizlar. Doim shu yerdasizlar.

- Bizning esa sizga o'xshab qishloqdan chiqqimiz, dunyo ko'rgimiz keladi. Eh., qizlarni armiyaga olishmaydi-da. Birinchi bo'lib o'zim ketardim. Dugona orzuga berildi.

Lapas Novvotga o'girildi:

- Siz-chi? Siz ham askar bo'lmoqchimisiz?

Novvot chuqur mehr bilan qadalayotgan Lapasning nigohini yana tuyib, qimtindi. Nima deb javob berishni bilmasdi.

- Bilmasam...

Bu orada savatlar to'ldi. To'la savatlarni ko'tarib, karta oralig'iga jo'nashdi. Novvotning savatlarini Lapas ko'tardi. O'zining kuchini ko'rsatish uchun qator orasidagi kesaklarga parvo qilmay, shaxdam qadamlar tashlashga harakat qildi. Bari bir to'raliq yo'lga chiqqancha bilaklari toliqib ketdi, ammo oriyat yo'l qo'ymadi, chunki qatorning narigi tarafida Novvotning dugonasi xuddi shunday to'ldirilgan ikki savatni hech bildirmay ko'tarib chiqayotgandi. Shunchalar nozik qizlar... Yana gap berib kelyapti. Armiyada pishib keldim, degani yolg'on. Xomlab kelgan. Manovi qizlar uzum ichida pishgan, chayir tortgan...

- Men boray bo'lmasa, - deya Lapas ketib qolayotgani uchun uzr so'radi.

Novvot "mayli" deganday jilmayib, bosh silkidi. Lapasga shu qarashning o'zi yetarli edi. Ko'ngli tog'day o'sib, bir chetda dam olayotgan Zokir akaning oldiga bordi.

- Nima dedi? so'radi Zokir aka.

- Kim? Nima deyishi kerak? Lapas talmovsiradi.

- Novvot yaxshi qiz! Uni olgan yigit baraka topadi. Niyating bo'lsa, harakatingni qil. Eshitishimcha, qo'shni qishloqdan sovchilar kelayotganimish. Otasi bermayotganimish.

- Siz shunday deb o'ylaysizmi, Zokir aka.

- Men aytdim-qo'ydim. Bu yog'ini o'zing bilasan. Tur, ana, mashina keldi, yashik ortamiz.

Yaxshi niyat

Hammasi Alibekdan bo'ldi. Agar u Toshtemirga: "Abdumajidlarlikiga borib, er-xotinni yarashtiramiz", demaganda, balki... Tag'in kim biladi deysiz. Xullas, odamgarchilik qilishmoqchi edi, aksi bo'lib chiqdi. E, yomon bo'ldi...

Alibek ishdan qaytgandan keyin ko'chada salanglab yurgan edi. Toshtemir eski "Yava" sini patillatib kelib qoldi. Alibek mingashdi. Qayoqqa ketayotganini so'ramadi ham. Ani, yarimta olishadiyu, do'konning orqasiga o'tib, maydalashadi. Toshtemir Alibekda pul ko'pligini yaxshi biladi. Hisobchi-da. Alibek mard. Dasta-dasta pullarni chiqarib, do'konchiga tutadi. Buniyam gashti bor.

Atrofdagilar havas bilan, ba'zilar hasad bilan kuzatadi. Shunday bo'ldi ham. Ichib o'tirib, gap Abdumajidga taqaldi. Yaqinda uylangandi Abdumajid. Sevib! Qiz ham aftidan Abdumajidni yaxshi ko'rardi. Abdumajid qizning xatlarini Alibeklarga o'qitgan.

Hammasi: "Jondan aziz sevgilim!..." deb boshlanardi. O'qib, Abdumajidga rosa havaslar kelgan. Axir, masalan, deylik, Alibek Zulfiya bilan har qancha sevishsa-da, Zulfiya bironta xat yozgani yo'q. O'zi xat yozishga hojat ham bo'lmagan. Har kuni qishin-yozin dalada birga yurishsa, birga ishlashsa... Bular esa shuncha xatdan keyin chillalari chiqmay, janjallashgan emish. Kuyov so'kkan, kelin yig'lagan, arazlab otasinikiga ketgan,. Rosa qiyomat qo'pgan, oralaridan katta ola mushuk o'tgan emish... Yaxshiyam Abdumajidning onasi qulluq qilib, kelinini qaytarib olib kelgan emish...

Gap-gap bilan Alibek bitta yarimta olib, qo'ltig'iga qisdi. Ikkovlon "Yava" da Abdumajidlarlikiga borishdi. Kelin-kuyov o'z xonalarida inoqqina bo'lishib, kulishib, choy ichishayotgan ekan. Avvaliga ikki do'smt hayron bo'lishdi. Keyin Alibek qo'ynidagi aroqni chiqarib, dasturxonga qo'ydi. Qolaversa, kelin ham begona emas, o'zlari bilan bir maktabda, faqat bir sinf keyin o'qigan sinashta Dilorom edi.

- Yarashibsizlar-da, yashanglar! Buni yuvish kerak! Mo'yinsa, bitta zakuska tayyorlang.

Dilorom chiqdi. Alibek shirakayf holda kelinning ortidan tikilarkan, Abdumajidga ta'na qildi:

- Zo'r xotining bor-da, jo'ra. Qaddi-qomatni qara! Shunday xotinni urdingmi-ya?

- E, sen o'zingni Zulfiyang bilan bo'laver, qo'y, meni ishingga aralashma.
- Ikki uylangan bir-biringga maqtanyapsanmi? Haligacha uylana olmaganimga ta'na qilyapsanlarmi? Ko'r axir mening ahvolimni!
O'rnak ol! Bazo'r yetgan xotiningni yig'latma.
- Xo'p! Abdumajid qo'l ko'tardi.
- O'zi nimaga ketib qoldi? so'radi Alibek.
- Nimani so'rayapsiz? deya so'radi qaytib kirgan Dilorom.
- Nimani emas, seni so'rayapti, -dedi Abdumajid. Nega ketganingni bilmoqchi.
- Bir qadrimni o'tkizay degansiz-da, a, mo'yinsa, - deya Toshtemir o'zi chaplagan loyni andavalashga tushdi.
- Ha, bir qadrim o'tsin, devdim.
- Nima? Menga qadring o'tadimi? Ketsang, sendan qutulganimga xursand bo'lib, qaytadan to'y qilsam kerak.
Diloromning lablari asabiy titradi.
- Qo'ying, mo'yinsa, bu bilan gap talashmang. Alibek ham andavaga tarmashdi. Bu bari bir sizning qadringizga yetmaydi.
Tamom...
- Tamom!! Dilorom sakrab o'rnidan turdi.
- Bo'ldi,bo'ldi, bo'ldi! Urush tugadi, yarash,yarash,yarash!!!
- Voy, biz urishmaganmiz, - Dilorom kulisirashga urindi.
- Ozroq tepishganmiz, xolos. Odatimiz shunaqa, - dedi Abdumajid.
- Bizning xo'jayin shunaqa, tepadiganlardan bo'lib chiqdi.
- Yoqmayotgan bo'lsa, muloyimidan top-da, ketaver! Men seni qaytarmayman.
- Kerak bo'lsa ketaman ham! Kerak bo'lsa, hali izimgayam zor bo'lasiz! Shoshmay turing!
- Men-a? Men senga zor bo'lananmi? Ketsang, uch kunda onasi o'pmagan qizni olaman.
- Olib bo'psiz!
- Olaman! Mana ko'rasan! Sen o'zingni kim deb o'ylayapsan? Mendan zo'ri yo'q deysan-da, a?
- E, menam ko'chaga chiqsam, oyog'im tagi to'la yigit, bittasiga tegaman, olaman.
- Seni endi hech kim olmaydi. Sen endi it tekkan sarqitsan! Hi, alam!
- O'zingiz sarqit! Hech kim sizga zaril qolgani yo'q. Har kecha uyimizga bolalarni pochta qilib jo'natganlaringiz, yalinib-yolvorganlaringiz esdan chiqdi-da endi, a? Endi eshagingiz suvdan o'tdi-da, a?
- Ha-a, o'tdi! Abdumajid yayradi. endi sen yalinasan. Sen yolvorasan.
- Yaxshi...
- Yaxshi...yaxshi... Nima yaxshi?! Yaxshi xotin bo'lganingda hozir men bilan gap talashib o'tirmay, gap poylamay, mehmonlarga choy damlab kelarding. Ovqat qilarding. Agar sen yaxshi bo'lsang...
Shu payt Abdumajidning singillaridan biriikkita likopchada pomidor salat ko'tarib kirdi. Er-xotin to'rsayishib jim bo'lishdi. Toshtemir to'rt piyolaga aroq quydi. Dilorom yigitlar yalinuvidan so'ng o'z piyolasini "shirin" qilib berdi. Yigitlar o'z ulushlarini ko'tarishdi. Shundan so'ng Alibek eski yarani yana qo'zg'adi:
- Biz sizlarni yarashtirgani kelgan edik. Nima, urishmasalaring bo'lmaydimi. O'zi, janjal nimadan chiqadi?
- E-e, - Abdumajid gapirishni istamay, najotsiz qo'l silkidi.
- Ha-a, nega silkinasiz? Dilorom tutaqib ketdi.
- Nima qilay bo'lmasa? Hamma ayblaringni sanaymi?
- Sanang! Sanang qani, menam bilay.
- Senda mutlaqo odamgarchilik yo'q.
- Sizda-chi?
- Bunaqada hozir yana urishib qolasizlar, - dedi Toshtemir xavotirlanib. Oldin bittang gapir. Shunga qarab ajrim qilamiz.
Abdumajid, boshla. Mo'yinsa, to'xtang, sizga keyin navbat beramiz.
- Bo'pti, aytsin! rozi bo'ldi Dilorom.
- Aytsam, - dedi Abdumajid, - buning kelinchaklik turqi yo'q. Uy ishlariga qarashmaydi. Ertalab men sakkizda tursam sakkizda, to'qqizda tursam tursam to'qqizda turadi. To'rt soat darsini o'tib, tushgacha ishidan qaytib keladiyu, yana kechgacha yalpayib yotadi. O'qituvchi emish. Yosh avlodni tarbiyalarmish. Oldin buning o'zini tarbiyalash kerak.
Mehmon kelsa, uyali bo'lsan. Tomoshaning bir parchasini ko'ryapsizlar-ku! Oshxonada kuymani o'rniga men bilan mehmonlar oldida gap talashadi.
- Bo'ldimi gapingiz?
- Senga hali gap tekkani yo'q, iflos! Jim o'tir!
- Me-en?! Men-a?! O'zingiz iflossiz!
- Nima deding? Yana qaytar!
- Nimani eshitgan bo'lsangiz shu!
- Uh, seni ona... Abdumajidning barmoqlari musht bo'lib tugilib, o'rnidan turib ketdi.
Shovqinni eshitib, xonaga Abdumajidning onasi kirdi. Keyin... Toshtemir bilan Alibek "Yava"da haydalgandan battar bo'lib, ortlariga qaytishdi. Ularni hech kim kuzatmadi.
Dilorom yig'lar, Abdumajid uzala tushganicha ko'kragini yostiqqa bosib, yig'lamoqdan beri bo'lib yotardi.

Telpak

Qish yaqinlashib qoldi. Alibekning qulog'ini sovuq urib ketsa, keyin qizlar qaramay qo'yishi mumkin. Ertaga Oqtepada bozor. Bitta yaxshiroq telpak olish kerak. Yana Toshtemirga iltimos qilishga to'g'ri keldi. Ertalab ikkovlon uning "Yava" siga mingashib, Oqtepada borishdi. Izlab-izlab ko'ngildagisini topisholmadi. Erta-inding Samarqandga borib, katta bozorni ko'rishga kelishib, oshxonaga o'tishdi. Kabob buyurishdi.
- Yarimtasi-chi? - talab qildi Toshtemir.
- Ertalabdanmi?
- Tush bo'lyaptiku.
- E qo'y, keyin telpakka pul yetmay qoladi.

- Senda pul yo'qmi? Nurali akani aldab, brigadaning yarmini yeb yotibsan-ku!

- Bo'lmaydi-da, sen ruldasan.

- Sen hech mening ichmay haydaganimni ko'rganmisan?

Xullas, Alibek aroq ham olishga majbur bo'ldi. Majbur birga ichdi. Toshtemir "Yava" siga har kun har xil qizlarni mingashtirib yuradi. Shunisiga qiziqib, Alibek ham mototsikl olmoqchi bo'lganda otasi ro'yxush bermadi. Ataylab! Maza-da! Rulda mag'rur o'tirasan. Orqangdagi qiz belingdan mahkam quchoqlaydi. Alibek mototsiklni juda tez haydab, rulni qattiq-qattiq bursa, qiz qo'rqib uni mahkam quchoqlasa... Endi... buning gashtiga nima yetsin!

Ikkovidan sal naridagi stol atrofida ikki qiz ovqatlanib o'tirishar, o'zlaricha allanimalarni gaplashib kulishar, har zamonda ular tomonga ham nazar tashlab qo'yishar edi. Alibek bilan Toshtemir avval ularga e'tibor berishmadi. Keyin... qizlarning stolida og'zi ochiq "Portveyn" shishasi turardi

- Qizlar revolyutsiya qilyapti, - dedi Alibek.

- Qizlarning uyda ichganini ko'rganman, to'yda ichganini ko'rganman, ammo... Toshtemir gapini tugatmadi. Barlosga borib aytasang hech kim ishonmaydi. "Mast bo'lib yo'lda yumalab ham yotibdi dersan hali", deb rosa ustimizdan kulishar.

- Balki shaharlik qizlardir, - tasmolladi Alibek.

- Qo'ysang-chi. Shaharlik qiz bunaqa bo'lmaydi. Har qalay shahar borasida Toshtemir Alibekka nisbatan tajribaliroq edi.

Piyolarini to'ldirib, qizlarga qarab turishgandi, ular bir qarab qo'yishdi. Shu ondayoq ikki yigit baravar ularga ko'z suzib: "Sizlar uchun!", deb ichib yuborishdi. Qizlardan biri oshkora kulib yubordi, ikkinchisi chetga o'girildi. Bu orada qizlar o'rinlaridan turib, bekat tarafga jo'nashdi. Yigitlar hardamxayol bo'lib, ularning ortidan tushishdi. Imkoni bo'lsa, "ildirish" kerak. Shunaqalarga o'xshashadi. Bir qarorga kelib ulgurishmay, qizlar bir "Jiguli" ga o'tirgancha jo'nab qolishdi. Shofyorning yonida ham bittagina yigit bor edi.

Tamom! Ikkovini ikkovi ilib ketdi.

- Qayoqqa ketishini kuzatib tur, - buyurdi Toshtemir Alibekka, "Yava" siga yugurarkan. Quvamiz, qo'ldan chiqarmaslik kerak. Mototsiklni katta tezlikda haydab, "Jiguli" ni quvib o'tishdi. Qizlar ularni tanishdi. Kulcha yuzlisi yana iljaydi. Alibekning yuragi hapriqdi. Mana omad! Qishloqdan chet joy... Zulfiya esa... bilib o'tiribdimi? Zo'r qizcha ekan! Do'mboqqina!

Toshtemir ataylab, "Jiguli" ni o'tkizib yubordi. Do'mboqqinasi orqaga ham o'girilib qaradi. "Ha-a, akagingan aylansin!", deb Toshtemir qichqirib yubordi. Alibek uni turti: "Bunisi meniki, sen bunga ko'z olaytirma". Toshtemir yana "Jiguli" ni quvib o'tdi.

E, juda zo'r bo'ldi-da. Xuddi kinolardagiday. Quvib o'tishadi, orqada qolishadi, yonma-yon borishadi. Qizlar esa hayratlanib ularni kuzatishyapti. Bir qishloqqa kirayotib, ancha oldinga o'tib ketib qolishgan ekan, orqada "Jiguli" to'xtab, qizlar tushayotganini payqab qolishdi. Mototsiklni sekinlatib, burib qaytib kelishsa, qizlar o'sha yerdagi do'konni ochishyapti. Demak, do'konchi qizlar! Toshtemir to "Yava" sini joylagancha, Alibek tezlik bilan qizlarning ortidan do'konga kirdi-da, katta qiz bilan qo'l berib ko'rishdi, keyin kulcha yuzlining qo'lini ushlab olgancha:

- Sizga bitta gap aytmoqchiman. Imkoni bo'lsa, meni bir daqiqa tinglasangiz. Shu bir og'iz gapimni aytishim uchun ataylab orqalaringizdan keldik, - dedi. Nima demoqchi, qanaqa gapi bor, buni hali Alibekning o'zi ham bilmasdi.. Qizlar hayron, kulcha yuzli hatto qo'lini tortib olishni ham unutgandi.

- Voy, siz nima deyapsiz, mening yigitim bor!

Alibek kulib yuboray-yuboray deb o'zini zo'rg'a tutib qoldi...

- Qizlar, shu bolaga bitta telpak topib beringlar, - dedi otilib kirgan Toshtemir. Bechoraning qulog'ini sovuq urib ketmasin. Keyin qizlar qaramay qo'yishi mumkin.

Alibek quvonib ketdi. Bahona topildi!

- Ie! Hali topmadilaringizmi? Bozorni ostin-ustun qilib yuruvdilaringiz-ku telpak deb, - so'radi katta qiz.

- Sizlar bizga telpak kerakligini qaydan bildilaringiz?

- Bizdan ham so'ragandilaringiz-da. Siz qiziqchilik qilib yuruvdingiz-ku, - deya katta qiz Toshtemirga o'girildi.

- Siz nima degandingiz?

- Yo'q, devdim.

- Sotib qo'ydik, do'konga borsangiz topib berishimiz mumkin, demaganmidingiz? o'smoqchiladi Toshtemir.

- Yo'-o'q, unday demadik, -dedi katta qiz.

- Siz aytmaganmidingiz, - deya Alibek kulcha yuzliga murojaat qildi.

Qizcha ko'zlarini katta-katta ochgancha hayron bo'lib yelka qisdi.

- Bari bir sizlarda bo'lishi kerak, iltimos, bitta telpak topib beringizlar menga, - deya Alibek iltimos qilgan bo'ldi.

Do'konda borlari Alibekka yoqmadi. Do'konning ichki xonasida ham bor edi, deb qizlar izlashga tushishganda Alibek pul chiqarish uchun ko'krak cho'ntagiga qo'l soldi. Qarasa, ko'kragi baland. Quvonib ketdi. Boya Toshtemir xarxasha qilganda u har ehtimolga qarshi ikki shisha aroq olgan, birini ko'krak cho'ntagiga yashirgandi. Aroqning kayfi hali tarqamagan, yurak botir, shartta aroqni chiqarib, do'kon taxtasi ustiga qo'ydi.

- Boya sizlar uchun olgandim. Endi men oladigan telpakni birga yuvamiz.

- Kim aytdi sizga, bizlarni ichadi deb. so'radi katta qiz, "Toshtemirniki". Jilmayib. Aftidan uning bu g'aroyib bolalar bilan valaqlashgisi bor edi.

- Ko'rdik ichmasligingizni, -dedi dedi Toshtemir. Oshxonada o'tirganlaringizda-chi! Oldilaringda bitta "Portveyn" turgandi.

- Ie! Unda vino emas, sirka bor edi, -deya qiz kulib yubordi.

- Rostdanmi?

- Bo'lmasam-chi! Kabob yeydiganlar uchun qo'yib qo'yilgan.

"Axmoqqina qizlar ekan. Voy qishloqilar-ey!"

- Yo'q ekan, qolmapti, -deya ichki xonadan Alibekning "kulcha yuzligi" chiqib keldi.

- Ataylab keldik, shunaqa emas-da endi axir! deya Toshtemir o'pkalangan bo'ldi. "O'zinikiga" elandi: - Iltimos! Bitta telpak!

- Ertaga xo'jayinim rayPOga boradi. Aytib yuboraman. Ikki-uch kundan keyin bir xabar olingizlar.

- Xo'jayiningiz ham do'konchimi? Toshtemirning yuragi orqasiga tortib ketdi.

- Ha, u kishi mudir. Hozir bizni qoldirib ketdi-ku. Hali zamon qaytib kelib qolsa kerak.

- "Jiguli" dagimi?

- Ha, o'sha! - "Toshtemirniki" jilmaydi. Yonidagi yigitga mana bu singlimni unashtirganmiz, - deya "Alibeknikini" ko'rsatdi.

Ular sotilmay qolgan mollarni mashinaga yuklayotganda biz oshxonaga kirgandik.

- Ha bo'пти, unda singlingizning baxti uchun ichamiz. Ikkita piyola keltiring, - deya Alibek aroqning og'zini ochdi.

Shu payt ko'chada g'iyqillab boyagi "Jiguli" to'xtadi. Ichidan to'rt yigit tushdi.

Keyin... keyin... bo'lar ish bo'ldi, bo'yog'i sindi. Keyingi gaplarni eslashga aslo hojat yo'q. Barlosdagi gap-so'zlarga qaraganda Toshtemir bilan Alibek ichib olib, rulda yurganu, qaerdadir avariya qilgan. Yuz-ko'zlari, badanlaridagi jarohatlar shundan. Barlosda bu haqda boshqacha gap chiqqani yo'q. Demak, shunday bo'lgani rost.

Tag'in,.. kim biladi deysiz.

Atlas ro'molcha

Qodir do'sti Alibek bilan ikkovi ikki eshakda oqshom qo'shni qishloqqa jo'nashdi. Dilbar "chiqaman", deпти.

Dilbar Qodirlarga uzoq qarindosh. Qodirni o'tgan yili otasi "falonchilar qarindoshimiz, ko'rib, bir oqshom mehmon bo'lib kel", deya Dilbarlarnikiga jo'natgandi.

O'shanda Qodirni o'ninchi sinfni bitirayotgan Dilbarning o'zi kutib olgandi. Dasturxon yozdi, choy damladi. Istarasi issiqqina ekan, nuqul jilmayadi. Non sindirsa ham, choy quysa ham, o'tirsa ham, tursa ham, yursa ham nuqul "Qodir aka! Qodir aka!", deydi, bidillaydi. Gapdan tinmaydi. Qodir ham nimadir demoqchi bo'ladi, ammo ko'zlari to'qnashdi deguncha gapini yo'qotadi. Dilbar esa: "Qodir aka, siz adabiyotchisiz, yaxshi bilasiz. Men uncha tushunmadim, sizning fikringiz qanday?" deb allaqanday asarlar haqida so'raydimiey. Qodir til va adabiyot fakulteti studenti bo'lgani uchun ham "adabiyotchi" sifatida allanarsalarni g'oldirashga urinadi..

Nihoyat kechga tomon Dilbarning ota-onasi ishdan qaytib keldiyu, Qodir "adabiyotchi" azoblaridan qutuldi. Shunda ham har safar Dilbar ichkariga kirganda Qodirga eski qadrdonlarday iliq nazar tashlaydi. Qodir ham o'g'rincha unga qaraydiyu, yana ko'zlarini olib qochib, Dilbarning otasining gaplarini diqqat bilan tinglayotgan kishiday tutadi o'zini. Gaplarini ma'qullab bosh irg'aydi. Aslida Dilbarning otasi nima deyapti, o'zi nimaga bosh silkiyapti - bilmaydi. Fikru-yodi Dilbarda. Dilbar Qodir bilan birga institutda o'qiydigan, o'zini bilimdon hisoblaydigan olifta qizlarga mutlaqo o'xshamaydi. Soddalikning o'ziday sodda! Go'zallikning o'ziday go'zal! Shodlikning o'ziday quvonchga to'la! Istarasi issiqligini aytmayszimi.

Qodir uch yildan beri Samarqandda o'qiyotgan bo'lsa-da, hali biron qizga qayrilmagan, biron qiz uchun yuragi jizillamagan edi. Bugun ana shu narsa yuz berganday, lekin... Dilbar hali o'ninchi sinf o'quvchisi-ku, degan andisha, "otam meni bu yerga bir baloni boshlash uchun emas, balki qarindoshlarni ko'rib kelish uchun yuborgan", degan o'y uni mahkam tutib turardi. To'g'ri-da, mehmon izzatini bilgani yaxshi...

Keyin Qodir qarindoshlarinikiga bormay qo'ydi. Ammo o'shandan beri qarindoshlari otasi bilan serqatnov. Qodir shanba kunlari tahsildan qaytib, uyda ikki qarindosh hangomalashib o'tirganini bir necha bor ko'rди. Har safar ko'rganda qaynotasi bilan yangi uchrashgan kuyovday uyalib ketadi. U kishi ham Dilbar kabi Qodirga sinchkov nazar soladi. U-bu narsalarni so'rab, gapga tutadi. Qodir Dilbarni sog'inar, ammo u tomonlarga borishga yuragi betlamasdi. Ba'zan ota-onasi: "Dilbar bo'y yetib, o'ktamgina qiz bo'пти. Sovchilar kelayotganmish", deganga o'xshash gaplarni aytishar, aytshardi-da, kishi bilmas Qodirni kuzatishardi. Qodir esa... nimasini aytasiz, keyingi ikki oy davomida ota-na rostakamiga Dilbarni kelin qilish taraddudiga tushishdi. Alibekdan so'rashsa: "Dilbar bo'ladigan bo'lsa so'rab o'tirmang. Jon deydi. O'zi o'lib yuripti, qanday aytсам ekan deb" , deпти.

Xullas, Alibek ishni pishitgan. Oxirgi safar kelsa, ota-ona non sindirishga Dilbarlarnikiga ketipti. Xabarni eshitib, hatto o'zidan bir og'iz so'rashmagan bo'lsa-da, Qodir lab-lunjini yig'ishtirib ololmay qoldi. Qiziq. Qodir Dilbarga er bo'lishi kerak. Ota-onalarkelishishgan. O-o! Qanday yaxshi! Yuragi toshib boryapti. Yugurib hovliga chiqsayu, ovozi yetganча, charchaganча baqirsa: "Dilba-aar! Menim Dilbarim!" O'ziyam odamlar jinnimi bu deyihsa kerak. Yo ko'chaga chiqib, charchaganча yugursamikan? Nimadir qilish kerak-da. Bo'lmasa hozir yuragi yorilib ketadi. Endi Dilbar albatta Qodirning xotini bo'ladi. "Mening xotinim!" Qodir shunday o'ylarkan, xonada bir o'zi o'tirgan bo'lishiga qaramay, sharaqlab kulib yubordi. Bunaqa o'ylashning o'zi qiziq. Nogoh Dilbar bilan uchrashgisi kelib qoldi. Endi bemalol,.. O'ziniki-ku axir! Kimning nima haqqi bor o'rtalariga g'ov bo'lishga! Axir birgalikda kelajakni rejalashtirib olishlari kerak-ku, birga yashaydigan bo'lgandan keyin. Xullas, gaplashib olish kerak. Tezroq. To'ygacha. Ikkovi yonma-yon qo'l ushlab anhor yoqlab yurishsa... keyin majnuntol tagida o'tirishsa... yelkalar yelkalariga tegi-ib! Qodir shirin entikdi. Aytadigan gaplari shunaqa ko'pki! Bir yildan beri to'plagan. Axmoq bo'lmasa, kallasini ishlatmaydimi, otam nega yubordi, borganimda uyda nega Dilbar bir o'zi edi, deb o'ylamaydimi. Qarindoshlar nega serqatnov bo'lib qoldi, demaydimi. Xullas, otalar kelishishgan, ishni pishitishgan... Yaxshiyam ota-onasiyu, Alibek do'sti bor ekan. Agar "shu qizga uylantirsakchi", deb o'zidan so'rashganda naq yuragi yorilib o'lgan bo'larmidi. To'ydan keyin Dilbarni qanday chaqirarkan? "Dilbar" debmi? "Xotin" desa-chi? Otasi onasini Qodirning ismi bilan chaqiradi. Ammo bu odat Qodirga ma'qul emas. Qodir zamonaviy yigit, eskicha odatlarga o'ralamaydi. Dilbar deb chaqirsa. Qanday yaxshi ism: "Dil-bar!" Yaxshi! Axir ota-onasi ataylab shunaqa ism qo'yishgan, chaqirishsin deb. Nega hamma Dilbar deydiyu, Qodir bunday baxtdan behabra bo'lishi kerak? Adolatsizlik bu! "Dil-bar! Dilba-ri - jon! Sarvi-ravon! Oromi-jon!" Qodir shu qo'shiqni eslab, ijrochilarga rashki keldi. Nega ular Qodirning Dilbarini qo'shiqqa solishadi axir? Dilbar birgina Qodirga tegishli, vassalom! Qodir bilaklarini ushlab ko'rди. Baquvvat!. Kuchi ko'p. Har qanaqa qo'shiqchining kunini ko'ziga ko'rsatib qo'yishi mumkin...

- Yarimta qo'yasanmi yo'qmi, - deya Alibek kelib qoldi.

- Alibek, men senga bitta emas, bir yashik aroq quyaman, - deya Qodir do'stining qo'llaridan tutdi. Bir ilojini top, meni Dilbar bilan uchrashtir. Ertaga Samarqandga ketaman. Yanagi shanba kuni kechga, xo'pmi?

Alibek hozir Qodir uchun Xo'jai Xizr bobodan ham a'loroq edi. Qizlar bilan uchrashish, sevgi bobida Alibekning tajribasi katta. Bir haftani bir amallab qaytsa... Alibekning singlisi olti oy avval Dilbarlarning qishlog'iga kelin bo'lib tushgan edi, ikkovi dugona emish. Xullas, o'sha gaplashipti. Dilbar , kelsin, chiqaman, deпти. Mana, ikkovi yo'lda. Mototsikl tarillab bildirib qo'yishi mumkin. Shuning uchun Toshtemirga aytishmay, ikkovlon eshakda kechlatib yo'lga tushishdi. Qolaversa, Dilbar "ehtiyot bo'lsin", deya tayinlaganmish. Dilbarga oshiq yigitlar qishloqlarida ko'pmish... Xullas, ehtiyot bo'lgan yaxshi-da! Har qalay besh chaqirim yo'l, piyoda charchab qolishlari mumkin, shuning uchun eshakni tanlashdi. Shu taxlit ne-ne tunlarda somon o'g'irlikka borishgan. Juda, eshak minish g'ayri odat narsa emas...

Dilbar katta ko'chaning o'rtasida intizor bo'lib ularni kutayotgan bo'lsa. Uzoqdan ko'ringandan "Qodir akajon!" deya qichqirib, peshvoz yugursa. Yo qichqirmay, shvirlagani ma'qulmikan? Nafasi ichiga tushib, shodlikdan o'zini yo'qotib, turgan joyida qotib qolsa. Turgan joyida qo'llarini Qodir tomon cho'zsa. Qo'llaridagi qizil durrasi shamolda bayroqday hilpirasa. Qodir eshakdan tusha solib, Dilbar tomon yugursa. Ikkovi bir-birining bag'riga otilsayu, Dilbar o'ziga hadya etilgan baxtni ko'tarolmay, Qodirning

yelkasiga bosh qo'ygancha, ho'ngrab yig'lab yuborsa. "Bo'ldi, bo'ldi, jonginam! Mana, men sening yoningdaman!" desa Qodir uni yupatishga urinib, o'zi ham yig'lamoqdan beri bo'lib.

Ovutsa. Erkalasa. "O'zimning Dilbarginam!" desa. "Men seni sevaman. Endi bir umr birga bo'lamiz", desa. "Biz baxtlimiz", desa. Voy-buy, baxtl kishi ham yig'laydimi, deya Dilbarni uyaltirsa. Yoki hech narsa demay, Dilbarni bag'riga bosgancha jim turavergani ma'qulmikan. Qiz bolaning yig'lagisi kelganda to'yib-to'yib yig'lab olgani ham yaxshi-da! Dilbarni ko'ksiga mahkamroq bosib, uning qop-qora qalin sochlarini silasa, bo'ynidagi mayin atir hidini hidlasa. Shu payt eshagi hangrab yuborsayu, Dilbar cho'chib tushsa...

Dilbarlarning qishlog'iga yaqinlashaverdilar hamki, Qodirni titroq tutdi. Tishlari takilladi. Iliq may oqshomi. Ko'chaga chiqsang chiqquday, sayr qilsang qilguday xush havo. Qodir esa qaltirardi. Alibek kular "buni sevgi deydilar, og'ayni! Ishqilib, Dilbarning yoniga borganda tildan qolmasang bo'lgani", deb vijillardi. Alibekning aytishicha, Dilbar juda yaxshi qizmish. Singlisi shunday deganmish. "Qodir akam! Qodir akam", deya og'zidan bol tomarmish. Alibek singlisiga tayinlab qo'ygan ekan, singlisi ham Qodirni Dilbarga rosa maqtapti. "Lenin stipendiati, institutni qizil diplom bilan bitiryapti. Alibek akamning sinfdoshlari orasida eng zo'r yigit shu kishi", deganmish. "Yolg'onni xudoning o'zi kechirsin. Shu gaplarim rostmi o'zi?" deb so'raydimiey Alibek yo'l-yo'lakay. Qodirning yuragiga esa shu topda hech narsa sig'masdi. Qolaversa, amallab o'qiyapti. Olganlari asosan "yigitning bahosi". Qishki sessiyadan bitta qarzi ham bor.

Dilbarlarning hovlisi qishloqning chetrog'ida, suvsiz soy bo'yida edi. Enish joy bo'lgani uchun tomorqa hovli baravar ko'tarilib, tomorqaning oxiri soy tarafda baland uvat hosil bo'lgandi. Ikkovlon eshaklarini qishloq chetidagi terakzorlar orasiga arqonlab, uvat panasiga pisib kelishdi-da, o'g'rincha hovliga ko'z tikishdi. Dilbar hovlidan goh ichkariga, goh oshxonaga tovo-kosa ko'tarib tez-tez o'tar, kishi bilmas uvat tarafga nazar tashlab qo'yardi. Hovlida boshqa hech kim qolmaganda Alibek ikki barmog'ini og'ziga tiqib, hushtak chaldi. Dilbar taqqa to'xtaganini ko'rib, Qodir jonholatda o'zini uvatning panasiga tashladi.

- Esing joyidami o'zi? deya Alibekni ham silkib o'tirg'izdi. Oyning yorug'ini qara! Ko'rib qolsa nima bo'ladi?

- Ha-a, - dedi Alibekning hafsalasi qaytib. Nimaga qaltiraysan?

- Otasimi, onasi bilib qolsa, keyin men sharmanda bo'laman! dedi Qodir zarda qilib.

- Yurakdan bergan ekan-da o'ziyam! Alibek qo'l silkidi. Unashtirilgan bo'lsalaring. Erta-indin u xotining bo'ladi. Nimadan qo'rqasan? Men sening o'ringda bo'lganimda Toshtemirning mototsikliga minardim-da, to'ppa-to'g'ri hovlisiga kirib borardim.

"Assalomu alaykum, qaynota! Kechirasiz, ruxsat bersangiz, Dilbar bilan bir sayr qilib kelsak", derdim. Ruxsat berishiga ham qarab o'tirmay, Dilbarni orqamga o'tqazardim-da, mototsiklni tarillatib, hovlidan chiqib ketardim. "Bobbi"ni ko'rganmisan. O'sha kinodagiday yurardim men. I-i, qara, qara! Dilbaring kelyapti.

Orzuga aylangan nomni eshitib, Qodir sergak tortdi.

Hovli oralab ular tomonga shipillaganicha Dilbar kelardi.

Qodir qotdi-qoldi. Bir qadam peshvoz yurishga, bir og'iz so'z aytishga holi yo'q. G'aribona mung'aygancha, qayoqqa qocharini bilmay, atrofga qaradi, yerga qaradi, Dilbarga qaradi, Alibekka qaradi. Alibek esa... yo'q. . Yerga kirganmi, osmonga uchganmi... Alibek yo'q. Uning yo'qligini bilib, Qodirning tizzalariga qadar bukilib ketdi. Qo'llariga, barmoqlariga titroq kirdi.

- Assalomu-alaykum, - dedi Dilbar, oy yog'dusida tishlari yarqillab.

Qodir salomga bosh qimirlatib so'zsiz alik oldi .

- Yaxshimisiz? Dilbar ko'rishish uchun qo'l uzatdi.

Qodir garangsidi. Qo'lini cho'zarkan, nimalardir deya g'o'ldiradi.

- Bir nima dedingizmi, Qodir aka?

- Ha, ha, - dedi Qodir jim turmaslik uchun, - havo biram yaxshi.- e'tibor qilsa, Dilbar uni diqqat bilan tinglayapti. Sal o'zini o'ngladi. Yulduzlar charaqlaydi, -dedi osmonga qarab.

Dilbar baxtiyor jilmaydi.

- Oyga qarang, qanday chiroyli! dedi Qodir va shu zahoti o'zdan ijirg'anib ketdi. Gaplari nihoyatda sun'iy chiqayotganini sezib qoldi. Alibek qayoqqa yo'qoldi? Shunaqa payti yonida turmasa, nega birga keldi o'zi u ablax! - Dilbar, siz shoshmay turing, men Alibekni topib kelay. Xayoliga shu fikr kelganidan o'zi ham quvonib ketdi.

- Men ham ketishim kerak, - dedi Dilbar issiq jilmayib. Va Qodirga qo'lda tikilgan hoshiyali atlas ro'molcha tutqizdi: - Mendan sizga sovg'a!

- Meniyam sovg'am bor. Qodir o'zini tutib oldi-da, cho'ntagidan "Krasnaya Moskva" duxisini chiqarib berdi.

- Rahmat! Dilbar duxini hidlab ko'rди, keyin yaxshi yetib olingizlar, - deganicha uvatdan o'tib, uy tomon yugurib ketdi

Qodir o'pkasini bosgancha Dilbarning ortidan tikilarkan, nogoh ro'molchani lablariga bosib turganini, o'payotganini anglab qoldi. Ro'molchada qandaydir yozuvlar bor edi. Oy yorug'ida o'qisa ham bo'ladi shekilli. She'r:

"Eng yaxshi odamga aylanib qolaman,

Siz meni ko'rgani kelgan kun".

Qodirning yuragi orziqdi. Ro'molchani chetidagi "Q+D" degan yozuvga ko'zi tushganda baxtiyorligining cheki yo'q edi. Dilbar tomonga cheksiz minnatdor bir alfozda qaradi. Dilbar hovliga yetgan edi. Hovlida hech kim yo'qligiga amin bo'ldi shekilli, yana uvat tomonga o'girilib, o'g'rincha qo'l silkidi.

Qodir ham u tomonga javoban qo'l silkiyotgandi, qanday yo'qolgan bo'lsa, shu taxlit paydo bo'lgan Alibek qo'lidan tutdi.

- Bari bir ko'rayotgani yo'q. Bo'l, ketdik. Uch-to'rt bola terakzor tomonga o'tib ketdi. Yur tez, tag'in eshaklardan ajrab qolmaylik.

Qodir hozir Alibekning bunaqa gaplarini anglaydigan holatda emasdi. Mast edi. Judayam qattiq mast edi. Umridagi birinchi uchrashuv! U ro'molchani yana lablariga bosdi. Yana qo'llarig olib, she'rni o'qidi. Yozuvga ko'z yugurtdi. Ro'molchada atirning hidi bor. Atirningmi yoki Dilbarning? Qodirning boshi aylandi, ko'zi tindi. Asta ortiga o'girilib, Alibekka "sen boraver, men keyinroq", dedi. Alibek to'ng'illab jo'nadi. Nima bo'lganda ham Qodir yolg'iz o'zi bir muddat baxtini hazm qilib olmoqchi edi-da. Qancha turgani esida yo'q, nihoyat terakzor tomon jo'nadi. Alibek uni kutaverib, diqqinapas bo'lib ketgandir. Lekin terakzorda eshaklar ko'rinmasdi. U yoqqa o'tdi, bu yoqqa o'tdi, nima balo, Alibek ketib qoldimikan, meni tashlab, deb achchiqlandiyam. Bir payt bir chetda o'zi minib kelgan eshakning to'qimiga ko'zi tushdi. Yerda sochilib yotardi. To'qimning yonida ayili. Qodir qo'rqib ketdi. "Alibek, bormisan?", deya past ovozdacha qairdi. Shu asnoda orqa tarafida birov bo'g'iq xirqiraganday bo'ldi. Jon-poni chiqib, o'girilsa, Alibek bir terakka qapishib turardi!! Yugurib bordi... Besh-oltita bola Alibekni eshakning arqoni bilan avval oyoq-qo'lidan bog'lashipti, keyin ikkinchi eshakning arqoni bilan terakka chirmab tashlashipti. Og'ziga eshakning to'qimidan bir parchasini tiqishipti, "senmi Dilbarni oladigan", deb...

Ertasiga Barlosda "eshak o'g'irlari chiqipti", degan gap ovoza bo'ldi. Falonchi-falonchilarning eshaklarini to'qimigacha ustiga bosib, kechasi o'g'irlab ketishganmish.

Shundan so'ng hamma kechasi eshagini molxonaga qamab, molxonani qulflab yotadigan bo'ldi.

Eslasa arzigulik voqea

Shunday qilib, Alibek, Toshtemir va Lapas Abdumajidning brigadasiga jo'nashdi. Abdumajid brigadir. Tengdoshlar orasidan chiqqan birinchi amaldor. Bayram munosabati bilan brigadada tushlikka osh qilisharmish. Aroq ham bo'ladi, degan.

Kecha kechqurun ham bayramoldi, ham kelin ko'rdi, bahonasida Lapasnikiga to'planishdi. Lapas yaqinda Novvotga uylangandi.

Anchadan beri sovxozda ishlayotgani uchun yangi oilaga sovxoz yangi uy berdi. Umuman, yig'ilib o'tirishga bahona ko'p edi.

Maktab davrini eslashdi. Alibek Zulfiyani yaxshi ko'rib qolganini, Abulxayr tufllisini bo'lg'usi qaynotasining derazasi tagiga

tashlab qochganini O'sha voqealarga ham to'rt-besh yil o'tib qo'yibdi. Endi qarabsizki, hammasi uylangan, bolali-chaqali, u-

ro'zg'or tashvishidan ortmay, telba-eskari yurishlarga yakun yasalgan. Soat kechasi uchdan o'tganda tarqalishdi. O'shanda

Abdumajid toshib ketib, taklif kiritdi: "Bayramning davomini ertaga bizning shiyponda nishonlaymiz", degan.

Alibek Lapasni olib, Toshtemirlarnikiga kelsa, xotini sho'rva pishirib turgan ekan. Tayyor bo'lib qoldi, ichib ketaylik, deganiga ham qo'yishmadi.

- Bosh og'rib turgandi, achchiqqina sho'rva edi, qorin och edi, - deb yo'l-yo'lakay Toshtemir to'ng'illadi.

- Abdumajid ataylab sizlar uchun osh qildiraman, degan. Bormasak xafa bo'ladi, - dedi Alibek. Bilmaysanmi, ko'ngli nozik, sal narsaga arazlab qolaveradi.

Abdumajidning brigadasidagi oshpaz palovni o'xshatib pishiradi-da! Alibek ta'mini totib ko'rgan. Shuning uchun qo'yarda-

qo'ymay do'stlarini surgab ketyapti. Uydagi, ko'chadagi, tundagi Lapasnikidagi oshlar uning oldida hech narsa emas. Ochiq

dalada, do'stlar davrasida uchoviga katta laganda osh qo'yishadi. Biram shirin, biram mazali. Sariq mayizli, sarimsoq piyozli,

zirali, behili. E, ziravorning hamma uridan solingan. Xilma-xil ta'mlar ufurib turibdi bu oshdan

Kecha yomg'ir yog'ib o'tgani uchun bugun havo toza. Quyosh chiqqan. Yursang charchamay yurguday havo. Bu yog'i bayram.

Oktyabr revolyutsiyasiga oltmish ikki yil to'lipti. Abdumajidning shiyponigacha piyoda yursang qirq minutlik yo'l. Yo'lga

otlanishganda soat o'n ikkidan o'tgandi. Rosa avji tushlikning ustidan chiqishsa kerak. Hozir: "iching, iching, oling-oling, ha endi,

yuz gramm odamni o'l dirmaydi", deb o'tirishgandir. Oldilarida lagan to'la osh. Bug'i chiqyapti. Ustida oppoq quyruq bo'laklari,

qovurg'a go'shti. Shuning ustiga yetib borishsa. "E-e, kelinglar, kelinglar, qani, bu yoqqa o'tinglar, qaynanalaring suyar ekan".

"Suymasa, qizini berarmidi", desa Alibek. Keyin uchoviga ham aroq (stakanda bo'lsa ham mayli) tutishsa. "Ha endi, bayram

munosabati bilan! Ozodlikka chiqqanimizning oltmish uch yilligi!.." "Yo'g'-e, qanday bo'larkan. Ha mayli, sazalarining o'lmasin.

Sizlar uchun! Planlaring yuz ellik bo'lsin! Davlat oldida yuzlaring yorug' bo'lsin!". Keyin oshga qo'l cho'zishsa. Osh laganda

tovlanib turibdi, ishtahangni qitiqlaydi

Brigada shiyponida hech kim ko'rinmasdi. Ichkarida ham, tashqarida ham. Hatto o'choqning joyidan yangi kul topisholmadi. Balki

Abdumajid hazillashib, qozonni yashirib qo'ygandir. Shunaqa odatlariyam bor uning. Rosa kayfiyatlarini buzib, keyin lagan to'la

oshni ichkaridan olib chiqib, oldilariga qo'ysa. Uchovlon kaftlarin to'ldirib-to'ldirib olaversa. "Hey, asta yenglar, tiqilib qolmasin",

desa Abdumajid, laganni olib qo'yimoqchi bo'lsa. "Qoch,qoch, osh yeyishni sendan yaxshi bilamiz", desa Alibek, laganni ushlab.

"Uydagi tayyor ovqatlarni tashlab kelyapmiz".

Ay-y, esizgina sho'rva! dedi Toshtemir tishlarini takillatib. Yig'lab-yig'lab qozonda qolib ketdi-ya. - Abdumajidning gapiga

ishonib o'tiribsizlar-a! Axmoq bo'lmasam, men ham sizlarga qo'shilib

Alibek indamadi. Uning o'ziga ham uydagi tayyor ovqatni tashlab chiqqani ta'sir qilayotgandi. Qorinlari och, yo'l yurib kelishdi,

ishtaha yanada ochilgan. .. Uch yuz qadam naridagi qator tollar tagida uch-to'rt kishi yonboshlab yotardi. Abdumajid ham o'sha

yerda bo'ladi. "Shiypon atrofida bo'lamiz", degan. Bu "shiyponning o'zida" degani emas-ku. Tushunish kerak-da! Toshtemir

axmoq yovg'on sho'rvasining azasini tutyapti. Bayram kuni yeganga yarasha shunaqa osh ye-ki, bir umr mazasi og'zingda qolsin.

"Abdumajidning brigadasida" deb maqtanib yur. Bir nimani bilsa ekan bu. Uylangandan beri uydan chiqqisi kelmaydi. Ilgari

ko'chadan beri kelmasdi. Hali oshni yesa, Alibekka rahmat deydi. Tolning tagidagilar yosh-yosh yigitchalar ekan, Studentchalar!

Olifachalar! Samarqandda o'qiyimiz, deb kerilib yotishipti. O'zlarida yo'q. Balki ularni ham Abdumajid bayram munosabati bilan

mehmonga chaqirgandir. Katta odam-da!

- Osh tayyor bo'ldimi? deb so'radi Toshtemir ular bilan ko'rishib bo'lar-bo'lmas.

- Oshmi? yigitchalar bir-biriga ma'nodor ishshayishdi. Hay, qolmadiyov, yanayam Abdumajid akadan so'rab ko'ringizlar.

- Nahotki Abdumajid shunchalar past ketsa, - deb Lapas bugungi yurishda birinchi bor tilga kirdi.

Toshtemir ham ko'zlarini lo'q qilib, Alibekka tikildi. Abdumajid sal nariroqda yotar, yo ularni ko'rmadi, yo o'zini ko'rmaganga

oldi.

- Yuringlar-chi, boraylik-chi! Alibekning chinakamiga jahli chiqdi.

- Osh yeyishgami? so'radi Toshtemir. Hali aroq ich deb ham xit qilarsan. Hurmatim yo'qmi, deb.

Endi shunchaki qorinni to'ydirib olish ham muammoga aylangandi. Dala oralab och qorin bilan qirq minut uy tomon yurish oson

bo'lmas. Abdumajid yo uxlab yotar, yo o'zini uxlab yotganga solib yotardi. Sal narida bo'sh qozon, osh yuqi qolgan lagan, ikki-

uchta bo'shagan aroq shishasi. Uni silkib turg'izishdi. Muddao aniqlandi.

- O'zlaring kechikdilaring-ku! - dedi Abdumajid. Qiziq eansizlar, bu yer dala sharoiti bo'lsa, kelib ketuvch ko'p bo'lsa, qozonda

osh tursa, men qanday qilib ularning oldiga qo'ymay tura olaman. O'zi shunchaki ko'ngil uchun taklif qilgandim. Yugurib

kelaveripsizlar-da.

- E o'l odam bo'lmay! Lapas to'ng'illadi.

- Boshni qotirma! Qorin och. Yeydigan narsa topib ber, - deya Toshtemir o'zini Abdumajidning o'rniga tashladi. Mana bularning

gapi bilan pishgan sho'rvani tashlab kelganman.

- Bayramda xudo deb uylaringda yotmaysizlarmi, - dedi Abdumajid. Hakim, bu yoqqa kel. Qozonda osh qolganmide?

- Bilmayman-ov, - deya boyagi yigitchalarning biri turib keldi.

- Velosipedingga min-da, uyga yet. Osh qolgan bo'lsa olib kel, mana bu ochofatlarni to'ydirmasam, mening o'zimni yeb qo'yishdan

toyishmaydi. Yo rayonga odam jo'natib, tayyor somsa keltiraymi?

- Bilganingni qil, faqat tezroq, - dedi Toshtemir. Alibek, Lapas, nima dedilaring?

- Somsaning ichi nuqul piyoz bo'ladi, -dedi Lapas.

Abdumajid Hakimni qishloqqa jo'natdi.

- Oshni uyda ham yerdik, bu yerda somsa ham bo'laverardi, -deya to'ng'illadi Toshtemir.

- Sen oldin bu yerning oshini bir yeb ko'r, - dedi Alibek. Keyin boshqacha gapiradigan bo'lasan.

Hakim bir soatlardan keyin qaytdi. Osh qolmapti. Yarimta olvolay desa, do'kon ham yopilib qopti. Do'kondor ichib, mast bo'lib yotgan ekan, uyg'otishning iloji bo'lmapti.

Hakimni rayon markaziga jo'natishdi. Somsaxona ham, do'konlar ham taqa-taq berk emish.

- Alibek, nima yeysan, - deya so'radi Toshtemir. Somsa yaxshimi, osh? Senchi, Lapas? Senga qay biri ma'qul? Somsa aytaveraylik, ichi piyoz bo'lsa nima qipti, qorin to'ysa bo'пти-da! Aroqqa gazak bo'ladi. Nima dedilaring?

Alibek bilan Lapas alamdand kulib yuborishdi. Ularga Toshtemir bilan Abdumajid qo'shilishdi.

- Boshqa safar kelsalaring yaxshi mehmon qilaman, -deya yupatdi Abdumajid.

- Bugun och qorin bilan uyga yetib olishni o'yla. Darmon yo'q, bir nima topib bermasang, hech yoqqa ketolmaymiz.

- Hech bo'lmasa quruq non ber, iflos!

Shiypondagi qotgan nonlar turadigan qutidan bir burda qotgan non topib kelishdi.

- Qotgan non ko'p bo'lardi, bugun bittasi molimga beraman, deb barini yig'ib olib ketipti. Endi boriga shukr qilaverasizlar.

Iflosning topgani shu! dedi Abdumajid.

Bir burda non temirday mahkam ekan. Bir iloj qilib uch bo'lakka bo'lishdi. Ariqdagi suvga botirib yumshatishdi. Qotgan non uzoq vaqt sovuq suvga botirib turilsa, shunaqangi shirin bo'lib ketarkanki Har qanday osh uning oldidan yer chizib o'taversin. Ariqda kuzning tip-tiniq suvi oqyapti. Sen qotgan onnni suvga botirasan. Suv qo'lingga uriladi, nonga uriladi-da, o'z yo'lida davom etadi. Suvda nonning ustki qatlami yumshaydi. O'sha joyini tishlab yeysan-u, qotgan tarafini yana suvga tiqasan. Maz-za!!!

Yigitlikning ko'chasi

Ismatga alam qildi. Judayam alam qildi. Axir unga qo'l ko'tarishdi. Yana kimlar? Qandaydir go'daklar! Shefiga aytsa-ku, hammasining dab-dalasini chiqaradi. Kim bo'lipti bular Toshtemir shef qoshida?! Kerak bo'lsa, har birini bir-bir chinchalog'i bilan uchirib yuboradi. O'shalarining betiga aytdi: "Bittang qimirlamay tur, hozir Toshtemir shefni olib kelaman". Toshtemir nomini eshitgandan so'ng barining ichi o'tib ketdi, ammo sir bergisi kelmay, "bo'пти, kutamiz", deb qolishdi. Shunaqa kutsinki, kutganlariga ming pushaymon yesin, ikkinchi kutmaydigan, Toshtemir nomini eshitgandan shataloq otib qochadigan bo'lsin. Asli voqea bunday bo'ldi.

Ismatni student do'stlaridan biri - Vohid - Toshtemir shef bilan tanishtirmoqchi edi. Ismat quvonib ketdi. Axir juda zo'r imkoniyat-da bu! Ko'cha-ko'yda seni uradigan bo'lishsa, (bilib bo'ladimi, shahar joy, har xil odam uchraydi), himoya qiladigan tayanching borligini his qilib yashash kishiga ruh bag'ishlaydi. Ko'chalarda uncha-muncha bolani pisand qilmaysan, ko'kragingni kerib yurasan. Chiroyli qizlarga gap otasan. Atrofigingdagilarga nisbatan zo'rroq ekaningni his etib yashash rohat! Senga duch kelganda aksariyat bolalar cho'chib turishadi, ayrimlari laganbardorlik bilan atrofigda aylanib, o'rgulishini mensimaslik bilan kuzatasan. Studentlar shaharchasida ko'chani to'ldirib yur. Atrofigda o'tgan-ketganning bari senga salom beryapti. Xohlasang alik ol, xohlamasang alik olma. Xohlasang, salomiga javoban o'qrayib qara, xuddi qarzi borday. O'z yo'lingda duch kelganni bosib-yanchib o'taver. Birinchi kurs student bo'lsa, yoki basharasidan sendan cho'chiyotgani ayon bo'lib qolsa, masxara qil:

- Xo'sh, - deydi vishillab, anavining ko'ngliga g'ulg'ula solish uchun, - nima qilib yuribsan bu yerda?

- Men... men...me-en... O'z-o'z-zim, - deydi qaltanglab.

- Sen, sen... O'z-zing? Nima sen o'zing? deydi-yu, Ismat uni yoqasining bir chetidan tutib, o'ziga tortadi. Student pirillab oyog'i tagiga keladi. Meni taniyapsanmi? deydi Ismat ko'zlarini lo'q qilib.

- Ha, siz Ismat akasiz!

- Ismat akaman? Yaxshilab qara, balki adashayotgandirsan? A, qara-chi!

Anavi qarolmaydi. Qo'rqadi, yerga tikiladi. Ko'ziningni battar lo'q qilasan, ovozingga ovoz, kuchingga kuch qo'shilib ketadi bunaqa lahzalarda. Bir urib yerga kirgizib yuborging keladi bunaqalarni, lekin so'nggi daqiqada rahm qilasan. Qo'y Ismat, deysan o'zingga o'zing, yashasin shular ham sening davringda. Ishshayib, anavining iyagidan tutib, boshini ko'tarasan.

- Men kim ekanman? so'raysan qaytalab.

- Ismat akasiz.

- Ismat akami? Balki Ismat shefdir?

- Ha, ha, Ismat shefsiz Ismat aka!

"Ismat shef!" Jaranglaydi-ya!

- Ke, ikkimiz jo'ra bo'lamiz, - deydi Ismat kulimsirab.

Studentcha kutilmagan baxtdan garangsib qoladi. Ismatning yonidagi jalpataklardan biri anavining qulog'iga shipshitadi:

"Jo'rachilikni yuvish kerak, Ismat shef xursand bo'ladi!". U hushyor tortadi, yugurib do'konga borib keladi. Keyin birgalashib, yangi do'stlikni mustahkamlash niyatida qadah ko'tarishadi. Anavi beradiganini berib, tezroq qutulish uchun tipirchilaydi. Ismat esa ataylab uni yoniga o'tirg'izib oladi. Keyin esa "endi mening navbatim" deb shunchaki yo'lga kissasidan pul chiqaradi-da: "kim do'konga borib keladi?", deydi. Tabiiyki, o'zi ham, jalpataklari ham anavining o'zi tushunib, o'rnidan turishini kutishadi. Turmasa, biri yana qulog'iga kerakli gapni shipshiydi. Yangi do'stlikdan ham cho'chib, ham xursand bo'lib o'tirgan studentcha sapchib o'rnidan turgancha, Ismat shefning qo'lidan pulni olmoqchi bo'ladi. Ammo jalpataklardan biri unga pulni oldirmaydi. U yana o'z puliga aroq olib keladi. Borgancha, qaytib kelgancha haftalik puli ko'kka sovurilayotganidan ichi eziladi, ammo boshqa iloji yo'q. Ismat shefning rayini qaytarish mumkin emas.

Ikkinchi shishani bo'shatishgandan so'ng studentcha uncha-muncha boshi qizib, taltaya boshlashi mumkin. Deylik, . Ismat shefning o'zigamas, shunda ayrm gaplari jalpataklardan biriga yoqmay qoladi-da, "sen o'zi nima deyapsan", deya anavini bir-ikki tuyib oladi. Ismat shef, - albatta sal keyin, - yangi do'stni ajratib oladi. Ikkovini yarashtiradi. Keyin yarashganlarini yuvishadi.

Og'irlik yana...

- Pulim qolmadi, - deydi anavi yig'lamsirab.

- Yigitmisan o'zi? deydi Ismat shef.

Studentcha bolalardan qarz oladimi, o'g'irlik qiladimi, pul topib aroqni keltirib o'rtaqa qo'yadi.

- Mana bu yigitning ishi, - deydi Ismat xursand bo'lib. Endi bemalol yuraver. Kim bir nima deydigan bo'lsa, men Ismat shefning ukasiman, de.

- Yaxshi, - deydi yigitcha, - endi menga ruxsat, ertaga seminarim bor, tayyorlanishim kerak.

- Seminar bizdayam bor, o'tiripmiz-ku, - deydi biri.

- O'tirishimiz senga yoqmayaptimi? deydi ikkinchisi xezlangannamo.

- Qo'yinglar, mayli borsin, o'qishiga tayorlansin, - deya ruxsat beradi Ismat shef. Keyin xayol suradi: "Bu bola hozir seminar yozadi. Seminar! Seminarlarga hadeb qatnayverish shart emas. Imtihon kuni "men ham shu guruhda o'qiyman", deb domlaning oldiga kirib borsa, kursboshi qo'llab yuboradi: "Ha, Ismatboy ozroq kasal bo'lib qolgani tufayli seminarlarga yaxshi qatnasholmagan, ammo imtihonga yaxshi tayyorlandi, o'zi yaxshi bola", (Maqto'v uchun keyin yarimta naqd.), deya qo'lab yuborsa, bilet savoliga javob bera oladimi, yo'qmi, baho bor. Yigitning bahosi "uch". Ko'pincha biletidagi savolga javob yozayotgan bo'lib (aslida javobni mutlaqo bilmaydi), oppoq qog'ozga domlaning suratini chizib o'tirganda (albatta, agar rassomchilik qo'lidan kelsa), partaning ustiga shpargalka kelib qoladi. (Guruhda xalq g'amxo'rlari ko'p). Gap endi tayyor narsani ifodali o'qib berishda. Buni amallasang, domla imtihonga yaxshi tayyorlanganingga ishonadi va senga yigitning bahosini hadya qiladi. Bo'ldi! Ismatga bundan ortig'i kerak emas. Bu bola esa seminar deb yuripti".

Xullas, Toshtemir shef bilan tanishishdan Ismat juda manfaatdor edi. Shu maqsadda o'sha student do'sti, g'amqishlog'i Vohidlarning yotoqxonasiga borayotib, bir to'da yigitlarga duch keldi. Bittita-yarimtasi turtib-purtib yubormasin deb (bilib bo'ladimi!?), chetlab o'tayotgandi, to'da ichidan kimdir uni chaqirdi. Yuragi shuvillab (axir to'xtatib, urishlari, bor pulini shilib olishlari mumkin-ku), o'girildi. Baxtiga Vohid shu to'dada ekan. O'rtada Toshtemir shef! O'sha, mashhur barloslik Toshtemir shef! Ismat Vohidni ko'rib bo'shshadi, o'ziga keldi. (Bir necha lahza ichida terlab-pishib ketipti. Qo'rqqanidan! Jonini olarmidi? Buncha qo'rqdi!?) Ismat yigitlar bilan birma-bir ko'rishib chiqdi. Toshtemir shefga duch kelganda yuziga baxtiyorlik alomatlarini yoydi, bir qadar egildi ham. Birgalashib oshxonaga borishdi. Ovqatlanishdi. Ichishdi. "Do'stim Vohidning sharofati bilan haqiqiy o'g'il bolalar bilan tanishganimdan g'oyatda xursandman! O'tirish xarajati mendan", dedi u qadah so'zi aytib. Ismatga pul gap emas. Ismatning onasini Banot deydilar, uni Barlosda hamma taniydi. O'g'lim o'qishda, qiynalmasin, deb hamisha kissalarini to'ldirib jo'natadi. Xullas, Ismatday dilkash, qo'li ochiq yigitdan yangi do'stlar rozi bo'lishdi. Toshtemir shef uni maqtadi. Toshtemir shefning sigareti tamom bo'lgan ekan, o'tirganlarning birontasidan topilmadi. Shunda Ismat, go'yo bunaqa ishlar odat tusiga kirib qolganday, pul uning uchun oddiy qog'ozday, o'rtaga uch so'mni bepisand otib tashladi. Yonida o'tirgan ko'rimsizroq bolaga yarim buyruq, yarim iltimos ohangida (to'liq buyruq beraverishga hali erta): "Iltimos, shu pulning hammasiga bufetdan "Opal" keltiring", dedi. Keyin uch so'mga kelgan olti quti "Opal"ni yangi do'stlarning oldiga otib tashladi: "Istagancha chekaveringlar". Umuman, tanishuv ko'ngildagiday o'tdi. Oshxonadan chiqishgandan so'ng yigitlar Ismat bilan uzoq xayrlashishdi. Toshtemir shef uning yelkasiga qoqib qo'ydi.

Yotog'iga qaytayotgan Ismatning kayfiyati mutlaqo boshqacha edi. Endi u Toshtemir shefning panohida edi. Toshtemir shefni axir Samarqanddagi barcha studentlar tan oladi, hazilmi!? Ehhe!! O'tgan-ketganga past nazar bilan, bepisand qarar, go'yo bularning istalganini sal turtsa, uchib ketadiganday tuyulardi. Yo'lida uchta qiz duch keldi. Ismatning sho'xligi tutib, uchovining o'rtasidan yurdi. Qizlar nochor ajralishga majbur bo'lishdi. Shunda Ismat yonidan o'tayotgan qizning ko'kragiga qo'l cho'zdi. U qizlarning chinqirib qochishini, qo'rqishlarini kutgandi. Aksincha, yuziga qattiq shapaloq urildi.

- He, o'l, bezori! dedi qiz, keyin bamaylixotir dugonalariga qo'shilib ketaverdi.

Ismat o'sal bo'lib qolaverdi. Bir pasdan so'ng jig'ibiyron bo'ldi. Toshtemir shefning jo'rasini qandaydir bir xashaki qiz tarsakilab ketsa-ya! Adolatdanmi shu? Qani haqiqat? Hech bo'lmasa o'atib so'kolmadiyam! Ismatning alami tobora kuchayib borardi. Shu alam girdobida "qora park"ka kirdi. Xilvatroq tomonga o'tdi. Bu yoqlarda oshiq-ma'shuqlar ko'proq o'tiradi. Boyagi qizlar balki shu yerga kelishgandir? Ismat eng chetdagi, quyuy daraxtlar panasida o'tirgan juftni tanladi. O'zi, yigiti ham pachoqqina ekan. Bir do'q bilan haydab yuborish mumkin. Ismat yigitni imlab yoniga chaqirdi. Har qalay Ismat mard! Bolani qizning oldida isnodga qoldirishni istamadi.

- Nima deysan? deya u bola yaqin keldi.

- Jo'ra, qizing menga yoqib qoldi, - dedi Ismat dabdurustdan, bolaning yelkasiga akalaracha qo'l qo'yarkan. Qizingni ikki soatga menga qoldir. Ikki soatdan keyin qaytarib beraman. Gap bor.

- Hazillashmayapsanmi? so'radi yigit, Ismatning bo'y-bastiga o'zini chog'lab.

- Yaxshilikcha ket deyapman! Yomon xafa qilaman lekin!

- Jo'ra, mast ekansan, uyingga bor, damingni ol, - degancha pachoq yigit bamaylixotir qizining oldiga jo'nadi.

Yigit uzoqlashgandan so'nggina Ismatning g'azabi qo'zidi: "Kim bilan o'ynashyapti bu tirmizak?" Ismat mushtlarini tugib, haligi yigitning orqasidan ikki qadam qo'ygan ham ediki, kimdir yelkasidan tutdi. O'girilib, qo'ltiqdashib turgan yana bir juftni ko'rdi.

Yigit osoyishta, qiz hazarbilan tikilishib turardi.

- Do'stim, ko'p ichibsiz, - dedi u mehribonlik bilan. Yo'lingizda tinchgina keting, o'zingizga yaxshi bo'ladi.

- E, sen aralashma! Ismat zarda bilan birinchi juftlik tomon intildi.

- To'xtang, esingiz joyidami? dedi ikkinchi yigit uni tutib qolib. Yigitmisiz o'zi? Qiz bola bilan yurib qo'rganmisiz?

Toshtemir shefning jo'rasi o'ziga nisbatan bunaqa bepisand muomalaga chidamasligi tayin edi. Ismat musht ko'tardi, ammo yigit chap berdi. Ismatning mushti havoni kesib o'tdi-da, o'z zarbidan o'zi gindiraklab ketdi.

- Ie, bokschisiz shekilli! yigit qizini qo'yib yubordi. Qani yana bir urinib ko'ring-chi!

Ismat yana mushtini havolatdi va shu ko'yi javob zarbadan o'zi gursillab yerga yiqildi. Ismat yana turib, urish niyatida yugurdi. Yigit qochdi. Yo'l-yo'lakay, Ismat nimagadir qoqilib, yuztuban uchib tushdi.

- Do'stim, bo'ldimi endi? Ketasizmi? deya so'radi haligi yigit hamon xushmuomala bilan. Hatto uni turg'izishib, kiyimlarini qoqishib ham qo'ydi.

Shunda Ismat: "Bittang qimirlamay tur, hozir Toshtemir shefni olib kelaman, Razbor qilamiz", dedi. Baxtiga Toshtemir shef bosh o'sha yigitlar o'z yotoqxonalarini oldida tarqalmay turishgan ekan.

- Mening nomimni eshitsu ham kutib turishiptimi? so'radi Toshtemir shef. Qani, ko'raylik, yuringlar-chi! Samarqandda shunaqa bolalar ham bor ekan-da, a?

Yotoqxonadan "qora park" kacha uch minutlik yo'l. Bir zumda yetib borishdi. Toshtemir ikki juftni ko'rib hayron bo'lib qoldi, chunki uning sevishganlar tinchini buzadigan odati yo'q edi. Bu yigitchilikka to'g'ri kelmaydi, deb hisoblardi. Toshtemir nimanidir anglaganday, Ismatga gumonsirab qaradi, ammo Toshtemir shefni qo'rqmay kutadiganlar bilan gaplashish istagi juda kuchli edi. Yaqin borib ularning birini tanidi: kurash tushib yuradigan tirmizaklardan biri. Yaqinda allaqaerga borib, chempion bo'lib keldi, shekilli. Ammo...

- Toshtemir aka, - dedi kurashchi yigit xotirjam, - sizning fe'lingizni yaxshi bilganim uchun ham ketmay, sizni kutdim, - deya bo'lgan voqeani aytib berdi. Shu gapdan keyin ham nohaqsan, desangiz, roziman, turib beraman, istagancha uravering.

Ishonmasangiz, ana, o'zidan so'rang.

Toshtemir jim turar, shu sababli atrofidagilar ham janjalni boshlashga jur'at etmasdi.

- Buning gaplari to'g'rimi?

Ismat hali yolg'on to'qib ulgurmagandi. Tahdidli nigohlardan yuragi orqasiga tortib, tisarildi...

(Bundan keyini nima bo'lganini aytilish niyatim yo'q).

Arabcha o'yin

Tanacha ko'zini suzmasa, buqacha ipini uzmaydi. Xalq naqli

Abdumajid uzum uzish mavsumi boshlangandan beri vino zavodida xo'jalik vakili bo'lib turipti. Barlosdan kelgan uzumlarni topshirishda bosh-qosh bo'ladi. Ba'zan topshiruvchi va qabul qiluvchi orasida janjal chiqsa, xo'jalik tarafda turib, janjalni bartaraf etadi. Har zamonda xo'jalik rahbari Xidir Sobirovich ham kelib xabar olib turadi. Har qalay, Abdumajidning ishidan mamnun shekilli, shu vaqtgacha tanbeh bergani yo'q. Ha, Abdumajid o'z ishiga puxta, shu sababli gap eshitgani yo'q.

Tarozixonada o'tirgandi. Xo'jalikdan uch mashina uzum keldi. Shartta qabul qiluvchi bilan kelishib, ikkitasini "halladi". Shu payt qulog'iga mayin va nozli ovoz eshitildi:

- Aka, bizning mashinani ham taroziga kiritingizlar.

Abdumajidning qarshisida kelishgan, qoracha, xushbichim, shim kiygan yoqimtoygina qiz ko'zlarini suzib turardi. "Kim ekan bu!? Kim bo'lsayam bir balosi bor!"

- Sizni nega navbatsiz kiritar ekanmiz?

- Yo-oy, bizam uzum obkelganmiz.

- Qaerdan?

- Barlosdan!

Barlosga shahar medtexnikumining qizlari uzum terishga hasharlashish uchun kelganini

Kunda ularning bir-ikkitasi mashinalarga minib, zavodga kelib ketishini ham Abdumajid yaxshi bilsa-da, o'zini go'llikka soldi:

- Yo'q, bo'lmaydi. Navbatingiz kelsa kirasiz, - dedi-da, ataylab, yo'l yoqasidagi uzun kursiga borib o'tirdi. Kutganidek, qiz uning yoniga borib o'tirdi: "Haqiqatan, buning bir balosi bor!"

Shu payt o'sha mashina kabinasidan yana bir qiz tushib keldi va u Abdumajidning ikkinchi tomoniga o'tirdi.

- Oldingizga qizlar ko'p kelib turadimi? so'radi birinchi qiz.

"Ovozi biram mayin-ey! Biram mayin! Gapirtirib qo'yib, eshitaversang!"

- Kelib turadi. Ammo sizlar juda boshqacha ekansizlar.

- Darrov sizga yoqib qoldikmi? ikkinchi qiz ko'z suzdi.

- Judayam yoqib qolilaringiz. Shuning uchun ozroq gaplashib o'tiraylik deb mashinangizni navbatsiz qo'ymadim. Abdumajid to'g'risini aytib qo'ya qoldi, chunki yaxshi biladi, yolg'on gapni izlayversa, chalkashib ketadi. To'g'risini aytsa, ko'pincha qizlar gapiga ishonishmaydi yoki hazilga yo'yishadi.

- Unday bo'lsa, hali,.. bir ko'rishdan sevib ham qoldim dersiz?! so'radi qoracha qiz.

- Sevganimni bilmadimu, tu-ursam, yonimda bir ma-ayin, no-ozli "aka!" degan ovoz eshitilgandayoq yuragim larzaga tushgan edi. Ichimda bir nima "shig'g" B etib, o'girilsam, siz turibsiz. Ko'zlaringiz... aytganday, ismingiz nima?

- Malohat!

- Ko'zlaringizga qaradimu, o'zimni yo'qotib qo'ydim. Bilmayman, bu ko'zlarni sizga kim baxsh etgan. Turibman, turibman, tilimga kalima kelmaydi. Javob berishim kerak, ammo tilim aylanmaydi.

- Shunda shartta sevib qoldingizmi?

- Yo'g'-e! Sevib qolishdan xudo asrasin. Bu yurak sevaverib, sevilaverib, adoi-judo bo'lgan. Endi tinch yashagisi keladi. Shunchaki Malohatga qarab, yaxshi qiz ekan, uylangan yigit baxtli bo'ladi, deb o'yladim.

- Unday bo'lsa, uylaning. Malohat so'z o'yinini davom ettirarkan, yana shod kulmoqchi bo'ldiyu, o'z og'zidan chiqqan gap o'ziga erish tuyulib, rangi o'zgardi.

O'zgarishni Abdumajid darrov sezdi.

- Uylanardim-ku, xotinim, bola-chaqam bor-da. Agar ikkinchi xotin bo'lib tegsangiz yo'q demasdim.

- Bizlar tegaveramiz, - dedi Malohat o'zini o'nglab. Ko'chada qolgan qizlarmiz. Bizlarga er bo'lsa bo'ldi!

"Bir nima bo'lgan bu qizga. Ishqilib, sog' emas!"

- Biz bir iltimos bilan kelgandik, - dedi ikkinchi qiz suhbat mavzusini o'zgartirib. Agar bajaraman desangiz aytaman.

- Iy-e! Sizlarday qizlar iltimos bilan kelarkan-u, men yo'q deymanni? Agar qo'limdan kelsa albatta...

- Qo'lingizdan keladiyu, lekin... yanayam...

- To'g'risi, bizga spirt kerak, - deya Malohat shartta maqsadga o'tdi, yelkalarini Abdumajidning yelkalariga siypalarkan, yonlamasiga qarab. Xo'sh, yurak uradimi?

"Eritding qizcha! Eritding! Hisobni aniq olgan ekansan!"

- Qancha?

- Ikki litr!

"Eh-ha! Ikki litrgina spirt uchun shunchalar muqaddimami?"

- Idishlaring bormi? Men ko'p so'raysizlarmi, deb o'ylagandim. Abdumajid qizlarning idishini olib, ichkaridan spirt to'ldirib chiqdi. Qachon kerak bo'lsa kelaveringizlar. Bizda dehqonchilik. Sizlarga spirt nima kerak?

- Operatsiya qilamiz, jarroh spirt topib kelinglar degan edi.

- Uzumzordami?

- Shunaqa...

Ancha suhbatlashib o'tirishdi. Bu orada mashina uzumni zavodga topshirib chiqdi. Uchalasi xayrlashgani o'rinlaridan turishdi.

- Mehmondo'st ekansiz. Ertaga yana kelsak, spirt olib berasizmi? so'radi ikkinchi qiz.

- Malohat kelsin. Malohat menga yoqib qoldi. Qancha spirt desa, olib beraman. Sevmay desam ham bo'lmayapti. Yurakka buyruq berib bo'lmas ekan.

- Bizlarni g'alati qizlar ekan, deb o'ylayotgan bo'lsangiz kerak-a, - deya ikkinchi qiz yana tashabbusni o'z qo'lga olishga intildi.
- Shunaqaga o'xshaydi.

Qizlar mashinaning kabinasiga kirishdi. Malohat kabina eshigi derazasini tushirib, boshini chiqardi-da, so'radi:

- Shuncha suhbatlashdik, yordam qildingiz, ammo haliyam ismingizni bilmaymiz. A!

Ayniqsa, "a"ni shunaqa noz bilan aytdiki, Abdumajidning vujudi shodlikdan titrab ketdi.

- Abdumajid!..

Ertasi kuni Abdumajid daftoriga qunt bilan o'tgan kun hisob-kitobini qilayotgan edi, nimadir yelkasiga tegib ketganday bo'ldi. e'tibor bermay, yelkasini silab qo'ydi-da, yana ishini davom ettiraverdi. Kimdir ko'zlarini ikki kafti bilan yopdi. Abdumajid bu kaftlar ustiga o'z kaftlarini qo'ydi. Mayin qo'llar. Qiz bolaniki! Abdumajid bilan qanaqa qiz hazillashmoqchi ekan. Abdumajid kaftlardan bilaklarga o'tdi, so'ng bilaklar egasini yelkasi osha pastga tortib yubordi. Qiz uning yelkasiga qapishib qoldi. Abdumajidning vutun vujudi qiz vujudini his qilib, hayajonga tushdi. Qiz hamon o'zini tortib olmasdi. Go'yo hech narsa sezmaganday.

"E, bu faqat Malohat bo'lishi mumkin!"

- Kimsiz?

Qiz piqillab kulib yubordi.

- Malohatmisiz? Malohat!

Malohat sharaqlab kulib yubordi-da, kaftlarini uning ko'zlaridan oldi.

- Ur-re! Shuncha vaqt topolmadingiz! Bopladim, bopladim! Malohat sakrab-sakrab kulardi. Badaniga qapishib turgan shimi, yigitcha ko'ylagi uning chiroyini yanada ochgan, hatto kiyimiga qotib qolgan uzum shirasi ham unga juda yarashib turardi.

O'ziyam alohida tayyorlanib kelganga o'xshaydi. Durrachaga o'ralgan sochlari juda chiroyli taralgan, borlig'idan atirning xushbuy hidi taralardi.

Abdumajid o'zini tutolmadi. Shart turgancha yosh qizchaday sho'x-shodon sakrayotgan Malohatni shartta belidan opichib, ikki aylantirib, keyin yerga qo'ydi.

Qiz birdan tinchib qoldi. Ko'zlari besaranjomlanib, qoracha yuzi qip-qizarib ketdi.

- Siz meni kutganmidingiz?

- Sizni kutmoq gapmi? Kechadan beri oromimni yo'qotib, fikru-yodim siz bo'lib qoldingiz. Siz keldingizu, go'yo hamma yoq charog'on bo'lib ketdi. Go'yo qalbinga nur yog'ildi. Endi bilsam, men sizni sevib qolibman! Men sizni jonimdan ham yaxshi ko'raman, Malohat! Yo'q, , mening Malohatim! dedi Abdumajid, kulib yubormoqdan o'zini arang tutib. Shunchalar masxarabozlik qilishga qodirligini o'zi ham endi anglab turar, bundan ham g'ururlanib, ham hayratga tushardi. (Jigit-da, jigit!)

- Yolg'onchi!

Malohatning noz bilan aytgan shu bir so'zi Abdumajidning yuragini yana hapriqtirib yubordi.

- Ii-i, shoshmang, shoshmang! Qiz Abdumajid yana beo'xshov harakat qilib qo'yishidan qo'rqdi. Yuring, yaxshisi, mashinaga chiqib o'tiramiz.

Malohat kelgan "GAZ-53" orqaroqda navbat kutardi.

- Har kuni mashinama-mashina yurasiz. Kunlik topshiriq nima bo'ladi? Domlalarangiz urishmaydimi?

- Abdumajid akamiz bor, nima g'amimiz bor! Domlalariga obborgan spirtimizning yarmini bersak bo'ldi, olam guliston .

- Qolgan yarmichi?

- Qolgan yarmiga qizlar bayram qildik. Haqqimiz bordir axir! Kuni bilan changga, shiraga botib ishlaymiz.

- Men haqqingiz yo'q, demadim, shekilli.

Ularning mashinasi tarozidan o'tib, uzumni to'kish uchun ichkariga kirib ketdi.

- Sizning mashinangizni ko'rdik, endi yuring, menikini ko'rasiz.

- Voy, sizning mashinangiz bormi?!

- Ana! Xizmatingizga muntazir.

Abdumajid o'tgan yilgi terim mavsumida yaxshi ishlab ancha pul topgan, mukofotga yangi "Moskvich" olgan, nimalarnidir o'ylab (nimalarni ekan??) bugun minib kelgan edi.

- O'h-ho! Hali yap-yangi-ya! Malohat mashinani siypaladi. Rostdan o'zingiznikimi?

- Ha!

- Tag'in... Malohat ayyorona ko'z suzdi, - otangiz olib bermaganmi?

- O'tgan mavsumdagi halol mehnatinga olganman, - dedi Abdumajid "halol"ga urg'u berib, Malohatni orqa o'rindiqqa o'tirg'izarkan, o'zi ham yoniga o'tirib.

- Halol mehnat bilan bir yilda bir mashinaga pul orttirolsangiz, unda... chindanam, ikkinchi xotin bo'lib esa-da, sizga tegish kerak ekan

- To'g'ri qilasiz. Keyin maza qilib, sizni mashinada kataysa qildirib yuraman. Keyin shiraga, changga botib yurmaysiz.

- Oho! Shunaqamikan? Malohat shirin jilmaydi.

Abdumajid o'zini tutolmadi. Shartta qizni quchoqladi. Og'ushiga tortdi. Endi o'pmoqchi bo'layotgandi, Malohat hech qanday qarshilik ko'rsatmasdan, ammo yanada kuchliroq malohat bilan, yigitni battar junbushlantirib, ko'rsatkich barmog'ini yigitning lablariga bosdi:

- Hey, hey! Kuppa kunduzi-ya! Yangamdan baloga qolib ketmang tag'in!

Abdumajid noiloj qizni bag'ridan bo'shatdi, ammo hamon bir qo'lini uning belidan tortib olmadi. Malohat bunga qarshilik bildirmadi.

"Tamom. Malohat endi uning ixtiyorida. U hamma narsaga rozi. Qandingni ur, jigit!"

- Ertaga domladan javob olib, uyga borib kelmoqchi edim.

Malohatlarning uyi qo'shni tumandagi qishloqlardan birida ekan. Taxminan ellik chaqirimcha bor.

- Menam boraymi?

- Borasizmi?

- Ha-da! Birato'la ikkinchi qaynona-qaynotalarim bilan tanishib olaman. Bu ko'zlarni sizga baxsh etgan odamlarni ko'rmasam bo'lmas. Tanishtirasizmi? "Moskvich"da borib kelamiz.

* * *

Malohatlarnikida ikki soatcha o'tirishdi. Malohat oilaning katta farzandi. Sakkizta uka-singillari bor. Ota-onasi mo'min-bechora odamlar bo'lib, xo'jalikda ishchilik qilar ekanlar.

Malohat uzumni juda zo'r teradi. Domlalar hurmat qilishadi. Shu sababli ota-onasini ko'rib kelish uchun alohida mashina ajratishgan. Abdumajid bor-yo'g'i shofyor. Ikkovlon yurganini shunday tushuntirishdi. To'g'rirog'i qiziqqanga shunday tushuntirishni kelishib olgandilar.

Shunday ota-onaning, oilaning qizimi, a, Malohat?! Abdumajidni nega boshlab keldi? Ota-onasini ko'rsatishgami? Axir maqsad tamoman boshqa. Yo'lda Abdumajid mashinani xilvatga burmoqchi edi, Malohat to'xtatdi: "Avval borib ota-onamni ko'raylik. Qaytishda peshanaga nima yozilgan bo'lsa shu..." Indamay, aytganiga ko'ndi. Abdumajidni ipsiz bog'lab oldi Malohat. Nima desa xo'p deb, oldiga tushib yuripti. Uch kun istaganicha tekin spirt olib berdi. Bugun ishini tashlab, uni ko'tarib yuripti. Hali niyati amalga oshadimi yo yana uning oldiga poxol tashlab, qochib qoladimi? "Ko'pni ko'rgan yigit ekansiz!", dedi kecha, uni maqtab. O'zi-chi!?

Qaytishda ancha yo'lgacha o'z o'ylari bilan bo'lib, Abdumajid yonida o'tirgan Malohatga e'tibor qilmadi. Qiz ham tinchlanib qolgan, ilgari sho'xliklari yo'q, har zamonda Abdumajidga sal-pal nazar tashlab qo'rganini e'tiborga olmasa, o'zi bilan o'zi band edi.

Abdumajid nihoyat bir qarorga keldi: Tamom. Hozir Malohatni manziliga yetkazadiyu, ikkinchi marta bu qizni o'ziga yaqinlashtirmaydi. Tinchlik kerak!..

Yo'l chetidagi choyxonalaridan biriga ko'zi tushdiyu, Abdumajid qattiq ichkisi kelayotganini payqadi. E, unga nima? Dunyo ostin-ustun bo'lib ketmaydimi? Nima bo'lsa bo'lganicha bo'lib bo'lgan bu qiz? Abdumajidga qolgan bo'lsa sarqitning ham sarqiti qolgan, yuvindisi qolgan. Aqli kirar joyga kirib, yetar joyiga yetib bo'lgan bu qiz! Tag'in nimasini o'ylayapti? Hozir to'ygunicha ichadi. Hammasini unutadi.

Choyxonada ancha o'tirishdi. Rostakamiga hammasini unutib, bir shisha aroqni teng bo'lib ichishdi. Ichmasa kerak deb, yanayam har ehtimolga qarshi bitta piyolaga quyib, Malohatning oldiga qo'ygandi, Malohat bu odatdagi ishdan, piyolani oldiyu, ichib yubordi. O'ziyam juda zaril bo'lib turgan ekan. Noz-firoq ham qilib o'tirmadi. Keyin sal o'ziga keldi shekilli: "Ha, nega o'y surib qoldingiz?", deb so'radi xiyol jilmayib. Uning g'amgin o'tirishlari, ko'zlarining o'ychanligi unga yanayam latofat, ko'rk bag'ishlagan, turgan turishi go'zal edi Malohatning. Judayam go'zal edi Malohat! Ha, ota-onasi topib ism qo'yishgan. Shunday go'zal qiz yonida o'tirsayu, Abdumajid dunyo tashvishlariga ko'milsa adolatdan emas bu axir! Bir imo qilsa bas Yana nima kerak unga?!

Ikkovlon ikkinchi bor qadahlarni bo'shatishgandan so'ng Abdumajidning kayfiyati joyiga tushib, Malohatga suqlanib tikildi. O-oo! Zo'r! Zo'-o'o'r! Yana piyolalarga quygan edi, Malohat uning bilagidan tutdi:

- Siz ruldasi, ichma-ang!

"Ichmang" so'zini cho'zib, shunaqa yalingansimon aytdiki, Abdumajid yonidagi go'zal qizdan bo'lak dunyodagi hamma narsani unutdi.

Iliq mezon kechi kira boshlagan, g'ira-shira tushib qolgandi. Bunday, bir-biriga termulib ortiq o'tirishga ikkalasining ham sabr-toqati qolmagandi. Abdumajid tezda yana bir shisha aroqni jiz-bizi bilan qo'shib xarid qildi, mashinaga olib chiqishdi.

"Moskvich" katta yo'lga chiqib, choyxonadan sal o'tgandan so'nggi xilvat bir yo'lakka burildi-da, kimsasiz qorong'ilik qa'riga sho'ng'idi

Vinzavodga yetib kelganlarida vaqt yarim tunga borib qolgan edi. Uzumni topshirib, endi jo'namoqchi bo'lib turgan xo'jalik mashinalaridan biri o'sha yaqin tanishi "GAZ-53" shofyori dan qizni joyiga olib borib tashlashni iltimos qilib, "Moskvich"ga qaytdi.

- Mashinadan tushmayman, - dedi Malohat. U xomush tortib, ko'zlari allaqanday nursizlanib, bezday bo'lib, bir nuqtaga qadalib o'tirardi.

- Unda nima qilasan?

- Siznikiga boraman.

- Biznikida nima qilasan? Abdumajid achchiq bilan shu gapni aytishga aytdiyu, tilini tishladi. Boshi gangrab ketdi.

- Menga uylanasiz, - dedi Malohat asta, ammo qat'iy loqaydlik bilan.

- Ni-ma??? Abdumajidning tili tanglayiga yopishib qolganday bo'ldi.

- Menga uylanasiz!

- Qiz chiqmading-ku! Seni boshimga uramanmi?

- Bari bir. Men bilan birga bo'ldingizmi? Bo'ldingiz. Sizni oilamga bekorga ko'rsatdimmi? Men ularga hammasini aytib berdim.

- Nimani? Qanaqa hammasini? Unda hali oramizdan hech narsa o'tmagandi-ku!

- Unda o'tmagan bo'lsa, choyxonadan keyin o'tdimi? Bari bir o'tishini bilardim. Shuning uchun "shu yigit kuyovlaringiz bo'ladi", deganman.

Abdumajid hangu-mang bo'lib qoldi. Malohat hozir unga do'q urayotgandi. Uylanishga majbursan, deya yotgandi. Yo'qsa

- Siz axir qiz emasiz-ku! Abdumajid beixtiyor yana sizlashga o'tdi. U tamom bo'lgan edi. Tamom bo'lganini anglab, a'zoyi-badani bo'shashib ketdi. Bu gaplar Diloromga yetib borsa, u keyin Abdumajidni tiriklayib pishirib yeydi. Kelin-kuyov vaqtlari kuniga urishib turishgan bo'lsa-da, keyin o'ziday tirikchilik qilib ketishgan, farzandlari bor. To'g'ri, Diloromga judayam ko'ngli to'lmaydi. Shu sababli manavi voqealar Exx!!!

- Ishonsangiz ham, ishonmasangiz ham o'zingiz bilasiz, lekin bir martaga aytib qo'yishim kerak: Sizga qadar biron yigit mening hatto qo'limni ushlagan emas. Qiz emasligim esa Unda to'qqizinchi sinfdan o'qirdim. Qo'shnimiz kelin tushirdi. Men kelin ko'rganini bordim. Yosh emasmanmi, qiziqib, birinchi kechasi qanday o'tganini surishtirdim. Kelinchak juda qiynalganini, bu qiynoqlarni hech kimga ravo ko'rmasligini aytdi. Men qo'rqib ketdim. Bunaqa bo'ladigan bo'lsa, men hech qachon erga tegmayman, dedim. Ke, mushkuling oson bo'lsin, menday qiynalib yurma, deb u menga qalamni tiqib oldi. Bor-yo'g'i shu. Yosh bo'lganman, yaxshi-yomonning farqiga bormaganman. Keyin bilsam, o'sha kelinchak menga dushmanlik qilipti. Tuzatib bo'lmas dushmanlik qilipti. Nega endi birovning dushmanligi tufayli, men aybsiz bo'lsam-da, butun umr bebaxt bo'lib qolishim kerak ekan? Nima? Baxtli bo'lishga haqqim yo'qmi mening?!

Ayting!!! Malohat qaltirab, telbanamo nafratli ko'zlarini Abdumajidga tikdi. Nafratga to'lgan ko'zlar yanada go'zal, yanada ofatijon edi, ammo... Abdumajid dosh berolmay, ko'zlarini olib qochdi..

- Ha mayli, gaplaringga ishonchim ham deydik. Men sizni bari bir ololmayman. Uyda xotinim, ikki bolam bor.
- Aldamang! Xotiningiz ham, bolalaringiz ham yo'q. Shunchaki, tag'in menga tarmashib qolmasin, degan o'yda har ehtimolga qarshi to'qigan afsonangiz bu.
"Seniki-chi? Seniki borib turgan ertak-ku!"
- Men sizni aldab nima qilaman? To'g'risi, agar uylanmagan bo'lganimda sizday qizni jon-jon deb olardim.
- Haliyam olavering. Oling deb turibman-ku!
- Yo'q, siz meni tushunmayapsiz. Siz haqiqatan ham go'zalsiz, ammo men xotinimni o'ylamaganda ham ikki bolamni o'ylamay ilojim yo'q.. Ishonmasangiz, boring-da, anavi "GAZ-53"ning shofyoridan so'rang. Qarang, sizni kutayapti. O'ziyam toqati-toq bo'lib ketdi. Achchig'i chiqsa, hozir ketib qolishi mumkin. Yo'l-yo'lakay men haqimda so'rab bilasiz. Yoki... Abdumajid tushunib, jimib qoldi. Malohat shofyorning ketib qolishini kutayotgandi Keyin... O, ayyor qiz!
Malohat peshanasini oldingi o'rindiqning orqasiga qo'ydi.
- Hech bo'lmasa, bolalarimni o'ylang, - deya yalinishga tushdi Abdumajid. Axir, go'daklarning baxtini o'g'irlash hisobiga baxtli bo'lolmaysiz!
- Nega? Mening baxtimni o'g'irlashdi-ku! Mening baxtimni o'g'irlaganlar baxtli yashashyapti. Men nima qilishim kerak?! A!?! Nima qilay?! O'shalar tufayli bor iffatimni yer bilan yakson qilib, sizga bezbetlik qilib o'tiripman-ku! Nima kerak o'zi sizga?! Malohatning xo'rliigi kelib, yig'lab yubormaslik uchun yana peshanasini o'rindiqning orqasiga tiradi. Chidolmay, o'krab yubordi. Abdumajid tumshayib qoldi. Ovtutishga, qizga qo'l tekkizishga yuragi betlamasdi. Malohat tezda o'zini tutib, yig'isini to'xtatdi:
- Bo'pti! Nima bo'lgandayam bir martaga menga uylanasiz, keyin haydab yuborsangiz ham, - dedi quruqqina qilib, burnini tortarkan. Bir martaga uylanasiz, - dedi u takroran dona-dona qilib.
- Ie! Bir martaga sizga uylanadigan bo'lsam, xotinim bir martaga ketib qolsa, keyin qaytib kelmaydi. Bu yog'ini hisobga olmaymaysizmi?
- Siz-chi? Meni choyxonama-choyxona olib yurishni hisobga olmaymaysizmi? "Moskvich"da xilvatlarga olib ketishni-chi? "Arabcha o'yna", deganlaringizni-chi? Nima? Sizga birovning bekordan-bekorga boqib qo'ygan qizi bormi, istagancha toptayveradigan?! Haydang mashinangizni uyingizga. Men tushmayman! Bildingizmi, tush-may-man!!
Abdumajid lol bo'lib qoldi. Xilvatga o'tgandan so'ng kayf-safo deganlariday, maza bo'ldi. Yana yeb-ichishdi... keyin Abdumajid mashinasining magnitofoniga arabcha qo'shiqlari bor kassetani qo'yib, Malohatni yarim yalang'och qildi-da, arabcha o'ynattirdi. Go'yo o'sha shirin damlar bir umr davom etadiganday edi. Malohat nozli qarashlar bilan butun gavdasini, belini, belidan pastlarini likillatib o'ynaganida Abdumajid telbalarcha jazavaga tushgan, "o'yna, o'yna! Arabcha o'yna!", deya o'zi ham shod qichqirgancha, raqs tushib ketgandi. Endi esa...

Yor-yor
Hovlida ikkita so'ri bor ekan. Har biriga o'n odam bemalol o'tirsa bo'ladi. Kelinni uyga kirgizgandan so'ng kuyovnavkarlarni so'rilardan biriga taklif qilishdi. Ikkinchisida yoshi ulug'lar, kelinni olib kelishda bosh-qosh bo'lganlar o'tirishdi. Uch qalin do'st Abulxayr, Alibek va Lapas kuyovnavkarlar safida. Toshtemir o'qishda bo'lgani sababli to'ydan bexabar qoldi. Qo'li ochiq yigitlar ekanliklarini ko'rsatish uchun bor pullarini to'qqiztovoq, yangatovoqlarga tashlab qo'yishipti. Kelin tarafga jo'nash oldidan Abulxayr yarimtani qo'yniga tiqib olgandi. Yangalar kuyovnavkarlarning pulini qoqib olgandar so'ng oldilariga tayinli yegulik-ichkilik qo'ymadi. Shuning alamiga uch do'st yo'lda yarimtani o'zaro bo'shatishdi. Kayfiyat sal yaxshilanib, yo'lda avtobusdagilarning qulog'ini batang qilib, yor-yor aytishdi. Abulxayr bayt o'qidi. Har bir misraning oxirida kuyovnavkarlar jo'r bo'lishdi:

Bu soylarni soy demang,
Yor-yor yoro-ney.
Ko'shkovutni boy demang,
Yor-yor, yoron-ey!
Qozon-tovog'i toshdan,
Yor-yor, yoron-ey!
Navkarlar o'ldi ochdan,
Yor-yor, yoron-ey!
Baytning oxirida hamma kulib yubordi. Davra sovimasdan navbatni Alibek oldi:

Tegirmonu-tegirmon,
Yor-yor, yoron-ey!
Tevaragi temirdan,
Yor-yor, yoron-ey!
Ko'shkovutlik kelinning,
Yor-yor, yoron-ey!
Labini kuyov simirgan,
Yor-yor, yoron-ey!
Navbat Lapasga o'tdi. Uchovi bir bo'lsa, har qanday davra obod bo'ladi. Ayniqsa, Toshtemir bo'lganda-ku,... har qalay uning yo'qligi bari bir bilinyapti. To'yga kuyovnavkarlar safida borishning o'zi kishiga alohida g'urur, dadillik baxsh etarkan. Kelin tarafning yigitlari nafrat va ilojisizlikdan bezarib turishadi. Hozirlari unchalik ishlari yo'g'u, bari bir kuyovnavkar bo'lganidan keyin ko'zingga shunday ko'rinararkan. Avtobusdan tushar-tushmas kelinning dugonalari kuyovni ko'ramiz deb yugurib chiqishdi. Uch do'st yanada g'ururga to'ldi, chunki bahonada ularni ham ko'rishdi. Ular ham qizlarni tomosha qilishdi. Qizlar ularni ko'rib: "vah, zo'r yigitlar ekan!", deyishgan bo'lsa ne ajab!..
Piyolalar ikki-uch bor aylangandan so'ng boshlar qizidi. Har bir mehmon kuyov bilan urishtirib ichishni, uning kelgusi hayotiga bitmas-tuganmas baxt tilashni istardi. Kuyovnavkarlar orasida uch do'st yoshi eng kichiklar bo'lgani tufayli so'z navbati ularga tezda yetavermadi. Hislari to'lib-toshib ketgan Abulxayr oxirgi safar qadahlar to'ldirilganda navbat kutib o'tirmay, cho'kkalab o'tirdi-da, qo'lidagi piyolani baland ko'tarib, o'z tashabbusi bilan alyor aytishga chog'landi. Kayf joyida, labidan tabassum arimas,
19 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

ko'zlari mastona suzilardi. Abulxayr narigi so'rida otasi ham o'tirganini yaxshi bilardi. Ular ham maza qilib ichishyapti. O'n daqiqacha burun otasi qadah so'zi aytib, piyolasini namoyishkorona ichib, dasturxonga to'nkarib qo'ydi. Abulxayr otasidan ortda qolishni istamasdi. Ko'plar uchovining quvnoqligiga havas qilib, kelin-kuyovga baxt tilagandan so'ng: "Abulxayrga o'xshash uylanmagan yigitlar ham uylansin to'ylarida mana shunday xushchaqchaq o'tirib, xursandchilik qilaveraylik", deyishyapti. Rost-da, tezroq uylanish kerak. Maktabni bitirgan bo'lsa, o'n to'qqizga kirib bo'ldi. Otasi nega uylantirmayapti? Abulxayr yigitmisan - yigit! Bitta xotinni eplay oladi. Birinchi, bosh o'g'il bo'lsa oilada. Yuraveradimi? Abulxayr har zamonda kishi bilmas quloq solib qo'yadi. Ota-onasi uni uylantirish haqida lom-mim demagan. Qaniydi, Abulxayrning otasi ham bunda-ay, kallasini ishlatsayu, kel o'g'lim, seni uylantirib qo'yay, desa.

- Men do'stlarim nomidan gapirmoqchiman, - dedi Abulxayr, ikki yonida o'tirgan Alibek bilan Lapasga qarab olarkan. Biz ham kelin-kuyovga baxt-saodat tilaymiz. Ma'qullovchi, ruhlaniruvchi qiyiqiriqlar eshitildi. Kimdir otasiga: "O'g'lingizning gapiga quloq soling, zo'r gaplarni aytyapti", dedi. Abulxayrning qulog'iga bu gap ham chalindi. U davom etdi. Mana shu yerda o'tirgan o'rtoqlar aytishdiki, uylanmaganlar uylanaversin, shuning uchun ichamiz. Abulxayr shartta piyolasini ko'tardi. U ataylab baland ovozdagi gapirgan, bilsa chin, bilmasa hazil tariqasida gaplarini otasi eshitishini istagandi. Sheriklari bilan kulishib o'tirsa-da, gaplarimga nima deyisharkin, deb quloqlari ding bo'ldi. Sezishicha, narigi so'ridagilar otasini o'rta olishgan, otasi esa: "Men rozi, mayli, topsin, aytsin, uylantirib qo'yish men tan", dedi.

Abulxayr quvonib ketdi. Demak, otasi rozi. Gap o'zida qolgan. Bitta qiz topish kerak. Topa olarmikan. Barlos to'la qiz-ku! Zo'ridan topsa. Chiroylisidan. Kelishganidan. Quchoqlaganda quchog'i to'lib tursa... Ulbozor ham yaxshi qizu... juda ozg'in. Buning ustiga bo'yi pastroq...

Ulbozor shu yil maktabni bitirgan. Sal qo'polroq, shuning uchun yigitlar ko'pam gaplashavermaydi. Hozir o'zlarining brigadasida ishlayapti. Bir kuni ishga ketishda ikkovlon yo'l-yo'lakay hangomalashib ketishdi. Bildiki, Ulbozor yigitlar o'ylaganday, u qadar qo'pol emas. Tuppa-tuzuk, hamma qizlar qatori bir qiz. Kam joyi yo'q. Ulbozorga uylanish shart emas, lekin nega imkoniyatlardan foydalanib qolmasligi kerak? Yosh yigit bo'lsa. Uylanmagan. Bo'ydoq. Hozircha yurib turaversin, uylanadigan vaqti kelsa, zo'ridan topadi. Agar topolmasa, bu yoqda otasi bor, uylantirib qo'yadi-da, o'g'lini! Nima qipti. O'g'lini uylantirish otaning vazifasi. Ota bo'lgandan keyin bajarsin vazifasini! Ulbozor ozg'in bo'lsa ham, bo'yi past bo'lsa ham mayli, payti topilganda o'ynab qolish kerak. O'sha hangomadan keyin ko'pincha ishga borishda ham, ishdan uyga qaytishda ham - tasodifan! yo'lga birga chiqib qoladigan, suhbatlashib borib-keladigan bo'lib qolishdi. Abluxayrning nazarida qiz ham unga intilayotgan, ana shu tasodiflarni ataylab qizning o'zi! - tashkillashtirayotgan edi. Ulbozorning aytishicha, uylarida o'zi alohida, derazasi ko'chaga qaragan xonada yotar emish.

- Oqshom boraman, derazangni taqillataman. Chiqasan, xo'pmi? dedi Abluxayr kunlarning birida.

Ulbozor indamadi. Demak, rozi. Abulxayr shunday tushundi. Chiqadi. Chiqishiga ishonchi komil. O'sha kuni oqshom Lapasni yetaklab, Ulbozorlarnikiga bordi. Asta derazani taqillatdi. Zum o'tmay, ichkaridan Ulbozorning yuzi ko'rindi.

- Chiq, men keldim, - dedi Abulxayr.

Deraza qaytadan yopildi. Abulxayr bo'lajak uchrashuvni xayolan tasavvur etib, ishshaydi. Lapasga: "Sen, jo'ra, bizga ko'rinmay, maktabning panasida atrofni kuzatasan, biron xavf tug'iladigan bo'lsa hushtak chalib, xabar berasan", dedi.

O'shandagisi birinchi uchrashuvlari edi. Ishga ketishda tuzukkina gaplashishardi. Endi, nimagadir, hayajonlanganidanmi, tiliga gap kelmasdi. Ulbozor ham indamaydi. Yigit kishi gapirmagandan keyin qiz bola og'iz ocharmidi? "Yur", dedi nihoyat Abulxayr, Ulbozorni qorong'iroq tomonga yetaklab. Ulbozor osoyishta harakat bilan bilagini bo'shatdi-da, u aytgan tarafga yurdi. Abulxayr hamon miq etmas, ammo nimadir qilish kerakligini, bunday turaverishlari o'ziga ham, Ulbozorga ham noqulayligini yaxshi tushunardi...

- Qishga o'tin tashiyapsizlarmi? deya so'radi nihoyat va shartta tilini tishladi: "Axmoqona gap. Hech o'tinni o'ylamagandi, qayoqdanam tiliga kelib qoldi? Nima, Ulbozor hozir o'tin tashishga chiqqanmi?.. Bekordan bekorga derazasini taqillatgandan yugurib chiqmagandir axir!? O'zi nimaga keldi? Niyati nima?..."

- Otam tashiyapti, - dedi Ulbozor, ko'zlarini yerga tikankan.

Xullas, yashirin hangoma uncha qovushmadi. Qaytib kelganda Lapas: "O'l-a, landovur, chaynab og'zingga solgan narsani yutolmaysan", deb so'kdi. Abulxayr parvo qilmadi. U xursand edi. Biron bir natijaga erisholmagan bo'lsa-da, eng asosiysi, - birinchi uchrashuv! amalga oshdi. Qiz unga roysh bildiryapti. Valdir-vuldur qilgani bilan Lapas hali u qilgan ishni qila olgani yo'q.. Qani, qo'lidan kelsa, Lapas ham Ulbozorchalik bo'lsa-da, bir qizni kechasi uyidan olib chiqsin. Abulxayr u istagancha qorovullik qilib beradi. Birinchi uchrashuvdan darrov tarmashaversa, sevdim-kuydim deyaversa... G'alati-da! Keyin, bu bola chatoq ekan, deb uchrashuvga chiqmay qo'yishi mumkin. Axir Abulxayr faqat shu oqshomni deb chiqqani yo'q-ku, to'g'rimi? E, Lapas nimaniyam bilardi. Lapas gapiraveradi. Agar o'zi Abulxayrning o'rnida bo'lganida qiz bolaning qo'lini ham tutolmas edi. O'sha, bir-ikki og'iz gapni ham aytolmasdi. Ha, Abulxayr dadillik qildi.

Ulbozorga uylansa bo'lmaydi-da. Boshqa qiz topish kerak. Yoshrog'idan. Ko'rkamrog'idan. Endi o'ninchi sinfni bitiradiganidan. Hozirgi o'ninchilar orasida zo'r-zo'r qizlar bor. Yana to'rt oyda maktabni bitirishadi. Keyin otasiga o'shalarning eng chiroylisini tanlab aytsa, otasi to'xtatmay sovg'i jo'natsa, qarabsizki, kuzgacha Abulxayr xotinli bo'lib turibdi-da. Yostiqaq yonboshlab: "Xotin, choy!" desa. Yoki ertalab uyog'onganda hovliga chiqishga erinib: "Xotin, suv keltir, bet-qo'limni yuvaman", desa. O'shanda ham ko'rpadan chiqmay, yostiqaq suyanib, bir qo'li bilan betini yuvsa. Xotini sochiq tutsa. Abulxayr artinib, yana ko'rpaga o'ranib yotib olsa. O'hh! Mazza! Xotining bo'lsa yaxshi! Ertalab choyingni oldingga keltirsa. Kechqurun ovqatingni tayyorlasa. Kiringni yuvsa. Ko'ylaging sal kirlagandan yechib otaverasan. Ayniqsa, paypoqni aytmaysizmi? Har kuni yuvaverish jonga tegib ketgan. Uylansa zo'r! Mazza! Undan keyin Alibek, Lapas, Abdumajid, Toshtemirlar kelganda bemalol o'zining uyida (o'zining uyida!) kerilib o'tiradi. Xotini jo'ralaridan uyalib, yuziga ro'mol tashlab kirsas. Jo'ralari xotiniga qarasa. Toshtemir bari bir qo'ymaydi: "Yuzingizni oching, mo'yinsa, bir ko'raylik. Qo'rqmang, yeb qo'ymaymiz, palov emassiz-ku axir! To'g'rimi? Diyoringizni bir ko'raylik-chi, Abulxayrga loyiqmisiz, yo'qmi, baho beraylik", desa. (Toshtemir bunaqa gapni aytadi, jim turmaydi. Shunchalar o'rniga qo'yib aytadiki, hech kim undan xafa ham bo'lmaydi, ko'nliga ham olmaydi. Afsuski, hozir yo'q. Bo'lganda kuyovnavkarlar davrasini rosa qizdirardi.) Abulxayrning xotini yuzini ochmaydi. Keyin Toshtemir Abulxayrning o'ziga o'giriladi-da: "Xotiningni betini och! Ko'raylik! Diyoriga to'yaylik! Bari bir o'zingniki, qizag'anaverma ko'p", deydi. Abulxayrning o'zi ham chiroyli xotinini do'stlariga ko'z-ko'z qilishni istayotgandi, ammo Toshtemir yana shunaqa gaplardan aytsin,

davrani qizdirsin, deb o'tirgandi. Chunki keyin xotiniga: "Ko'rdingmi, mening shunaqa zo'r do'stlarim bor", deb maqtanmoqchi.

"Ochsang betingni ochaqol, bari bir o'zimmikisan", deydi Abulxayr bepisandlik bilan xotiniga. Xotini yerga qaraydi. Shunda Abulxayr yonboshlab yotgan joyidan cho'zilib, ro'molning bir chetidan tutgancha, tortib yuboradi. Yosh kelinchakning yuzi ochilib, uyaladi. Toshtemir hazilini davom ettiradi: "Siz, mo'yinsa, juda zo'r, chiroyli ekansiz. Qanday qilib, bizning Abulxayrga tegdingiz? Siz bamisoli atirgul bo'lsangiz, Abulxayr cho'lda qurib qolgan chaqirtikanakday gap-ku!", deydi. Bolalar kulishadi. Kelinchak ham qimtinib o'tirsa-da, kulib yuboradi. Abulxayr Toshtemirning gapini ko'nliga olmaydi. Toshtemir o'zi shunaqa, shaqir-shuqur, ichida gap yotmaydi. G'arazgo'yiligi yo'q. "Eh, Abulxayr, - deydi Toshtemir yana, - to'g'risini aytsam, senga =asadim kelyapti. Afsus, ming afsus, bilmay qopman-da, shunday zo'r qiz qo'ldan chiqib ketibdi-ya! Agar men ham shunday chiroyli qizga uylanganimda hech qaysingga

Ko'rsatmasdim, hech qaysingni uyimga kirgizmasdim ham. Uyni ichidan qulflab olib, faqat o'zim tomosha qilib yotgan bo'lardim. Maz-za! Sen esa, axmoq, uni bizga ko'rsatib o'tiripsan. Ana endi nima bo'ldi?! Hammamiz sening xotiningni yaxshi ko'rib qoldik. Senam yaxshi ko'rib qoldingmi, Alibek? Senammi, Lapas? Ana, ko'rding? Esingda bo'lsin, Ikkinchi marta shunaqa chiroyli qizga uylanadigan bo'lsang, hech kimga ko'rsatma. Sandiqqa solib, o'zing sandiqning ustiga chiqib o'tirib ol! Tushundingmi? Haliyam kech emas lekin!.. O'shanda Abulxayr ham jim turmaydi. Boplaydi: "Kerak bo'lsa, alam judayam o'tib borayotgan bo'lsa, senam otangga ayt, seniyam uylantirib qo'ysin"...

Tun yarmidan oqqan, kuyovnavkarlar mast, bir-ikkitasi uxlab yotar, qolganlar hamon alyor aytib, shishalarning tagida qolganlarini izlab, topib, bo'shatish bilan band edi. Ko'p o'tmay yangalar kuyovni chaqirib olib ketishdi. Abulxayr havas bilan ortidan tikilib qoldi. Hozir kuyov kelinning oldiga kiradi. Kelin uyalib, qisilib, qimtinib turadi. Agar kuyov dadil bo'lsa, kelinni shartta ikki yelkasidan tutib, o'ziga qaratadi, ko'zlariga tikilib: "Menga tegayotganingdan xursandmisan?", deb so'raydi. Abulxayr shunday qilgan bo'lardi. Kelinchak oppoq harirga o'ralgan. Kelinchakka oq kiyim juda yarashadi. Umuman, Abulxayr oq kiyim kiygan qizlarni yaxshi ko'rib ketaveradi. Bora solib, bag'riga bosishni istaydi. "Titrama, jonginam! Men seni sevaman!" deydi kuyov. Yo "jonginam" demagani ma'qulmi? Kelinchakni taltaytirib yuborishi mumkin-da bunaqa gaplar! Judayam o'lib turgan ekan, degan fikrga borishi mumkin. Bunaqa gaplar odatda to'ygacha aytiladi. To'ydan keyin jilovni qo'lga olish kerak bo'ladi. Har qalay er uying egasi, xotinning yugurdagi emas. Umuman olganda, birinchi kechada, yangi kelinchakka ruhan dalda berish maqsadida "jonginam" deyaversa ham bo'lar, ammo keyin bunaqa gaplarni aytishni o'ylab ko'rish kerak bo'ladi. "Sevaman" degan so'zning o'zi qiziq. Qandaydir, bachkanaga o'xshaydimi-ey! "Men seni sevaman!" Shuyam gap bo'ldimi? Bunaqa gaplar faqat qo'shiqlarga yarashadi.

Yarimta-yurumtasi qolgan shishalar ham bo'shatilgandan so'ng yigitlar tarqalish uchun o'rinlaridan qo'zg'olishdi. Uch do'stning ham uyi bir tarafdada. Ulbozorlarniki esa qarama-qarshi tarafdada edi.

- Yuringlar, bu tomonga boramiz, - dedi Abulxayr do'stlarini Ulbozorlar tarafdaga boshlash niyatida.

- Qayoqqa?

- Ikkovlarning bir bo'lib menga qorovullik qilasizlar. Bugun men ham birinchi kechamni o'tkazaman.

- Esing joyidami o'zi? dedi Lapas. O'zi zo'rg'a oyoqda turipmiz. Tag'in sharmanda bo'lib o'tirmaylik, tinchlik kerak.

- Bormaysanmi?

- Yo'q...

- Bormasang sira borma. Alibek, sen yur. Jo'rachilikka bir kecha qorovullik qilsang nima bo'пти.

- Qo'ysangchi, juda charchadik, uyga yetib uxlash kerak.

- Bormasanglar bormanglar, o'zim ketaveraman, - dedi Abulxayr silkinib. Silkinganda gindiraklab ketdi.

- Yo'q, senam bormaysan. Biz bilan ketasan, - dedi Lapas.

- Qo'yvoringlar, - Abulxayr yana silkindi, ammo ikki do'sti mahkam ushlab olgan ekan, o'zini ajratib ololmadi. Bildiki, endi qo'yishmaydi. Borishmasa borishmasin. Nima? Qo'rqadimi? Necha martalab uchrashgan. Qorovul shart emas. Shu vaqtgacha biron marta qorovulning keragi bo'lmagan, har gal postida turgani bilan. Qo'yvoringlar, mayli, bormayman. To'yga qaytib kiraman. Otamni uyga olib ketaman.

- Ulbozorga bormaysanmi?

- Yo'q.

Abulxayrni qo'yib yuborishdi. Abulxayrga qayta-qayta tayinlab, ikki do'sti uylariga ketishdi. Abulxayr ular uzoqlashgancha to'yxonaga kirgan kishi bo'lib, panalab turdi-da, keyin... Ulbozor uxlab qolgan ekan, derazani uch-to'rt marta taqillatgandan keyin ochdi.

- Ha!?

- Ko'shkovutdan kelin olib keldik. Shuning uchun kech qoldim, - deya Abulxayr derazaning raxiga chiqdi. Uyga kirish payti odat bo'lib qolgani uchunmi yo mastlikda sezmadimi, ishqilib, tuflisini yechib, derazaning tagida qoldirdi-da, o'zini ichkariga tashladi.

Ulbozor Abulxayrning yo'lini to'smoqchi bo'lgan edi, ikkovi ostinma-ustun bo'lib, Ulbozorning ko'rpa-to'shagiga qulab tushishdi.

- Nima qilyapsiz? yiqilganlarida pol dukillaganidan qo'rqib ketdi qiz. Otam bilib qolsa o'ldiradi. Vo-oy, siz mastmisiz?

- Qo'rqma! Otang bilmaydi. Abulxayr nima deyayotganini o'zi ham bilmas, qorong'ida Ulbozorning lablarini axtarardi.

Qiz endi o'ziga kelganday, cho'chib tushdi. Zo'r berib, yigitning quchoqidan chiqishga urina boshladi:

- Qo'ying, Abulxayr aka, qo'ying! Bari bir yaxshi emas! Keting! Iltimos sizdan, Abulxayr aka, keting! Axir siz nima qilmoqchi bo'lyapsiz, bilasizmi? Men qanday qilib bosh ko'tarib yuraman?! Odamlarga qanday qarayman?!...

Qizning vahimaga to'la shivirlashlarida bilinar-bilinmas erkalash ohanglari ham bo'lib, buni Abulxayr sezar, shu tufayli harakatlariga shijoat qo'shilib borardi. Ayni damda nima desa, qiz barcha istaklarini bajo keltirishini anglab, naqadar lazzatlanib ketdi: Ulbozor qo'lida! Uni istagan kuyiga sola oladi. Ha-a, Abulxayr zo'r! Qizlarni bu taxlit o'ziga qaratish na Lapasning, va na Alibekning qo'lidan kelmaydi, kerak bo'lsa. Hatto Toshtemirni ham yo'lda qoldirib ketadi. Buning uchun iste'dod kerak! - Abulxayrning iste'dodi kerak!

- Odamlarga qarab nima qilasan? Menga qarasang bo'ldi-da!

Ulbozor "hiq" etdi-byu, jimib qoldi. Hatto qarshilik ham ko'rsatmay qo'ydi. Bir ozdan so'ng qandaydir ovoz chiqara boshladi.

Yig'layaptimi, kulyaptimi, Abulxayr avvaliga ajrata olmadi. Keyin yig'layotganini bilib, shoshib qoldi. Endi Ulbozorning o'zi uni mahkam quchoqlab, yig'i aralash dedi:

- Abulxayr aka, ayting, bir nima bo'lsa, meni tashlab ketmaysizmi? Ayting, siz meni sevasizmi o'zi? A?! Tushunsangizchi?! Men sizni uyga kiritib oldim! Birov bilib qolsa, sharmanda bo'laman!

- Hech kim bilmaydi, - dedi Abulxayr uni yupatmoqchi bo'lib, ammo Ulbozorni yupatish uchun boshqa gapni aytish kerakligi

anglab davom etdi: - Seni hech qachon tashlab qo'ymayman. Seni yaxshi ko'raman! Seni sevaman, Ulbozor! Shu jumlangi aytarkan, Abulxayr beixtiyor to'lqinlanib ketdi va jumlangi aytish barobari Ulbozorni sevishiga o'zi ham ishona boshladi. Men seni sevaman, Ulbozor! Seni olaman, ertagayoq uyda otamga aytaman. Meni Ulbozorga uylantirib qo'ying, deymen. Ulbozor o'ksib-o'ksib yig'lar, "otamning yuziga oyoq qo'yayapman", derdiyu, xuddi qochib ketadiganday, Abulxayrni ham qo'yib yubormasdi. Hiqillab: "Siz bari bir meni tashlab ketasiz", der, bu gapini qayta-qayta takrorlardi.

* * *

Bog'monni o'g'ilchasi tamshanib uyg'otib yubordi. O'g'ilchasi hozir uch yoshda. Beshta qizdan keyin tilab olgani shu. Bu ham onasining shoriga kelgan ekan, ko'zi yoridiyu, olamdan o'tdi. O'shandan beri Bog'mon beva. Yoshi ellikka borib qoldi. Qizlari katta bo'lib qolgan, har qalay shular kuniga yarab turipti. To'ng'ichi Ulbozor bo'y yetib qoldi. Nonniyam o'sha yopadi, kirniyam o'sha yuvadi. O'g'il kutishgandi-da, qiz bo'lib qoldi. Keyin, o'g'limiz ko'p bo'lsin, degan tilak bilan uning ismini Ulbozor qo'yishdi. Omad kelmasa qiyin ekan, Ulbozorning orqasidan yana to'rt qiz tug'ildi.. Sovchilar eshigining turumini buzishyapti. Sovchi kelaversa, otaning ko'ngli ko'tarilaverarkan. Bog'mon har safar xursand bo'lib ketadi. Nimaga xursand bo'ladi, o'zyam bilmaydi. Faqat Ulbozor tushmagur, surishtirmay-netmay, hammasini rad qilyapti. Bog'mon ham bir nima degani yo'q. Mayli-da! Hali yosh, kim bilan yashashini o'zi hal qilsin. Buning ustiga ikkinchi qiz ro'zg'or tashvishlarini o'z gardaniga olgunga qadar Ulbozor uyda bo'lib turganiyam ma'qul. Shoshib nimayam qiladi.

Bog'mon bir-ikki joydan beva izladi. Ersiz xotinlar ko'p, ammo erga tegadigani kam ekan. Tegadigani ham olti bolali boboyni rad qildi. E, Bog'monga qiyin bo'ldi! Bog'mon mehrga to'lib, pishillab uxlayotgan o'g'liga termuldi. Yelkasi sal-pal ochilib qolgan ekan, yaxshilab yopdi. Kichkinagina go'dak, onasining boshiga yetdi-ya! O'ziyam ozmuncha qiyinchiliklarni ko'rmayapti. Bitta odamni o'ldirgandan keyin shu-da! Ona sutidan bebahra qoldi. Yanayam Ulbozorning boriga shukr! O'sha qaradi. O'sha katta qildi! Nasib etsa, hali bir zo'r yigit bo'lsin. Barlosda bugun to'y. Ko'shkovutdan kelin olib kelishgan Kim biladi, o'g'liga qaerdan kelin olib kelisharkan! Bog'mon orziqdi. Ishqilib, yaxshigina, gapga kiradigan kelin bo'lsa-da... Bog'monga o'xshash bechoralarni oyoq osti qilib ketavermasa... Bir-ikki soatda tong otadi. Ozroq uxlash kerak. Bog'mon o'rniga cho'zilmoqchi bo'ldi, ammo uyqus qochgan edi, shuningdek, majburiyat yuzasidan tashqariga chiqishi kerak bo'ldi.

Bahor havosi! U har qanday hissiz, befarq to'nkani ham ko'kartinib yuborishga qodir. Ayniqsa, erta tong payti. Bog'monning ruhiga shodlik yugurib, ko'chaga chiqdi. Ko'kragini to'ldirib-to'ldirib havo simirdi. Ko'ngli yayrab, ko'cha bo'ylab, ozroq yurdi. Keyin o'girilib, o'z uyiga qaradi. Oddiy qishloq uylaridan biri. Ana, ko'cha tarafdagi derazasi. O'sha xonani Ulbozor egallab olgan. O'ninchiga o'tganidan bu yog'iga. Bog'mon qarshilik ko'rsatmadi. Kuniga yarab turgan farzandi shu bo'lsa. Ra'yini qaytarib nimayam qildi. Bir o'zi shu xonada yotadi. Bolang ulg'ayaversa shu ekan, talablari ham ulg'ayib borarkan. Bahslashish qiyinlasharkan. Oxiri, bilganingni qil, deb o'z holiga qo'yishga majbur bo'larkansan. Bir yildanberi shu ahvol... Iy-e! Derazasi ochilib qoliptimi? O'zi ochib yotdimikan yo esidan chiqdimikan? Tag'in bahor havosidan simiraman, deb sovqotib qolmasin. Tez yopish kerak.

Bog'mon derazani yopdi. Qaytib yuraman, degandi, nimagadir oyog'i chalkashdi. Tosh bo'lsa kerak, deb o'yladi avvaliga, ammo u bir qadar mayin edi, toshga o'xshamasdi. Tong otib borar, atrof yorug'lashardi. Bog'mon yerga qarab, bir poy tuflini ko'rdi. Xotirjam, tepib yubordi. Shu ko'yi ozroq turib qoldi. Sal-pal junjikayotganini sezib, hovliga o'tmoqchi bo'ldiyu, tuflining ikkinchi poyiga ko'zi tushdi. Nimanidir anglaganday, segrak tortdi. Ikki poy tuflini ham qo'lga oldi: bir kishiniki, tashlandiq emas. Kiyilayotgan buyum. Bironyasi esidan chiqardimikan? Nega endi aynan shu yerda, Ulbozorning derazasi oldida esidan chiqaradi????!! Ulbozor?!! Nahot?!!...

Bog'mon derazani ochib "Ulbozor, ho' Ulbozor!" deb chaqirdi. Xona qorong'u, ichkari yaxshi ko'rinmasdi. Ancha vaqtdan keyin qo'rqinch va vahima aralash "ha" degan javob eshitildi. Shu zahoti yana kimdir tipirchiladi, keyin sakrab turganicha kiyina boshladi. Bog'mon avvaliga tili kalimaga kelmay, qotganicha uning kiyinishiga qarab turdi. Keyin eshikka yo'nalayotganini ko'rib: "qochyapti-ku!", degan fikrdan dahshatga tushib, qochayotganni ushlab maqsadida hovli aylanib, eshik tomonga yugurdi. Bog'monning hovlisi bir bechoraniki. To'rt tomoni ochiq.. Eshikka chiqib olsa bo'ldi, istagan tomoniga qochib keta oladi. Yigit eshikdan chiqib, tomorqa tarafga yuzlanganda Bog'mon ortidan yetib bordi. "Bu qanaqa yigit? Kim? Kimning bolasi?" Hali bu savollarga javob izlamagan, izlashga ulgurmagandi. Muhimi, qizining oldiga niyati buzuq odam kirgan, uni ushlab, qo'lga tushirish kerak edi. Teskari o'girilgani tufayli Bog'mon uning betini ko'rmadi, kimligini aniqlay olmadi. Yetganicha, uning ko'ylagidan tutdi. Yigit ko'ylagini silkib tortdi, zarb kuchlilik qilib, ko'ylakni mahkam tutgani uchun Bog'mon yiqilib qoldi. Yigit chaqqon harakatlar bilan qo'shni hovlidan o'tib, narigi ko'chaga chiqib qochdi... Bir pas gangib o'tirib qolgan Bog'mon nima fojia yuz berayotganini anglab, yana o'rnidan turdi. Shoshganicha Ulbozorning xonasiga kirdi. Qizi hech narsa bo'lmaganday, bemalol uxlab yotardi. Chini bilan uxlayaptimi, jo'rttagami, bilib bo'lmasdi. Har qalay shunchalar voqealar bo'lyaptiyu, buning chini bilan uxlayotganiga ishonish mutlaqo mumkin emas edi.

Bog'mon ko'ngli bo'sh odam edi. Shu tufayli uch yildan beri qaytadan uylana olmayotgan edi. Yo'qsa, Barlosda xotini o'lgan, boshqa sabab bilan xotinsiz qolgan Bog'mon tengilar oti oyga yetmay yana uylanib olishyapti. Ularning bolalari ham Bog'monnikidan kam emas. Faqat o'zi kamsuqum. Aybi shu.

Yigitning silovidan Bog'monning ko'ksi hamon og'rirdi. Boshi g'uvillardi. Buning ustiga Ulbozor hkch narsadan bexabarday o'zini bu ahvolga solishi-chi?! Bog'monning ichi alamdan, nochorlikdan o'rtanib, to'lib-toshib ketdi. Ko'zlaridan yosh chiqib, ostonada o'tirib qoldi. Ko'nglidagi armonlar bir qadar to'kilganday bo'lgandan so'ng o'rnidan turdi. Yana Ulbozorga tikildi. U hamon go'yo bamaylixotir uxlab yotardi. Bog'mon g'azablanib ketdi: He, onaginangni seni... Bu nima yotish?! Otasini o'ynashiga urdirdi! O'ynashiga urdirdi-ya, otasini! Bog'monni! Qiz o'stirib, yetmoqchi bo'lgan niyati shumidi?! Bog'mon hozir senga onaginangni ko'rsatib qo'yadi. Ko'zginangga ko'rsatib qo'yadi! Qani, keyin Bog'mon bir ko'rsinchi! Bog'mon bir tomosha qilsin-chi! Ho-o, oyimcha-e! Juda ersirab borayotgan ekan, aytmaydimi? Bog'mon to'ysiz, boshqasiz, qo'lidan ushlatib, yetaklatib yubormaydimi? Bog'monning o'ziyoq yigitning uyiga olib borib tashlamaydimi Ulbozorni! O'n sakkizga kirar-kirmas ko'ngillari er tusab qolgan bo'lsa! Buni qaranglar-a! To otasi biror tengini topganicha chiday olmayotgan ekan-da, aytmaydimi? Yaxshi, yaxshi! Bog'monni juda xursand qildi. Bog'monning boshi osmonga yetdi. Bog'mon hozir shodlikdan o'zini qo'ygani joy topolmayapti. Halitdan bo'lg'usi kuyovning shiringina siltovini totdi. Ulbozorga yana nima kerak? Otasining og'zi-burni qon bo'lib qolganda yaxshiroq bo'larmidi? O'shanda ham xuddi shunaqa, ko'zini yumib yotaverarmidi?! Undan ko'ra, er-xotin bo'lib olib, keyin Bog'monni ikkovlashib, Barlosning o'rtasiga sudrab olib chiqib, urganlarida yaxshiroq bo'larmidi! O'l bu kuningdan! Eshshak!! Axmoq! Hayvon!!! Endi Bog'mon qanday bosh ko'tarib yuradi?!

Bog'mon shasht bilan Ulbozorning ustidagi ko'rpasini yulib otdi. Ulbozor asta ko'zini ochdi. Qovoqlarini ishqaladi, endi uyg'onayotgan kishidek, hayron bo'lib savolomuz otasiga tikildi. Agar Bog'mon hozir yaxshilab tikilganda qizining ko'zlaridagi qo'rquv alomatlarini payqagan, bir zumda uni ayblariga iqror qilgan bo'lardi. Ammo Bog'mon bunday qilolmadi. Butun umr birovning ko'ziga tik qaramagan bir bechora notavon edi u. Hozir esa o'z fojiasi bilan band edi. Oilasi boshiga tushgan bu falokat uni butkul gangitib qo'ygan edi. Qizining bezbetligidan Bog'monning yana shashti tushdi, yig'lagisi keldi, ammo zo'rg'a o'zini to'xtatib qoldi. Birdan o'sha yigitni esladi. Kim o'zi u? Tufli esiga kelib, shoshilganicha ko'chaga chiqdi. Boyagi tuffilar o'zi qoldirgan joyda yotardi. Bog'mon ularga yopishdi. Mana! Mana, Bog'monni sharmandalikdan xalos qiladigan narsa! U yigit endi qochib qutula olmaydi. Majbur, Ulbozorga uylanishga majbur!

- Kimidi u?! so'radi Bog'mon orqasidan chiqqan Ulbozordan.

Ulbozor hayron bo'lgandek otasiga qaradi.

- Kim edi u, deb so'rayapman men sendan??

- Hech kim! terslandi Ulbozor sovuqqina.

- Unda bu tufli qaerdan keldi?

- Bilmasam.

Bog'mon chiday olmadi. Shashti sinib, bo'shashdi. Bu yigit qizini bir balo qilgan. O'ziga qattiq bog'lab olganga o'xshaydi. Qanday bo'lmasin, uni topish kerak. Hoziroq! Endi Ulbozor hech narsa aytmaydi. Urub o'ldirsang ham gap ololmaysan. Rahmatli onasi shunaqa edi. Bunda onasining fe'li bor. Tez topmasa, u yigit qochib qolishi ham mumkin.

Keyin ota-onasi ham tan olmay qo'yishi bor... Bog'mon bunga yo'l qo'ya olmaydi. U yigitni topadi. Ulbozorning xonasiga kiriptimi, endi birato'la uyiga olib ketsin. Uylansin. To'y-po'yi kerak emas. Bog'mon Ulbozorni, butun oilasini isnodga qoldirib qo'ymaydi. Bog'mon tuffini qo'ltig'iga qistirib, ko'chaga yura boshlagandi, Ulbozor yo'lini to'sdi:

- Bormang, bormang uning oldiga! Kerak emas! U meni olaman degan. O'zi keladi.

Bog'mon yana g'azablana boshladi. Qizining bu harakati hamma qiligidan oshib tushdi. Uylanish ko'nglida bor yigit shunaqa qilib qochib yuradimi? Aqli-hushi joyidami o'zi? Oradan bir-ikki kun o'tsa, keyin u tan olmay qo'yishi mumkin axir!

- Bormaydigan bo'lsam,.. unda ayt: kim u?

Ayni damda Ulbozorda otasini tinglaydigan ahvol yo'q. Maqsadi: qanday qilib bo'lmasin, otasini ko'chaga chiqishdan to'xtatish, Abulxayrni gap-so'zdan qutultirish edi. Chunki, Abulxayr shuni talab qildi: "Otang ko'chaga chiqib, meni gap-so'z qiladigan bo'lsa, ikki dunyodayam keyin senga uylanmayman. Otangni tinchit!" "Keyin meni olasizmi axir?!" "Otangni tinchitsang..." U yohini aniq aytmadi. O'ldimi, olsa kerak. Axir qanday qilib qiz bolani shu ahvolda tashlab ketishi mumkin?! O'zi "seni sevaman!" dedi. "Bir umr birga bo'lamiz!" dedi. Abulxayr yaxshi yigit! Abulxayr Ulbozorni sevadi. Otasi esa hech narsani tushunmasdan ishni buzmoqchi.

- Bormaysiz! Hech yoqqa bormaysiz! Ulbozor otasining bo'yniga osildi.

Bog'mon battar achchiqlandi. Ulbozorni silkib o'zidan ajratdi: "Kim u? Kim deb so'rayapman men sendan??" - Bog'mon shapaloqlab qo'yib yubordi Ulbozorni. Keyin alam bilan yana yo'lga chiqayotgandi, Ulbozor yana yo'lini to'sdi. Bog'mon yana bo'shashdi:

- Ayt qizim, jon qizim, kim u? Bog'monning iltijoli ko'zlari yoshlandi.

- Bormaysiz! Abulxayrning oldiga bormaysiz! U menga uylanmoqchi. Otangni tinchitsang uylanaman, dedi.

Bog'mon garangsib o'tirib qoldi. Hali qizi Abulxayrni ilashib qoldimi. Olaman emish. Asli uning otasi yolg'onchi-ku! O'shaning gapiga ishonib yuriptimi. Ulbozor yana allanimalar der, ammo endi Bog'monning qulog'iga gap kirmasdi. Bog'mon Abulxayrniyam, uning otasiniyam avvaldan yoqtirmas, ammo bo'lar ish bo'lgan, endi borib "qizimni olasan", deyishdan boshqa chorasi qolmagandi. Otasining nega yer bilan bitta bo'lib o'tirib qolganini Ulbozor avval tushunmadi. Keyin Abulxayrni aytib qo'rganini angladi: "Tamom! Avval tamom bo'lmasayam endi tamom! Gapingda turmading, endi sendan kechdim, desaya Abulxayr. Deydi u! U shunaqa! Nahotki endi Abulxayrdan ajrab qoladi? Ulbozorning tomog'i "g'ip" bo'g'ilib, yugurganicha uyga kirib ketdi.

O'yga botib o'tirib qolgan Bog'mon ancha vaqtdan keyin o'ziga kelib, javdiraganicha atrofiga qaradi. Yonida yotgan tuffini oldi-da, gandraklab, ko'chaga chiqdi. Bitta-yarimta chaqqon kelinlar molini podaga haydab chiqayotgan sahar payti bo'lib qolgan edi.

* * *

Abulxayr bildirmasdan uyiga kirdi. Dahlizdan eski tuflisini topib kiydi-da, Alibeklarnikiga jo'nadi. Alibek: Cho'lga boramiz, ishlaymiz. Ko'p pul topamiz", deb yurardi anchadan beri. Alibekni aul emas, aslida cho'l romantikasi, yoshlarning cho'ldagi shijoati qiziqtirardi. Endi cho'lga ketaveradigan vaqt bo'ldi shekilli. Faqat tezroq, Bog'mon aka orqasidan yetib kelmasdan tezroq jo'nash kerak cho'lga. Alibekning o'zi uyida alohida xonada yotishini yaxshi bilardi. Doim kirib-chiqib yurgani, aksariyat qalin do'stlar bir-birini yotib ham yurardilar. Shu tufayli Abulxayr hech bir ikkilanishsiz to'g'ri u yotgan xonaga kirib bordi. Alibek uxlayotgan ekan, silkib-silkib uyg'otdi.

- Ha? Tinchlikmi? so'radi Alibek ko'zlarini ishqalab.

- Ketdik. Cho'lga!

- Tush-push ko'rmingmi? Cho'lga shu vaqti shunaqa tarzda ketadimi?

Abulxayrning qattiq achchig'i chiqdi. Hozir adi-badi aytishib o'tirishga toqati ham, vaqti ham yo'q edi. Qanday bo'lmasin, sir oshkor bo'lgunga qadar qishloqdan chiqib ketish kerak, ko'zdan yo'qolish kerak. Keyin... nima bo'lsa bo'lar. Anig'i shu ediki, Abulxayr ayb ish qilgandi. Qo'lga tushsa jazolanardi. Abulxayr shu jazodan qochib ketayotgandi. Bu jazo Bog'mon akaning kaltagimi yoki qamoqmi, buning ahamiyati yo'q. Qo'lga tushmasa bo'ldi.

- Ketasanmi, yo'qmi??!

- Shoshmay tur, tong otsin, nonushta qilaylik. Otamdan ruxsat so'raylik. Buncha shosh...

- Yursang hozir yur, men ketyapman.

Alibek kulib yubordi, uni hazillashyapti deb o'yladi. "Unda men senga oq yo'l tilayman", deganicha chappa o'girilib, ko'rpasiga o'ranib oldi.

- Bormaysanmi?

- Yo'q...

- Odam emas ekansan!

Abulxayr ko'chaga qaytib chiqdi-da, katta yo'lga ravona bo'ldi. O'sha yerdan to'g'ri kelgan avtobusmi, mashinami o'tiradi-da, Samarqandga yetib oladi. Undan to'g'ri cho'lga o'tadi. Yo'l bo'ylab, kecha yor-yor aytganlari esiga tushdi. Go'yo do'stlari birlashib: Abulxayr qochmoqda,
Yor-yor, yoron-ey!
deb bayt aytishayotganday. Do'stlarining ichida Toshtemir ham borday. U hammaga Abulxayrning qochayotganini ko'rsatib, qotib-qotib kulayotganday.

Lola sayli

Shohidaning sanatoriya kelganiga ancha bo'ldi. Tog' havosi yoqdi, shekilli, yuziga qizillik yugurib qoldi. Birinchi kunlari palatasidan chiqmasdi: yotardi, televizor ko'rardi. Ovqatlanish uchun oshxonaga zo'rg'a borib kelardi. Ba'zan hamxonasi Muharram:

- Palatada yotaverib, dimiqib ketmaysizmi? degancha ko'chaga sudrardi.

Muharram yigirma besh yoshlardagi quvnoq juvon. Dam oluvchi yigitlardan tanishlari ko'p. Tashqariga chiqdimi, o'shalar yetib kelishadi. Muharramular bilan ochiq-oydin gaplashaveradi. Ba'zan meyoridan oshirib yuboradi. Shohidaga bunaqa chegaradan chiqishlar yoqmaydi, mazam qoyapti, degan bahonani qilib, shartta palataga qaytadi. Yo'q, yigitlarni yomon demaydi, balki haqiqatan ham yaxshi yigitlardir. Ko'ngillarida kiri yo'qdir, bari bir ular gap so'rayvergandan keyin javob berishga majbur. Suhbatlashayotganda ko'z oldiga Obloql keladiyu,...

Shohida kasalxonada bir yil yotdi. Shundan yetti oyi gipsda. Shohida yotgan yerida erining borgan sari ozib-to'zib borayotganini ko'rib, u kelganiga ko'zlariga tikilib, uning haroratli qo'llarini yuziga surkardi. Yosh tomchilari yonoqlariga sizib chiqardi. Obloql uni alqamasdi, ko'ngil uchun "yig'lama", demasdi. Mehr to'la ko'zlarini tikib turaverardi.

- Mana ko'rasan, - derdi ishonch bilan, - hali hammasi yaxshi bo'lib ketadi. Sen tuzalasan, vrachlar bilan gaplashdim. Menga Shohidani tuzatib bersangiz bo'ldi, dedim. Nima kerak bo'lsa topaman, dedim. Ular ham "qo'limizdan kelgan chorani ko'ramiz, tuzalib ketadi", deydishdi. Eh-he, hali hech narsa ko'rmaganday bo'lib ketasan. O'shanda yana tog'larga chiqamiz, lola teramiz, xo'pmi?

... Shohida ahvoli og'irligini kasalxonaga tushgandayoq sezgan, hayotdan umidini uzib qo'ygandi. Uy-joy, mol-hol, bola-chaqa u yoqda tursin, o'zini eplay olmasa, boshini yostiqtan ko'tara olmasa, nima qilsin? O'shanda erining kulib turgan ko'zlariga qarab, rahmi kelgandi. O'ziga oson: o'ladi-ketadi, vassalom. Sho'rlik eri esa ovora bo'lib, har hafta Barlosdan Samarqandga kasalxonada yotgan xotinini ko'rgani kelishi kerak. Balki bir kun bu yurishlar joniga tegar... Shohida shuni o'ylasa, qo'rqib ketar, oxirgi daqiqasigacha undan ajrashni istamasdi. Mayli, keyin o'ligini kigizga o'rab, Barlosga olib ketsin. Boshqa hech kimmas! Faqat u! Kelin bo'lib tushgan, bir dunyo shirin-shirin orzular olib kelgan xonasida hech narsadan bexabar, behis, bejon, tinchgina yotaveradi. Qaynonasi boshia sochlarini yulib yig'laydi. U juda yaxshi ayol. Kelinligining birinchi kunlari unga yoqish uchun vositalar axtarardi. Keyin bilsa, qaynonasi ham kelin bilan kelishib, yaxshi yashab ketish uchun vosita axtarayotgan ekan. Keyinchalik shu haqda gaplashib qolib, ikkalasining ham fikri bir joydan chiqib, rosa maza qilib kulishgandi... Yana... shahardan ota-onasi borishadi. Hovli yig'ida to'ladi. Onasi uning sovuq, qotib qolgan yuzini silaydi. "Qizginam, sen o'lgancha men o'lsam bo'lmasmidi? Xudo sening joningni olganicha menikini olsa bo'lmasmidi?" deya ayuhannos soladi. Keyin U keladi. U mard, chidamli. Bari bir sevgan yori Shohidasi bilan vidolashishi kerak. Ko'zlari namlanadi.

Shohidani esa hayotning hech qanday tashvishlari endi qiziqirmaydi. Lekin shunga qaramay, qalban azoblanayotgan, g'am-g'ussaga botgan eriga tikiladi. Sochlariga darrov oq oralapti. Hammasi o'zining o'limi tufayli ekanini anglaydiyu, sakrab turgisi, "bo'ldi, ko'p kuyinavermang, men endi o'lmayman, jonim", degisi keladi. Hatto o'rnidan turmoqchi bo'ladi. Ammo qimiray olmaydi. Shunda o'lik ekani esiga tushadiyu, yana hammasiga befarq bo'lib qoladi. Keyin Shohidani kafanga o'rab-chirmab soladilar-da, qabristonga olib jo'naydilar. Hovlida ayollar bo'zlab qolishadi. Ularning ichida onasi bilan qaynonasi ham bor. Bir yoshli o'g'ilchasi qandaydir begona ayolning qo'lida. U ham chirqillayapti. Uch yoshli qizchasi esa qaynonasining pinjiga tiqilganicha, yomon hodisa bo'layotganini sezib, qo'rquv aralash bir unga, bir bunga olazarak alanglaydi. Shohidani chiqarishayotganda qaynonasi dod soladi. Tobut ko'targanlarga: "qizimni bermayman!" (Shohidani, qizim, derdi) deb tarmashadi. Ko'z oldi qorong'ulashib, hushidan ketadi. Ayollar qaynonasi bilan ovora bo'lib qolishadi. Tobut ko'targan erkaklar ham to'xtashadi. U o'z dardi bilan avval hech narsani payqamaydi. Hamma hovliga shoshilayotganini ko'rib, yana bir ko'ngilsizlikni sezib, asta qadam tashlaydi. Onasi hushidan ketgan! - Shoshib qoladi. Najot izlab odamlarga qaraydi. Shohidasi tirilsagina hamma narsa avvalgi joyiga tushishi mumkin. Ammo Shohida o'lgan... O'lgan!!!

Bu ko'ngilsizlikni kuzatib yotgan Shohida chiday olmaydi. O'rnidan turmoqchi, sakrab yerga tushmoqchi bo'ladi, lekin mahkam bog'lab tashlashgan. "Jonim, qo'llarimni yeching, tushay, dardingizga darmon bo'lay", demoqchi bo'ladi, ammo ovozi chiqmaydi. O'lgan! xo'rliki keladi. O'lgan odam ojizligini, tiriklar nima qilsa, shu holga tushishini yana bir bor eslab, qimirlashga harakat ham qilmay yotaveradi...

Shohida kasalxonaga dastlab tushgan kezlari shunaqa vahimali narsalar haqida ko'p o'ylardi. Ba'zan qo'rqsa, ba'zan o'z o'limiga ham odatdagi voqeaday xotirjam qaraydigan bo'lib qolgandi. Yaxshiyam U bor ekan. Bo'lmasa, so'zsiz g'amning o'ziyoq Shohidani ado qilardi. "Sochingni supurgi, qo'lingni kosov qilib bo'lsa-da, ko'ngilini oladigan ering bor ekan. Tuzalib chiqqaningdan keyin sira gapini ikki qilma", deydi Vrach. Shohidaning ko'zlari porlab ketadi. Yaqiningning yaxshiligini qalban his qila turib, boshqa birovdan ham eshitish odamga alohida quvonch bag'ishlarkan-da. Uni esalasa, yuziga yosh tomchilari sizib chiqaveradi. Artmaydi. Artishga urinmaydi. Mayli, nimaga yig'layotganini bilib qo'yishsin. Baxt yoshlaridan uyalish shart emas. Har kim ham Shohida erishgan baxtga muyassar bo'lavermaydi. Har bir juvonning ham turmush o'rtog'i Obloqldek sodiq va mehribon emas. U ishonch bilan "toqqa chiqamiz, lola teramiz", dedi. Agar shu gapini kasalxonaga tushgan kunlari aytsa, ishonmas. Mendek bechora, xastaning ustidan kulyapti, deb xafa bo'lardi. Ammo o'sha damda beixtiyor sevgilisining gaplariga ishongisi, "Siz juda yaxshi odamsiz!", deb ko'ksiga minnatdorona bosh qo'ygisi keldi. Ammo hali gipsda yotipti. Ko'p o'tmay, Shohida yana yurib ketadi. Ular birgalashib toqqa, lola sayliga chiqishadi. Ikkovlon qo'l ushlagancha lolazor oralashadi. U lola tutadi. Shohida lolani olayotganda kaftidan tutib qoladi. Qo'llari haroratli. Harorat Shohidaga ham o'tadi. Uning ko'zlarida mehribonlik, sadoqat mujassam! Bu nigohlarda Shohida ilg'aydigan va ilg'amaydigan, sezadigan va sezmaydigan, biladigan va bilmaydigan ko'pdan-ko'p yaxshilik alomatlari bor. Hammasi Shohida atalgan. Shuni his qiladiyu, Shohidaning baxtiyorligi o'n chandon oshib ketadi. Qo'lida esa lola! Lolani birgalashib tutib turishi. To'lib-toshib kelayotgan hislarini jilovlash uchun Shohida lolaga qaraydi, fikrini chalg'itishga urinadi. Ammo... qayoqqa qaramasin ko'zlari birgina Uni izlaydi. Yuragi birgina Unga intiladi. Fikrlari birgina

Unga qaratiladi. Beixtiyor o'zini Uning bag'riga otadi. Uyalib, yuzini Uning ko'ksiga yashiradi. Hamma yoq qip-qizil lola! Uddi yoyilgan gilamdek...

U "to'qqa chiqamiz", deganda Shohida shunday xayollar surgandi. Asli, ikkovining tanishishlariga ham lola sayli sabab bo'lgan edi. Umuman, buni unchalik lola sayli demasa ham bo'laveradi.

O'shanda ham to'qqa chiqishgandi. Samarqandda institutda ikkisi parallel guruhlarda o'qishardiyu, hech yurak yutib, yaqinlashib, biron marta tuzukroq suhbatlashmagandilar. Albatta, o'sha voqeagacha bu narsa ikkisinining ham xayoliga kelmagandir: jismoniy tarbiya darsidan "sinov"dan o'tish uchun shahardan o'n besh kilometr naridagi Ohalik tog'iga piyoda "tur-poxod" tashkillashtirildi. Ikkinchi kurs bitiruvchilari ko'chalarni to'ldirib, Samarqanddan chiqishdi. Yarim yo'lga yetganicha birikib harakat qilishdi. Keyin-keyin tartib buzildi. Ko'plab toliqib, ortda qola boshladi. Nozikroq bo'lgani uchun Shohida bir dugonasi bilan eng oxirgilar safida borardi. Bir qishloq yo'lidan o'tishayotganda bir uyga suv ichishga kirishdi-da, charchoq tufayli bir pas o'tirib qolishdi. Qaytib chiqishsa, hamma ketib qolgan ekan. Shohidaning madori qurigandi. Dugonasi oldinga qarab-qarab qo'yardi. Shohida uning toqatsizlanayotganini, lekin ilojsiz ketolmayotganini sezar, "sen boraver", desa mutlaqo yolg'iz qoladi. Buning ustiga "sen meni kim deb o'ylayapsan?", yeb xafa bo'lishi mumkin. Shu alfozda sekin-sekin ketisharkan, yo'l chetidagi daraxtlarning soyasida o'tirgan qo'shni guruh talabalaridan to'rt yigitga duch kelishdi. Shohida daf'atan quvonib ketdi. Axir orqada yolg'iz o'zimiz qoldik, deb o'ylagandi-da, xayriyat... Birgalashib yo'lga tushishdi.

- Siz charchab qolganga o'xshaysiz, keling, yetaklab ketaman, - deb javob ham kutmasdan, Obloqul ismli yigit qo'lidan ushlab oldi.

"Og'ir yuk"dan xalos bo'lganiga quvongan dugonasi ozroq yonma-yon yurdiyu, keyin oldinroqqa o'tib, yigitlarning biri bilan qo'l olishdi. Shu tariqa ketaverishdi: Eng oldinda ikki yigit, o'rtada dugonasi bir yigit bilan, orqada Shohida Obloqul bilan.

Yiqilayotganingda tayanch borligini bilsang, har qalay, ko'ngling cho'kmaydi. Shohida xuddi shu tayanch Obloqul ekanini, unga suyanish kerakligini, unga suyanish mumkinligini his qilib, ancha xotirjam tortgandi. Shohidaning xushtorlari ko'p edi. Shohida ularni axmoq qilar, ovorayu-sarson etib, yugurtirardi. Ammo hozir Obloqulni "o'ynatish"ga holi yo'q. "Balki bu ham o'shalarning biridir. Ataylab, orqada qolib, uni kuzatib kelayotgandir. Agar shunday bo'lsa, hozir gap boshlaydi. Qiziq-qiziq latifalar aytadi. Yoqish uchun o'zini yaxshi odam qilib ko'rsatishga urinadi", deb o'yladi. Mayli, urinaversin, o'zini ko'rsataversin. Yaxshi bo'lsa yaxshidir, Shohidaga farqi yo'q. Yetaklasa kifoya. Dugonasining kishi bilmas g'ijinishlarini ko'rmasa, hammasiga rozi. Hozir Obloquldan foydalanib qolish kerak. Qizlik latofatidan uni chalg'itib, foydalanmasa, nima qilib yuripti qiz bola bo'lib!?

Biroq qancha yurishmasin, Obloqul gapirmas, gapirishga urinmas, Shohidaning qo'lidan tutganicha, oldinga qarab ketib borardi. Balki meni o'ylayotgandir, deb yigitning yuzidagi fikrlarni uqmoqchi bo'lar, ammo bir maromda harakat qilayotgani tufayli yigitning yuzida ham bir xil o'ychanlik ifodasi aks etar, Sho=ida =ech narsani anglay olmasdi. Obloqul har zamonda qarab qo'yar, faqat ko'zlarigina mehribonlik bilan kulib turardi. Nihoyat nigohlar rosmana to'qnashdi. Shohida:

- "Qachon yetamiz, charchab ketdim-ku, tezroq olib bormaysmizmi?", - degandek zorlandi.

- "Yuravering, yaqin qoldi", - degandek, Obloqul qizning qo'lini daldali qisib qo'ydi. Qo'llari haroratli. Harorat Shohidaga ham o'tib, yurishlari birmuncha tetiklashdi.

Oltovlon soy bo'ylab borishmoqda. Borgan sari soy kengayib, yo'l chekinardi. Yo'l jarlik ichiga tushdi. Keyin jarlik ichida daraxtlar uchradi. Ular tobora ko'payib, tog' yon bag'riga yetishganda daraxtzordan narini ko'rib bo'lmay qoldi. O'zlaridan oldin kelayotganlarning izi yo'qolgandi. Yana yo'l yurishda davom etishdi. Yana daraxtlar kamayib, jarlik tugab, tog' oralig'idagi soynig o'zi qoldi. Shohida qattiq charchadi. Ixtiyorsiz ravishda yigitning bag'riga kirganicha, behol qadam tashlardi. Ilojini qilsayu, shartta o'tirsa, keyin... Ammo oldindagilar ketib borar, ikkovi ortlaridan sudralar, asosiy guruh sira ko'rinmasdi. Shohida yigit shundoqqina qulog'i tagida nafas olayotganini sezar, nafasi bir-ikki dona soch tolalarini muttasil pipirirardi. Nogahon yana tizginsiz xayollarga berildi: "Hozir Obloqul to'xtab, Shohidani o'ziga qaratsayu, mahkam quchoqlab o'paversaya!? Nima bo'ladi? Qarshilik ko'rsatadimi? Siltab tashlaydimi? Baqirib yordamga odam chaqiradimi? Anavi to'rttalasi ancha oldinda. Bir tomon soy, ikkinchi tomon qir, oldilarida - baland cho'qqi. Dodini kimga aytadi? Yigit... Keyin o'zi ham... E-e, shuniya? Nega bunday o'ylayapti? Nimaga yigitni nazari ilmayapti? Hamma yigitlarga o'xshagan yigit. Umuman, o'ptirsa nima qipti? Birov ko'rib o'tiriptimi? Hindulardek, anavi toshlar orasidagi g'orga kirib olishsa... keyin..." Shohida o'z o'ylaridan lazzatlanib, kulimsiradi. Voqea qanday davom etishini tasavvur qilib qo'rqib ketdi. Keyin "bu faqat xayol", deb o'ziga tasalli berdi. Obloqul esa... hamon oldinga qaraganicha nimalarnidir o'ylab ketib borar, yonidagi qiz fikran u bilan nima ishlar qilganidan mutlaqo bexabar edi. "Yo'q, bu yigit unaqalardan emas!" Shu daqiqa Obloqul unga nazar tashladi. Ko'zlari mehribonlik bilan kulib turardi. "Yo'q, bu ko'zlar aldamaydi!"

"Yo'q, bu ko'zlar aldamaydi!" fikran takrorladi Shohida va uyalib qo'ydi. Qiz bola boshi bilan shunaqa narsalarni o'ylayaptiya! Navbatdagi do'nglikdan oshganlarida to'rtovlon suv bo'yida o'tirishgan ekan. Yo'l bo'ylab, tog'ning ancha ichkarisiga kirib ketishgan, tog'u-toshlar orasida salkam ikki soatdan beri yurishar, lekin hamon asosiy guruhning qorasi ko'rinmasdi. Har yer har yerda sayrga chiqqan kichik-kichik guruhlar qir yon bag'irlarida dam olib yotishar, ulardan gap so'rab, tayinli javob olisholmasdi. Nihoyat hech kim uchramay qo'ygandan keyin to'rtalovi o'tirib olishgan ekan. Ular to'rxaltalarida olib chiqqan tushliklarini o'rtaga qo'yishdi. Shohida qo'lga non, shokolad oldi. Ammo ishtahasi bo'g'iqqligini anglab, qo'lidagilarni joyiga qo'ydi. Obloqul esa shapati nonning yarmini sindirdi-da, soy suviga botirib yeya boshladi.

- Siz ham shunday qiling, - dedi u. Har qanday shokoladdan ko'ra ko'proq maza qilasiz.

Shohida jilmaydi. Keyin yigit uzatgan nonni soy suviga botirib, bir oz shimdirdi-da, tishladi. Nazarida shirindek tuyuldi. Nonni yana suvga botirdi. Yana tishladi. Non juda shirin! Shohidaning ishtahasi ochildi, toliqqanini unutdi. Obloqulga shodon tikildi. Uning ko'zlari: "aytmadimmi, zo'r-a?" deganday tikilib turardi. Shohida boshqacha bo'lib ketdi... Obloqulning ko'zlaridagi nur qalbining qaysidir burchini yoritayotganday.

Shunday o'zgarishni o'zida birinchi marta his qilayotgandi...

Shohida endi ichida Obloqulni maqtayotgandi. Nimasini maqtaydi? Nimaga maqtaydi? Hammaga o'xshagan yigit. Azaldan yigitlar qizlarga yordam berib kelgan. Hech ajablanarli joyi yo'q. Bari bir... ipsiz bog'lanib borayotganini tushunar, sovuqqon bo'lishga harchand urinmasin, eplay olmas. Shunchaki qarayman, deb yigitga mehr bilan tikilayotgani ustida o'zini o'zi qo'lga tushirardi. Yuragi esa...

Uzoqdan eshak mingan odam kelaverdi.

- Shu tarafga ketayotgan yigit-qizlarni ko'rmadingizmi, ota?

- Yo'q, -dedi ota eshagini to'xtatib, qo'lidagi cho'pon tayog'ini qo'ltig'iga qistirib, oq oralagan soqolini silarkan, sinovchan

ko'zlarini yigitlarga, keyin qizlarga tikdi. Sizlarga kim kerak?

- Biz Samarqanddan tur-poxodga chiqqan talabalarimiz. Asosiy guruhdan orqada qolganmiz. Ular shu tarafga ketgan bo'lishi kerak.

Ota tur-poxod mag'zini chaqchoqchi bo'ldimi, bir zum soqolini tutamlab o'ylandi.

- Shahardan kelganlarning hammasi pastda, - dedi keyin, - bu tomonda faqat qo'y suruvlari bor. Ko'rmasdan o'tib ketgansizlar. Yo'l jarlikka tushganda qalin daraxtlar bor, shaharliklar odatda o'sha yerdan qaytishadi.

Oltovlon bir-biriga qarashdi. "Ota" eshagining qorniga nuqib, yo'lida davom etdi. Hammasi charchagan, oxirgi umid uchqunlari ham so'ngandi.

Orqaga qaytish kerak...

Yana avvalgiday uch bo'lak bo'lib orqaga qaytishdi. Obloqul Shohidaning qo'lidan tutganicha, xotirjam ketmoqda. Kam gapiradi, har zamonda qarasa, ko'zlari mehr bilan kulib turadi. Bir maromda nimalaridir o'ylaydi. Bir mahal qirga tikilib qoldi. O'n qadamcha shu alfozda yurdi. Keyin "to'xtab turing", deb shoshilganicha, qiyalab qirga chiqa boshladi. Shohida hayron. Yigitning chaqqon harakatlarini kuzatarkan, epchilligini tan olayotganini, "ko'rdingmi, qanday zo'r yigit!", deya o'ziga-o'zi maqtayotganini sezib qoldi.

- Nimasi zo'r? deya yuragining ikkinchi tomoni qarshi chiqdi. Oddiy yigitlardan biri.

- O'jarlik qilma! dedi birinchi tomon. Bunaqa yigit har qadamda uchrayvermaydi. Sinash uchun har kuni bunaqa vaziyat bo'lavermaydi.

- Ho, kim sinar ekan? vujudida yuz berayotgan hodisani ko'rib ko'rmaslikka olardi ikkinchi tomon. Shu pachoq yigitni sinar ekanmanmi? Nimasini sinayman? Bema'ni gaplaringni qo'ysangchi!

- Hali bu gaplaring uchun pushaymon yeysan! derdi birinchi tomon o'jarlik bilan.

- Nima? Sen nega meni tinch qo'ymaysan? Nimaga undamoqchisan? Fikringni sezyapman, shu yigitni sev demoqchisan.

- Mana endi ikkimizning fikrimiz bir joydan chiqdi.

- Hech qachon bunday voqea yuz bermaydi!

- Buni endi... ko'ramiz!.. Ana, qaragin, qandaydir xarsangning yonida cho'kkaladi. Nimanidir oldi. Ana, baland ko'tarib ko'rsatyapti. Ur-re! Lola!

Qiz-qizil lola ko'tarib, yuzi qizarganicha yigit kelardi!

Qip-qizil lolani kutib, yuzi qizarganicha sevgiga tashna qiz turardi.

Lola qip-qizil edi! Yuzlar qip-qizil edi! Ular hayajondan entikardilar.

Lola ikkovining umr yo'lini uzil-kesil bir tomonga burib yuborgandi.

O'zidek nozik, chiroyli lolani ko'ksiga bosib, Shohida bormoqda. Charchog'idan asar ham qolmaganday. Orqasiga qaramaydi, ammo U (shu damdan boshlab Obloqul Shohida uchun "U" ga aylandi.) yonginasida kelayotganini his qilib, yanada qattiqroq hayajonlanardi.

Tog' yo'lidan qaytib tushganlarida kursdoshlarini ko'rib quvonib ketishdi. Keyin bilishsa, o'zlaridan boshqa hech kim toqqa chiqmagan, "ota" aytganday, jarlikdagi daraxtzor oralab ketishgan ekan.

Institutni bitirishda nikoh to'ylari bo'ldi. Kelin-kuyov qo'sh diplomni qo'lga olib, Barlosga ravona bo'lishdi. Shohida asli qishloq qizi, otasining xizmati yuzasidan Samarqandga kelib yashab qolishgandi. Kishi qishloqda tug'ildimi, qishloqda o'sdimi, keyin har qancha shaharda yashamasin, g'ala-g'ovurga o'rganmasin, qalbining bir burchagida qishloqqa intilish hissi yashirib turaveradi.

Shu sabablimi, Shohida yangi hovliga tezda o'rgandi. Qaynonasi unga ish qiling, demas, sigirni ham o'zi sog'averar, kirmi ham o'zi yuvaverar, nonni ham o'zi yopaverardi. Shohida qaynonasining yordami bilan bu ishlarni o'z qo'lga oldi. Shu orada qizchasi tug'ildi. Keyin o'g'li... Hamma ko'rguliklar o'shandan boshlandi. Kichik, katta chillalari o'tdi hamki, ishga chiqolmadi. Hatto emizikli o'g'liga tuzukroq qarolmasdiyu Asta-sekin uy tashvishlari yana qaynonasining chekiga tushdi. Shohidaning darmoni ketib borar, uyda "bekorchi xotin" bo'lib qolayotganidan vijdoni qiynalardi. Bola tug'ilgandan so'nggi nimjonlik, o'tib ketsa kerak, deb dastlabki oylarda ahamiyat berishmadi. Shohidaning o'zi ham shu fikrda edi. O'zi avvaldan u nimjon qiz edi. Shu nimjonligi bois Obloqul bilan tanishgandi. Qaytadan kuchga kirsas, qaynonasining qo'lidan uy tashvishlarini olishini o'ylab, o'ziga tasalli berardi.

Asta-sekin o'zidagi o'zgarish vaqtincha bo'lmay, kuchayib borayotganini tan olishga majbur bo'ldi. Shu orada gripp bilan qattiq og'rib yotib qoldi. Uni kasalxonaga olib borishmoqchi edi, "o'laman sattor, bormayman. Emizikli bolamni qanday tashlab ketaman", deb turib oldi. Shohida grippga qadar belida og'riq sezardi. Gripp asoratlari ham qo'shildiyu, og'riq kuchaydi. U bo'ldi-bu bo'ldi, oradan yana ikki oy o'tdiyu, Shohida o'rnidan turolmay qoldi. Majburan kasalxonaga, Samarqanda olib borishdi.

O'shanda edi-da, yotgan joyida o'limini tasavvur qilishlari...

Umurtqa suyagi chiriy boshlagan ekan. Davolash juda qiyin edi. Ahvoli og'irligini Shohida ham sezardi. Sezardiyu, "o'lib ketsam U nima qiladi?" deb azob chekardi. O'lsa... eh-he, U ozmuncha tashvishga qoladimi? "Mendan keyin o'ziga menday xotin topa olarmikan?" deb qayg'urardi. Ammo ko'nglining bir burchagida o'sha ayolga rashki kelayotganini ham angrab turardi. O'limini kutardiyu, o'lishni istamayotganini bilib qolardi. Unga: "Ko'p kelavermang, uy ishlariga qarashing", derdiyu, doim U o'z yonida o'tirishini istayotganini bilib qolardi. "Balki hozirdan yangi xotin izlayotgandir", deb o'ylar, go'yo shunday bo'lishi tabiiydek, Uning yonida boshqasini ko'z oldiga keltirardi.

... U kuyovlik kiyimida. Yonida harirga burkanib, uyaganicha kelinposhsha turipti. Qizchasi, qaynonasining qo'lidagi o'g'ilchasi bir chetda mo'ltirashadi. To'yxonaning bir burchagida gipslangan Shohida yotipty. Keltn-kuyovga qarardiyu, o'zini tutolmaydi. U esa:

- Axir o'zing shuni istagandingku. Bari bir erta-indin o'lib ketadigan odamsan, men esa yashashim kerak. Ko'rdingmi, qanday chiroylisidan topdim, - deydi.

Shohidaning battar xo'rliigi keladi. Baqirib yig'lamoqchi bo'ladi, ammo ovozi chiqmaydi. Tura solib, kelinni kosov bilan quvib chiqarmoqchi bo'ladi, ammo gipsda yotipty. Kelin-kuyov tantana bilan Shohidaning yonidan o'tib ketadi. O'tirganlar o'rinlaridan turib, qarsaklar bilan ularni olqishlaydilar. Shohidani esa o'tgan-ketgan turtadi, masxaralaydi.

Shunday bo'lishi kerak edi...

Shohida buni yaxshi tushunadi. Ammo tushunish boshqayu, hayot o'yinlarini o'z boshingdan o'tkizish boshqa ekan-da! Taqdirga tan bermoqchi bo'ladi, biroq yuragida isyon.

... Yostig'i ho'l bo'lib ketdi. Kimdir peshonasiga qo'l qo'ydi. Ko'z yoshlarini artdi. Shohida siltab tashladi. Qulog'iga: "Shohida! Shohida, bu men! Men keldim", degan muloyim ovoz eshitildi. U!!! Bu yerda nima qilib yuripti?! Hozirgina kelinchakning yonida savlat to'kib turuvdi-ku! Shohida qo'rqa-pisa ko'zini ochdi. Haqiqatan ham yonida U!! Shohida battar yig'ladi. O'zini

26 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

This is not registered version of TotalDocConverter

- Sizdan iltimos! Shohidaning birinchi gapi shu bo'ldi. Agar yana uylanadigan bo'lsangiz, men o'lganimcha sabr qilib turing. Xo'pmi?!

- Tentakkinam! dedi U. Nimalarni o'ylab yotipsan? Men dori topib kelyapman. Bu yerda boshqa hech kimda yo'q. Kamyob. Vrachlar buyurishgandi. Ko'p joylarni izladim. Oldindan chiqib ketgandan beri hali uyga borganim yo'q.

Shohida dorini ko'rgandan so'ng Obloqulga sinsiklab qaradi: Ko'zlari kirtaygan, yoqasi kirlagan, soqoli o'sgan. Shohida uyalib ketdi:

- Xayolimda... biznikida to'y bo'layotgan emish. Siz... boshqa bir kelinchak bilan to'rda... bosh egib turipsizlar, - dedi Shohida o'zini bosib olgandan keyin. O'rnimga olgan yangi xotiningizga qarab, alam o'tib yig'layotgandim, siz... Shohida shirin jilmaydi.

- Olib bergan xotining chiroylimi?

- Juda ham. Sizga yoqdi! Shohida davom etolmadi, yana kelinchakka rashki qo'zidi

- Menga balki... faqat sen kerakdirsan. Balki men faqat sen uchun... Uning sokin ovozi Shohidaning vujudini jimirlatib, rohatli bo'shashtirib yubordi.

O'shanda aytgan edi-da, "toqqa, lola sayliga chiqamiz" deb.

Uni yana bir marta qattiq ovora qilganini eslaydi. Gipsni olganlaridan keyin darrov yaxshi yurib ketolmas edi. Shuning uchun qo'ltiqtayoq kerak edi. Vrachlar buyurgandan keyin rosa bir hafta izlapti. U shahardan bu shaharga dorixonama-dorixonona izlab ketaveripti. Oxiri hafsalasi pir bo'lib, qaytib kelsa, o'zlarining Barlosidagi kichikkina dorixonaning bir burchagida ikkitasi sakkiz yildan beri xaridor chiqmay, chang bosib yotgan ekan. Olasolib, Samarqandga jo'nayveripti.

O'shanda yana aftodahol, lekin baxtiyor holatda kirib kelgandi.

Birinchi marta oyoqqa turganichi? Xuddi go'dak endi qadam tashlayotgandek. Vrach bilan U ikkovlon ikki qo'ltig'idan tutishdi.

O'z oyoqlarining bilan yurish qanchalar katta baxtligini yolg'izgina Shohida biladi. Bemalol qadam bosadigan bo'lgancha U yonidan ketmadi. Shohidaning Unga rahmi kelar, uyda qaynonasi bolalari bilan juda qiynalayotganini bilar, lekin uni yonidan ketkizishni istamasdi. Ayni daqiqada Shohidaga qo'ltiqtayoqdan ham ko'ra ko'proq Uning o'zi kerak edi.

Bir yil deganda kasalxonadan uyga javob berishdi. Vrachlar Shohidani sanatoriya jo'natishni maslahat berishgandi. Avvalgiday kuchga kirishi uchun sanatoriya sharoitida davolanishi shart ekan. O'shanda Norxolning onasi, yana Usmonga o'xshaganlar:

"Sanatoriya xotinlar unaqa bo'lib ketadi, bunaqa bo'lib ketadi...", deyishaversa, U ancha o'ylanib qolipti. Oxiri ko'nglidagi hamma gumonlarini yengdi.

Muharram sanatoriya Shohidadan sal oldin kelgan. Shu yerdayoq (o'zining aytishicha) ikki-uch yigitni telba qilipti. Kasalxonaga tushgandan keyin "sil bo'lding", deb eri tashlab ketganmish. Shuning uchun jamiki erkak zotini ko'rarga ko'zi yo'q edi. Fikri-zikri tug'ri kelganini boplash. Xushbichim juvon bo'lgani uchun sanatoriya ancha xushtorlar orttirgan, ataylab, birini ikkinchisiga tezlab, urishtirib, o'zi huzurlanib yurardi.

Muharram Shohidaning hikoyasini maroq bilan tinglasa-da, Obloquldek yaxshi odamlar borligini tan olgisi kelmasdi. Bu Shohidaga yana-ada xush yoqar, Uning aziz kishisi borligidan faxrlanardi. Muharram esa ko'p o'ylanadigan bo'lib qoldi. Shohidadan takror-takror Obloqul haqida so'rar qanday xabar olganlarini, dori izlaganlarini juda aniq bilgisi kelardi. Muharram asta-sekin Shohidaga bog'lanib borar, ilgari ko'chaga sudraydigan bo'lsa, endi palatada o'tirib, uzoq suhbatlashardi. Gap qayoqqa aylanmasin, oxir-oqibat Unga taqalar, keyin xayol surib o'tirib qolardilar. Xat orqali Uning suratini olishdi. Suratdagi ko'zlari mehribonlik bilan tikilib turgan yigitga Muharram uzoq tikildi. Ko'nglidan ko'p narsalar o'tayotganini tushunib, Shohida indamasdan kuzatdi. Muharramning qo'llari titardi. Surat polga tushib ketdi. Ammo Muharram buni sezmedi. Shohida dugonasining holatidan ko'ngli buzilib, qimirlolmay o'tiraverdi. Muharramning boshi egilgan, ko'zlarini tuman qoplagan. Yoningdagi kishi ham chekayotganini ko'rsang, aslo kulib o'tolmaysan. Uning g'ami zarracha bo'lsa-da, senga ham ko'chadi. Shohida Muharramni tashlab ketgan abevafoni juda yomon ko'rib ketdi. Yomon ko'rish oddiy munosabat! Nafratini ifodalashga so'z yo'q. Balki oralaridan biron gap o'tgandir, ammo qaysi mard erkak xotinini qiyin ahvolda kasalxonada yotganida tashlab ketadi. Xotin degan insonga aynan o'sha vaqtda er tayanchi, mehri, sadoqati kerak-ku!

Nihoyat Muharramning dardi bir oz kamaydi, shekilli, suratni qidirdi. Xijolatlik bilan poldan avaylab olib, puflab, Shohidaga tutarkan:

- Siz juda baxtiyorsiz! dedi. Ko'zlarida yosh g'iltilladi. Kafti bilan yoshini artirdi-da, o'zini oqladi. Ko'nglingizga kelmasin, men shunchaki... Hali ko'rasiz, menga ham Obloqul akaga o'xshagan yigit uchraydi. Uchramasa, o'zim izlab topaman! Muharram kulimsirashga harakat qildi. O'shanda sizga suratini yuboraman. Mana ko'rasiz!